

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

“Himoyaga ruhsat etilsin”

Magistratura bo'limi boshlig'i

p.f.n. X.Najmiddinova

2020 yil “ ____ ” _____

5A110801 – Tasviriy san'at va amaliy bezak san'ati mutaxassisligi

2- kurs magistranti

SULAYMANOVA SEVARAXON BAHODIRJON

QIZINING

““Quroq san'ati” tarixi va hozirgi kundagi talqini” mavzusidagi

MAGISTRLIK

DISSERTATSIYA ISHI

Ilmiy rahbar: dots. O'. Abdullayev

Namangan – 2020

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I bob. Milliy hunarmandchilikka asoslangan quroqchilik san’ati tarixining nazariy asoslari dekorativ-amaliy san’at namunasi sifatida va uning turlari.	
1.1. Adabiyotlar sharhi va tadqiqotning materiallari.....	10
1.2. Quroqchilik san’ati tarixi, Yevropa va Osiyo mamlakatlari orasida tarqalishi	15
1.3. Quroq san’atining turlari.	31
I bob bo’yicha xulosa.....	42
II bob. Quroqchilik san’ati namunalarining ishlab chiqarilish texnologiyasi.	
2.1. Quroq uchun kompozitsiya izlash va matolarning tanlanishi.....	43
2.2. Qoldiq mato bo’laklarini bir-biriga moslab, matolar asosida andaza tayyorlash.....	53
2.3. Quroq tikish texnikasida tasviriy san’at oqimlarining qo’llanilishi.....	64
II bob bo’yicha xulosa.....	72
III bob. “Gullagan vodi” mavzusida yaratilgan dekorativ kompozitsiya.	
3.1. Dekorativ kompozitsiya haqida tushuncha. Kompozitsiya uchun mozaik tasvir yaratish.....	73
3.2. Kompozitsiya uchun materiallar va bezaklarni tayyorlash	81
III bob bo’yicha xulosa.....	87
Umumiy xulosa va tavsiyalar	88
Foydalanilgan adabiyotlar.....	91
Ilovalar	93

KIRISH

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining dolzarbligi:

O'zbek xalqining boy badiiy merosi, uning jahon san'ati tarixidagi o'rni, taraqqiyot bosqichlari va zamonaviy yo'nalishlarini chuqur o'rganish hamda rivojlanish istiqbollarini belgilash, milliy g'oyaga mos tadqiqotlarni amalga oshirish shu kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ham yurtimizdagi ko'plab sohalarda bo'lgani kabi, mamlakatimizdagi ma'naviyat va ma'rifat, madaniyat va shu qatori san'at sohalariga ham alohida e'tibor berib, ezgu bunyodkorlik g'oyalarini amalga oshirishga butun xalqimizni da'vat etmoqdalar. Davlat miqyosdagi katta majlislarda san'atni yoshlarimiz tarbiyasida muhim ahamiyatga ega ekanligini, inson kamoloti va millat ravnaqining asosiy omili ekanligini, milliy san'at, hunarmandchilik va tasviriy san'at turlari rivojida ijodkor rassomlarimiz, ustalarimiz, san'atkorlarimizning qilgan ulkan ishlari katta ma'naviy jasorat, buyuk qahramonlik ekanligini alohida ta'kidlab o'tmoqdalar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: "Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug' ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor. Va men ishonaman, nasib etsa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san'atimiz ham albatta bo'ladi."¹

Har qaysi xalq yoki millatning tafakkuri, turmush tarzi, ma'naviy qarashlari o'z-o'zidan, bo'sh joyda shakllanib qolmaydi. Ularning vujudga kelishi va rivojlanishida aniq tarixiy, tabiiy va ijtimoiy omillar asos bo'ladi. Ota-bobolarimiz ruhiy olamining tomir-ildizlari aynan shu ma'naviy zaminda, tarixda ham, bugun ham barchaning havasini tortib kelayotgan oliyjanob fazilatlar asosida shakllangan. Xalq amaliy san'ati insonlarda badiiy didni o'stirish bilan bir qatorda ularda borliqni idrok etish madaniyatini va ularga nisbatan estetik munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi. U insonlarning badiiy mayllarini amaliy jihatdan to'g'ri yo'naltirish, keyinchalik uy jihozlari, kiyim-kechaklarga to'g'ri

¹ 2017-yil 3-avgust kunidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mamlakatimiz ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvda so'zlagan nutqidan

munosabatda bo'lishiga, qadimgi va hozirgi zamon amaliy bezak san'ati asarlarining estetik mohiyatini tushunib yetishga ko'maklashadi. Bu san'at dastgoh san'atidan o'zining bevosita xalq ehtiyojlariga moslanganligi bilan farq qiladi va inson hayotida ishlatiladigan buyumlarning mazmuni bilan bog'lanadi. Amaliy bezak san'atida hayotdagi mavjud narsalar (masalan, gullar, hayotiy lavhalar va hokazolar) aks etadi. Lekin, ular mustaqil xususiyatga ega bo'lmasdan, ma'lum bir buyum mazmuni va shakli bilan bog'lanib, uni bezashga xizmat qiladi. Amaliy san'at buyumlari birmuncha erkin-ijodkor tafakkuri maxsuli sifatida yaratiladi va u tevarak-atrofga fayz kiritishga qaratilgan bo'ladi. Xalq amaliy san'ati juda qadim zamonda paydo bo'lib, xalq hunarmandchiligi tarzida rivojlanib san'atning eng qadimgi rivoj topgan va barhayot turi bo'lib kelgan.

Quroqchilik shunday san'atki, u qadimiy tarixga va an'anaga ega. Mato qoldiqlaridan ishlangan qo'l mehnatining barchasi tejamkorlikning yorqin ifodasidir, turli matolardan foydalanish esa uyimizdagi tartiblilikni saqlaydi. Inson hamisha mehnat va go'zallikni qadrlaydi. Aynan bu qo'l mehnati asosida yaratilgan san'at turi dastlab kambag'allar orasida paydo bo'ldi, mato bo'laklari orqali ular uy ro'zg'ori uchun kerakli yangi buyumlarni yarata boshladilar, chunki u paytlarda chiroyli va sifatli matolar juda qimmat va kamyob bo'lgan. Turli rang va shakldagi mato parchalaridan bezakli buyum hosil qilinadi. Masalan, ko'rpa, ko'rpacha, yostiq, gilamchalar va boshqalardir. Davrlar mobaynida mato bo'laklarini birlashtirib tikish xalq orasida ommalashdi, keyin esa qo'l mehnati sifatida hunarmandchilikning bir turi darajasiga ko'tarildi. Ba'zi manbalarda aytilishicha, quroq hunarining ilk namunasi eramizdan avvalgi 980 yili qadimgi Misr davlatida topilgan. Qovulgan buyumlar fragmenti Skif qo'rg'onlari harobalaridan topilgan. Qohiradagi Bulat muzeyida ohu terisi parchalaridan bir xil rangda quroq qilib tikilgan bo'lak namunasi saqlanadi. Eramizdan avvalgi IV-IX asrlarda "mingta Budda xarami"ga tashrif buyurgan ziyoratchilar o'z kiyimlaridan parcha tashlab ketganlar. Xaram xizmatchilari qoldirilgan kiyim parchalaridan ziyoratchilarni eslatuvchi gilam tikkanlar. Bunday gilam 1920 yilda arxeolog Artur Shteyn tomonidan topilgan. Bu tengi yo'q manzarali gilam Petsam ibodatxonasida

(XIV asr) saqlanmoqda. Bu gilam Sharqning go'zal ranglari va sexrli Vizantiya naqshlari bilan bezatilgan. Yevropada esa qovulgan matolar 800 yil avval paydo bo'lgan. XVIII asrgacha qovushdan ko'p qavatli kiyimlarni birlashtirishda foydalanilgan. Qovulgan ko'rpa va yopinchiqlar asosan Fransiya janubi va Angliyada keng tarqalgan. Yengil sanoatning rivojlanishi, matolarning ko'plab ishlab chiqarilishi natijasida quroqchilik hunariga bo'lgan e'tibor bir oz pasaygan edi. Bugunga kelib bunday buyumlarga yana qiziqish ortib bormoqda. Bu buyumlar endilikda nafaqat matolarni iqtisod qilish maqsadida, balki san'at darajasida qayta tiklandi. Quroqchilik hunari bo'yicha har yili ko'rgazmalar tashkil qilinadi. Unda turli xil ro'mollar, sumkalar, ko'rpalar, choyshablar, yostiq jildlari, dasturxonlar, hatto oyoq kiyimlar ham namoyish qilinadi.

Shu jumladan, O'zbekiston hududida qadimdan shakllangan, jahonga mashhur nafis san'atlar maktablarining noyob an'analarini avaylab asrash, o'rganish, boyitib borish, milliy tasviriy, amaliy, miniatyura san'atining nodir durdonalarini dunyoga olib chiqish va targ'ib qilish, nafis san'atlar sohasidagi ilmiy izlanishlarni ishlab chiqarishga tatbiq etish, zamon talablariga mos badiiy ta'lim tizimini barpo etish, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash, akademik ilmiy tadqiqot ishlarini takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Badiiy Akademiyasi tashkil etildi (1997 yil 23-yanvar). "Xalq badiiy hunarmandchiliklarini va amaliy san'atini yanada rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi (1997 yil 31-mart) qaror milliy madaniyatni rivojlantirishda xalq badiiy hunarmandchiligi va Amaliy san'atning ahamiyatini oshirish, qo'lda ishlanadigan yuksak badiiy buyumlarni tayyorlash asriy an'analarini va o'ziga xos turlarini qayta tiklash hamda xalq hunarmandlariga davlat tomonidan madad ko'rsatishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot obyekti va predmeti: Farg'ona viloyati Marg'ilon shahridagi "Yodgorlik" MCHJ qoshida yaratib borilayotgan Xalq amaliy san'ati namunalari, shu jumladan, quroq san'ati haqida yozilgan adabiyotlar: kitoblar, o'quv qo'llanmalar, ilmiy maqolalar, ilmiy tadqiqot ishlarini tahlil qilish.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari: Yosh avlod ongida milliy tafakkurni va vatanparvarlik g'oyalarini shakllantirishda quroq san'atining turlari, quroq tikish uslublari, ularni zamon bilan uyg'unlashuvi, ulardan uy xo'jaligi va liboslarda foydalanish, shuningdek, ishlab chiqarish sharoitida milliy matolardan tayyorlanadigan kiyimlarni bichish jarayonidan chiqadigan chiqindilardan quroq sifatida foydalanishning samarali usullarini ishlab chiqish tadqiqotning maqsadi hisoblanadi.

Bu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni belgiladik:

1. Qurol san'ati tarixining rivojlanish bosqichlari va uning turlarini o'rganish, tahlil qilish.
2. Qurol san'atining maishiy hayotda tutgan o'rni(qadimda va hozirda)ni o'rganish.
3. Yevropa va Osiyo mamlakatlari orasida qurol san'atining bir-biridan farqli tomonini aniqlab berish.
4. O'zbek milliy hunarmandchiligida qurol san'atining texnologiyasini o'rganish.
5. Qurol san'atining qadimgi an'analarini asosida hozirgi kunda foydalanilishiga ko'ra kompozitsiya yaratish.

Mavzuning o'rganganlik darajasi:

Ma'lumki, andozalar orasidan chiqadigan chiqindilarni kamaytirish muammosi bo'yicha M.Sh.Jabborova, Sh.G.Madjidova, M.Abdullayeva kabi mamlakatimizning yetakchi olimlari ilmiy izlanishlar olib borganlar. M.Saydullayevaning "Ayollar zamonaviy liboslari uchun qurol turlarini qo'llash va tayyorlash texnologiyasi" mavzudagi tadqiqoti, tadqiqotchi Z.A.Abdullaxo'jayevaning "Turli assortimentdagi tikuv buyumlarini tayyorlashda quroqlardan foydalanish texnologiyasi" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishida ham qurol san'atining tarixi va uning O'zbekiston hududida qo'llanilishi kabi muammolar o'rganilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: Magistrlik dissertatsiya ishining yangiligi shundaki, Yevropa va Osiyo mamlakatlari qurol san'atining o'ziga xosligi, qurol

san'atining tarixi va hozirgi kundagi talqinini birgalikda tahlil qilinishi, quroq texnikasida tasviriy san'at uslublarining qo'llanishini o'rganilganligi, O'zbekiston milliy-madaniy hayotida hududlararo quroq san'atining foydalanilishi, ranglarini bir-biridan farq qilishi, o'tmish va hozirgi kundagi mohir rassom chevarlarning ijodiga alohida to'xtalib, quroq ustalarining o'z ijodlarini namoyish etganligi to'g'risida mulohaza yuritildi.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari: Quroq san'ati, uning turlari haqida o'rganish. Quroq san'atining o'ziga xosligi, milliy madaniyatimizdagi ahamiyati, quroq san'ati shakllanishi, uning kelib chiqish tarixini o'rganish. Mamlakatimiz va dunyoning mohir chevarlari, dizaynerlik korxonalari tomonidan yaratilayotgan asarlarni o'rganib, ulardagi milliylik, zamonaviylikni kelajak avlodga yetkazish, quroq san'atini va unga qo'yiladigan talablarini o'rganish, tadbiq etish, yoritish va ilmiy xulosa qilish tadqiqot oldiga qo'yilgan asosiy masala va farazlar hisoblanadi.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi (tahlili):

Xalq amaliy san'ati turlarini o'rgatish masalalari bilan O'zbekistonda S.Abdullaev, S.Bulatov, A.Vasiqov, prof. R.Hasanov, Q.Qosimov, B.Q.Xolmatov, K.M.G'ulomov, M.B.Ahmedov, M.K.Mirzahmedov, H.Egamov, M.Nabiyeu va ko'plab boshqa olimlarning izlanishlarini misol qilib olishimiz mumkin. Tadqiqot davomida B.Q.Xolmatovning "Kompozitsiya" [2007], E.B.Лебедева, Р.М.Черемныхning "Искусство художника-оформителя" [1981], Ж.Баримбековning "Казахский орнамент" [1986], K.M. G'ulomovning "Amaliy san'at" [2008], K.M.G'ulomovning "Ashyolarga badiiy ishlov berish" [2004], M.Saydullayevaning "Ayollar zamonaviy liboslari uchun quroq turlarini qo'llash va tayyorlash texnologiyasi" mavzudagi tadqiqoti, A.B.Kasimova, N.M.Mirfayazovaning "To'qimachilik mahsulotlarini badiiy bezash asoslari" [2019] nomli o'quv qo'llanmasi, M.T.Семеновaning "Народное искусство и его проблемы" [1977], S.S. Bulatovning "O'zbekiston xalq amaliy bezak sanati" [1991], O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi [2005], Q.M.Abdullayeva, M.A.Maxsumova, M.H.Rahimjonovaning "Gazlamaga badiiy ishlov berish,

kashtachilik va uni o'qitish metodikasi" kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma [2012], Л.Е.Димитриев-Кавказскийning "По Средней Азии. Записки художника" [1894], Д.А.Фахретдиновaning "Декоративно-прикладное искусства Узбекистана XVIII-XIX веков" [2000] va журнал "Наука и жизнь" [1998], O'zbekiston Badiiy Akademiyasi jurnali "San'at/Art/Искусство" [2004-2015] va boshqa adabiyotlar o'rganildi.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi: Tadqiqotni amalga oshirishda tarixiylik, zamonaviylik, xolislik, qiyosiy, amaliy ish bajarish, mantiqiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati: Magistrlik dissertatsiyasidan tasviriy san'atga ixtisoslashgan internat litseylarda "Tasviriy san'at va amaliy san'at" fanlarida hamda oliy o'quv yurtlari Tasviriy san'at va Amaliy san'at yo'nalishi talabalari uchun "O'zbekiston san'ati", "San'at tarixi", "O'zbekiston xalq amaliy bezak san'ati", "Kompozitsiya asoslari" "Dizayn: libos va gazlama" va hokazo fanlaridan ma'ruza matnlari tayyorlashda, amaliy mashg'ulotlar olib borishda, uslubiy ko'rsatma, o'quv qo'llanmalar tayyorlashda foydalanish mumkin.

Tadqiqotning natijalari bo'yicha maqolalar chop etish: Magistrlik dissertatsiyasi bo'yicha bajarilgan ilmiy tadqiqot ishlari tahlili bo'yicha "International journal for social studies" nomli xalqaro ilmiy jurnalda "*Importance of the patchwork needlework in study is given birth-applied arts, base much on ancient old-time traditoin*" nomli maqola, O'zbekiston ilmiy-amaliy tadqiqotlar mavzusidagi Respublika 15-ko'p tarmoqli ilmiy konferensiyada "*O'zbekistonning milliy-madaniy hayot tarzida quroq san'atining mazmun mohiyati*" nomli tezis chop etildi.

Magistrlik dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi:

Magistrlik dissertatsiyasi 100 betda bayon etilgan bo'lib, kirish qismi, uchta bob, xulosalar, umumiy xulosa, takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, obyekti va predmeti, maqsad va vazifalari, o'rganganlik darajasi, ilmiy yangiligi, asosiy masalalari va farazlari, adabiyotlarning qisqacha sharhi, metodik tavsifi, nazariy va amaliy ahamiyati bayon etilgan.

Birinchi bob – “Milliy hunarmandchilikka asoslangan quroqchilik san’ati tarixining nazariy asoslari dekorativ-amaliy san’at namunasi sifatida va uning turlari” nomli bobda adabiyotlar sharhi va tadqiqotning materiallari, quroqchilik san’ati tarixi, quroq san’atining turlari, Yevropa va Osiyo mamlakatlari orasida tarqalishi haqida ma’lumotlar berilgan.

Ikkinchi bob – “Quroqchilik san’ati namunalarining ishlab chiqarilish texnologiyasi” nomli bobda quroq uchun kompozitsiya izlash va matolarning tanlanishi, qoldiq mato bo'laklarini bir-biriga moslab tikish, quroq texnikasida tasviriy san’at uslublarining qo'llanilishi haqida ma’lumotlar berilgan.

Uchinchi bob – ““Gullagan vodi” mavzusida yaratilgan dekorativ kompozitsiya” nomli bobda dekorativ kompozitsiya haqida tushuncha, kompozitsiya uchun mozaik tasvir yaratish, kompozitsiyani yaratishda kerak bo'ladigan materiallar va bezaklarning tayyorlanishi haqida ma’lumotlar joy olgan.

Magistrlik dissertatsiyasining **xulosa** qismida bajarilgan ishlar natijalari umumlashtirilib, mavzu bo'yicha tavsiya va takliflar keltirilgan.

I bob. Milliy hunarmandchilikka asoslangan quroqchilik san'ati tarixining nazariy asoslari dekorativ-amaliy san'at namunasi sifatida va uning turlari.

1.1. Adabiyotlar sharhi va tadqiqotning materiallari.

Yoshlarimizning madaniy saviyasini yuksaltirish, ma'naviy olamini boyitish, san'at va go'zallikka intilishni kuchaytirish lozim.

Sh.Mirziyoyev

X asrda yashab ijod etgan Sharq olimi Abu Nasr Forobiyning kasb-hunar egallashga bag'ishlagan quyidagi fikrini eslab o'tish o'rinlidir: “Kimki eng go'zal va foydali narsani kashf etish fazilatiga ega bo'lsa, kashf etgan narsaning chindan ham o'zining istagi va boshqa birovning istagiga muvofiq bo'lsa yoki uni boshqalarning xohishiga muvofiq deb gumon qilinsa, kashf qilgan yoki ijod etilgan narsa haqiqatdan xayrli va foydalidir”. Mazkur fikr har bir manba va hunarmand yuragidan joy olgan. Albatta hunarmandlar yig'ilishib bir shaharni tashkil qilishgan va shaharlarda hunarmandlar uyushmasi, katta ustaxonalarning mavjudligi, ularning o'ziga xos qonun-qoida risolalariga ega bo'lishi hunarmandlar mahsulotining san'at darajasiga yetkazilishiga sabab bo'lgan. O'quvchilarga san'at turlarini, xususan xalq amaliy san'ati turlarini o'rgatish masalalari bilan O'zbekistonda S.Abdullaev, S.Bulatov, A.Vasiqov, prof. R.Hasanov, Q.Qosimov, B.Q.Xolmatov, K.M.G'ulomov, M.B.Ahmedov, M.K.Mirzahmedov, H.Egamov, M.Nabiyeu va ko'plab boshqa olimlarning izlanishlarini misol qilib olishimiz mumkin.

Tadqiqot davomida B.Q.Xolmatovning “Kompozitsiya” [2007], E.B.Лебедева, P.M.Черемныхning “Искусство художника-оформителя” [1981], Ж.Баримбековning “Казахский орнамент” [1986], K.M. G'ulomovning “Amaliy san'at” [2008], K.M. G'ulomovning “Ashyolarga badiiy ishlov berish” [2004], M.T. Семеновaning “Народное искусство и его проблемы” [1977], S.S. Bulatovning “O'zbekiston xalq amaliy bezak san'ati” [1991], O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi [2000], Q.M.Abdullayeva, M.A.Maxsumova, M.H.Rahimjonovaning “Gazlamaga badiiy ishlov berish, kashtachilik va uni

o'qitish metodikasi" nomli kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma [2012], Л.Е.Димитриев-Кавказскийning "По Средней Азии. Записки художника" [1894], Д.А.Фахретдиновaning "Декоративно-прикладное искусства Узбекистана XVIII-XIX веков" [2000], журнал "Наука и жизнь" [1998], O'zbekiston Badiiy Akademiyasining jurnali "San'at/Art/Искусство" [2004-2015], N.Gafurova, L.Mahmudovning "Kompozitsiya asoslari" [2014] nomli o'quv qo'llanma, X.B.Muhammedovaning "Mehnat ta'limi darslarida o'quvchilarning xalq hunarmandchiligiga oid bilim va ko'nikmalarni shakllantirish metodikalari" [2014] nomli magistrlik dissertatsiyasi, Z.Ismatovning "O'zbek xalq amaliy san'atining rivojlanish bosqichlarini talabalarga o'rgatish metodikasi" [2013] nomli magistrlik dissertatsiyasi, M.H.Saydullayevaning "Ayollar zamonaviy liboslari uchun quroq turlarini qo'llash va tayyorlash texnikasi" [2015] nomli bakalavr diplomi, dots. X.M.Akramovning "Badiiy mehnat asoslari" [2013] nomli ma'ruzalar matni, Z.X.Achilovaning "Talabalarga dizaynni o'qitishda O'zbek xalq amaliy san'at vositalaridan foydalanish" nomli magistrlik dissertatsiyasi, A.B.Kasimova, N.M.Mirfayazovaning "To'qimachilik mahsulotlarini badiiy bezash asoslari" [2019] nomli o'quv qo'llanmasi va boshqa adabiyotlar o'rganildi.

"O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi" kitobining XI jildida *quroq* atamasining ma'nosi juda ham qisqa yoritilgan. Quroq amaliy san'atning bir turi ekanligi, bu san'at namunalari haqida aytib o'tilgan. Quroq san'ati O'zbekiston hududida qachon paydo bo'lgani, qanday turlari mavjudligi haqida ma'lumotlar yoritilmagan.

"O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi" kitobining I jildida esa quroq applikatsiyaning bir qismi ekanligi va mato bo'laklaridan turli bezaklar yaratish mumkinligi aytilgan. [III, 1]

M.Saydullayevaning "Ayollar zamonaviy liboslari uchun quroq turlarini qo'llash va tayyorlash texnologiyasi" mavzudagi tadqiqotida quroq san'atining turlari, uning qisqacha tarixi, quroq san'atining O'zbekiston hududlaridagi ko'lamini va foydalanilishi, kostyumlarni badiiy bezash kabi muammolar o'rganilgan. [II, 5]

N.Gafurova, L.Mahmudovning “Kompozitsiya asoslari” nomli o’quv qo’llanmasida kompozitsiyaning asoslari, xususiyati, kostyum kompozitsiyasi, kiyimdagi dekor, materiallar haqida ma’lumotlar mavjud. Bu o’quv qo’llanmadan magistrlik dissertatsiyasining kompozitsiyasini yaratish uchun kerakli ma’lumotlar olindi. [II, 6]

X.B.Muhammedovning “Mehnat ta’limi darslarida o’quvchilarning xalq hunarmandchiligiga oid bilim va ko’nikmalarni shakllantirish metodikalari” nomli magistrlik dissertatsiyasida O’zbek xalqining milliy hunarmandchiligi va uning turlarini o’quvchilarga o’rgatish metodikasi haqida ma’lumotlar berilgan. [II, 9]

Z.Ismatovning “O’zbek xalq amaliy san’atining rivojlanish bosqichlarini talabalarga o’rgatish metodikasi” nomli magistrlik dissertatsiyasida O’zbek xalq amaliy san’atining rivojlanish bosqichlari, uning turlari, talabalarga amaliy san’at turlarini o’rgatish metodikasi yoritib berilgan. Quroq san’ati haqida ma’lumotlar mavjud emas. [II, 11]

A.B.Kasimova, N.M.Mirfayazovanning “To’qimachilik mahsulotlarini badiiy bezash asoslari” nomli o’quv qo’llanmasida zamonaviy amaliy san’at turlari, quroq san’atining zamonaviy kostyumlarda qo’llanilishi, kostyum kompozitsiyasi, kompozitsiya va uning yaratilishi haqida to’laqonli ma’lumotlar yoritilgan. [II, 1]

X.M.Akramovning “Badiiy mehnat asoslari” nomli ma’ruzalar matnida gazlamalarni tayyorlash, ulani bo’yash, ularni qayta ishlash, gazlama turlari haqida ma’lumotlar yetarlicha yoritib berilgan. Magistrlik dissertatsiyasi uchun ushbu ma’ruzalar matnining gazlamalar haqidagi ma’lumotlaridan foydalanildi. [II, 10]

Z.X.Achilovning “Talabalarga dizaynni o’qitishda O’zbek xalq amaliy san’at vositalaridan foydalanish” nomli magistrlik dissertatsiyasida dizayn san’ati, uning turlari, texnologiyasi va tarixi, xalq amaliy san’atini dizayn bilan birga o’rganilgan. Quroq san’ati haqida ma’lumotlar mavjud emas.

Q.M.Abdullayeva, M.A.Maxsumova, M.H.Rahimjonovanning “Gazlamaga badiiy ishlov berish, kashtachilik va uni o’qitish metodikasi” nomli o’quv qo’llanmasining III bo’limi gazlama qoldiqlaridan keng is’temol buyumlarini yasash haqida ma’lumotlar berilgan. Bu bo’limning 1-mavzusi gazlama

qoldiqlaridan unumli foydalanishning ahamiyati haqida, 2-mavzusi esa oshxona anjomlari turlari haqida. Gazlama qoldiqlari yordamida liboslarni, oyoq kiyimlarni, bosh kiyimlarni, uy ro'zg'or buyumlarini bezash yoki yangi buyumlar kashf qilish mumkinligidan tejamkorlikka yo'l qo'yilishi ta'kidlangan. Oshxona anjomlari: parda, dasturxon, salfetka, sochiq, choynak uchun isitgich, choynak ushlagich, fartuk kabilarni mato bo'laklari orqali yaratish mumkinligi aytib o'tilga, shu bilan bir qatorda andozalar va bichilish jarayonlari haqida ham ma'lumot berilgan. [II, 7]

K.M. G'ulomovning "Amaliy san'at" nomli kitobida xalq amaliy san'atining turlari va ularning kelib chiqish tarixi haqida ma'lumotlar berilgan, ammo quroq san'ati haqida ma'lumotlar berilmagan. [II, 3]

S.S. Bulatovning "O'zbekiston xalq amaliy bezak san'ati" nomli kitobida ham O'zbek milliy hunarmandchiligining turlari haqida ma'lumotlar berilgan. Hunarmandchilik namunalari va usta hunarmandlar rasmlar asosida yoritib berilgan. Ammo quroq san'ati haqida ma'lumotlar mavjud emas. [II, 8]

B.Q.Xolmatovning "Kompozitsiya" nomli o'quv qo'llanmasida kompozitsiya va uning turlari, tamoyillari, xususiyatlari kabi ma'lumotlar tahlil qilingan. Ushbu o'quv qo'llanmadan magistrlik dissertatsiyasi uchun kompozitsiya tushunchasi haqidagi ma'lumotlardan foydalanildi. [II, 2]

T.Семеновaning "Народное искусство и его проблемы" nomli kitobida xalq amaliy san'atining yorqin namunalari haqida to'laqonli ma'lumotlar berilgan, shu jumladan, quruq san'ati haqida ham. Ammo quroq san'ati haqida ornamentlar mavzusida aytib o'tiladi. Mato qoldiqlaridan uy ro'zg'ori uchun yangi buyumlar yaratish to'g'risida tavsiyalar va ko'rsatmalar kitobdan o'rin olgan. [II, 16]

Л.Е.Димитриев-Кавказскийning "По Средней Азии. Записки художника" nomli kitobida Xalq amaliy san'atining rivoji va turlari, qadimdan paydo bo'lgan xalqlarning hayot turmush tarzi hududlarga bo'lib o'rganilganligi haqida ma'lumotlar mavjud. Qadimdan paydo bo'lgan amaliy san'at turlari haqida ko'plab ma'lumotlar mavjud, shu jumladan, quroqchilik san'ati haqida ham. Quroq san'ati tarixi haqida ma'lumotlar berilgan, o'zbek xalqining turmush tarzida

Buxoro chodirlari, uy-ro'zg'or buyumlarida quroq san'atining qo'llanilishi buning yorqin ifodasi sifatida yoritilgan. [II, 15]

Д.А.Фахретдинованинг “Декоративно-прикладное искусства Узбекистана XVIII-XIX веков” nomli kitobida O'zbekiston hududida XVIII-XIX asrlarda mavjud bo'lgan amaliy san'at namunalari haqida ma'lumot berilgan. Quroqchilik san'ati namunalaridan xalq hayotida keng qo'llanilishi va ularning ranglari haqida birmuncha ma'lumotlar mavjud. [II, 13]

Rossiya Federatsiyasining “Наука и жизнь” nomli xalqaro ilmiy jurnalida quroq san'ati haqida juda ko'p ma'lumotlar mavjud. Bu jurnalning har bir sonida quroq san'ati va uning turlari, usta chevarlar, ularning ko'rgazmalari, quroq san'ati uchun tashkillangan xalqaro ko'rgazmalar va ko'plab ma'lumotlar berilgan. Rossiya Federatsiyasida 1997 yildan buyon “Локутная мозаика России” nomli festival har yili tashkillanishi haqida aytib o'tilgan. Mashhur rus chevarilarning quroq san'ati haqidagi fikrlari va ularning ijodi rasmlar bilan tahlil qilingan.[III, 7]

O'zbekiston Badiiy Akademiyasining “San'at/Art/Искусство” jurnalida O'zbek xalq amaliy san'ati haqida turli xil maqolalar chop etilgan. O'zbekistonning turli san'atshunoslari, rassomlari, hunarmandlari tomonidan san'at turlari tahlil qilingan. Jurnalda chop etilgan “O'zbekiston badiiy to'qimachiligida ranglar jilosi”, “Сказочный шатер из Бухары”, “O'zbekiston janubiy hududidagi qo'ng'irotlar badiiy hunarmandchiligi”, “Архитетипы и эстетика каракалпакского костюма XIX века”, “Ijro san'ati qadriyatlari: qutblar bahsi”, “Дизайн одежды в Узбекистане. Современные тенденции развития”, “Qozoq amaliy-bezak san'atida rangli naqshlar”, “Qoraqalpoq bezak naqshlaridagi sirli xatlar”, “Геометрия вечности в символах художника-музыканта” nomli maqolalar tahlil qilindi. Quroq san'atiga oid ma'lumotlardan magistrlik dissertatsiyasida foydalanildi. [III, 2]

Quroq san'atining Vatani Yevropa hisoblanganligi sababli o'zbek adabiyotlarida quroq san'ati haqidagi ma'lumotlar juda oz. Chet el adabiyotlarida quroq atamasi uchramaydi, ammo bu atama pechvork tarzida namoyon bo'ladi.

1.2. Quroqchilik san'ati tarixi, Yevropa va Osiyo mamlakatlari orasida.

Quroqchilik san'ati xalq amaliy san'atining bir turi hisoblanadi. *Amaliy san'at* – bezak san'ati sohasi; ijtimoiy va shaxsiy turmushda amaliy ahamiyatga ega bo'lgan badiiy buyumlar tayyorlash va kundalik turmush ashyolari (asbob-anjomlar, mebel, mato, mehnat qurollari, kiyim-kechaklar, taqinchoqlar, o'yinchoqlar va boshqalar) ni badiiy ishlash bilan bog'liq ijodiy mehnat sohalarini o'z ichiga oladi. Amaliy san'at asarlari ko'z bilan ko'rish, his etish va anglashga mo'ljallangan. Amaliy san'at asarlari va buyumlari insonning moddiy muhitini go'zallashtirishga, estetik boyitishga xizmat qiladi, ayni paytda o'zining ko'rinishi, tuzilishi, xususiyatlari bilan insonning ruhiy holati, kayfiyatiga ta'sir etadi, bezatilgan narsalar hayotda foydalanilishidan tashqari badiiy qimmati bo'lgani uchun ham qadrlanadi. Shuning uchun xom ashyoning go'zalligi va nafis xususiyatlarini namoyish etish, unga ishlov berish mahorati va usullarining ko'pligi Amaliy san'at da estetik ta'sirni oshiruvchi ahamiyatga ega faol vositalardir. Amaliy san'atda narsalarning nafisliligiga ikki usul bilan erishiladi:

- 1) shakli oddiy, jo'n buyumlarga bezak ishlab badiiy qimmati oshiriladi;
- 2) shakli chiroyli qilib ishlanadi.

Narsalarning tuzilishi badiiy buyumlarning mujassamotida muhim rol o'ynaydi. Xom-ashyoning go'zalligi, qismlarning mutanosibligi, tuzilishining maromi buyumning ta'sirchan umumlashma qiyofasini ifodalovchi yagona vositalardir.² Ta'sirchan mazmunli shakllar ko'pincha taqlidan yaratilganda mazmuni ortadi. Buyumda hosil bo'layotgan bezak uning obraz tuzilishiga ham sezilarli ta'sir etadi. Bezagi tufayli buyum amaliy san'at asariga aylanadi. Amaliy san'atda bezak yaratishda naqsh bilan tasviriy san'at (haykaltaroshlik, rangtasvir, ayrim hollarda grafika) qismlari (alohida yoki turlicha birikuvlari) keng qo'llaniladi. Ba'zan naqsh yoki tasvir buyumlarni shakllantiruvchi asosga aylanadi (panjara guli, to'r gilam, mato gullari va hokazo). Amaliy san'at asarining uyg'unligi avvalo badiiy buyumning badiiy va amaliy vazifasining yagonaligida, shakl va bezakning o'zaro birikuvida, tasvir va buyum tuzilishida namoyon

² O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. I jild. Toshkent 2000 yil. 389-bet.

bo'ladi. Bezakning shakl, tasvirning buyum ko'lam va xususiyati, uning amaliy va badiiy vazifasi bilan uyg'unlashtirishning zarurligi tasviriy bo'laklarni o'zgarishiga, talqinda shartlilikka va narsa qismlarini o'xshatib yaratishga olib keladi. XIX asr 2-yarmidan ilmiy adabiyotlarda Amaliy san'at asarlari foydalanilgan xom-ashyosi (yog'och, sopol, ganch, tosh, metall, suyak, mato va boshqalar) va ijro usuli (bo'yash, o'yib-kesib ishlash, quyish, kashta tikish, to'qish va boshqalar) ga qarab farqlana boshlandi. Bu esa o'z navbatida buyumlarga ishlov berishni loyihalash (dizayn) va uni ishlab chiqarish bilan bog'lanishi (badiiy sanoat) ga zamin yaratdi. Amaliy san'at asarlari yaratilgan davrining maishiy qatlamiga mos mahalliy va milliy xususiyatlarni, ijtimoiy guruhlar bilan yaqin munosabatda bo'lgan uning moddiy madaniyatini ifoda etadi. Asrlar mobaynida xalq, ijodiyotining sohasi sifatida amaliy bezak san'ati yuzaga kelgan. Uning rivojida xalq yashagan joyning jug'rofiy sharoiti, xalqining mashg'uloti, etnik va milliy jihatlari, turmush tarzi, madaniy darajasi, qo'shni xalqlar bilan aloqalari va boshqa muhim rol o'ynagan. Kulolchilikka yaraydigan tuproq mavjud joylarda kulollik, chorvachilik rivoj topgan yerlarda jundan mato to'qish, mo'ynado'zlik, kigiz bosish, gilamchilik va shu kabilar rivojlangan. Amaliy san'at asarlarining ma'lum joyga xos uslublari shakllangan. Masalan, Afrosiyob, Bolaliktepa va Varaxsha rasmlarida tasvirlangan rang-barang kiyimlar shu davrda badiiy to'qimachilik taraqqiy etganidan darak beradi. Surxondaryo viloyatining Termiz shaharlari yaqinida joylashgan qabristondan, Pop tumani Munchoqtepa manzilgohidan IV-VI asrlarda qadimgi ajoyib kiyimlarning o'ziga xos namunalari topilgan, bundan qadimgi farg'onaliklar kiyimi ancha murakkab qilib tikilganligi ma'lum bo'ladi. VII-IX asrlarda to'qimachilik taraqqiy etgan, ip, ipak matolardan tashqari qimmatbaho parchalar ham ishlab chiqarilgan. O'simlik va handasiy naqsh bezaklariga boy, jonzodlar tasviri tushirilgan "zandonachi" matosi bizgacha saqlanib kelingan. Zandonachi matosining mujassamoti taqsim usulida tushirilgan, bir me'yorda almashinib turgan turunj bezaklari ichiga bir juft qarama-qarshi turgan arslon, fil va boshqa hayvonlar tasviri joylashtirilgan. XX asr boshlarida O'zbekiston amaliy bezak san'ati qadimgi an'analarga asoslangan holda, yangi

zamonaviy mavzular bilan boyitib rivojlantirildi. Aksariyat badiiy hunarmandchilik sohalari tiklandi. Farg'ona an'anaviy to'qimachilik san'ati o'rganilib, abr gulli kiyimli ipak matolar (A. Axmedov), Buxoro yirik gulli matolaridan bino ichini bezaydigan badiiy buyumlar: deraza-eshik pardalar, choyshablar, dasturxonlar ishlab chiqarildi. An'anaviy chitgarlik (A. Abdug'afurov, K. Qo'ziyev, G'. Qo'ziyev), gilamchilik va palos to'qish (G. Abdullayev) da mavzuli tasvirlar berishga, kishilar siymosini yaratishga harakat kuchaydi. Toshkent to'qimachilik kombinati satin, chit, urushdan keyingi yillarda Marg'ilon shoyi to'qish kombinati sun'iy va ipak matolari ishlab chiqara boshladi. XX asr 60–70 – yillarda Marg'ilon “Atlas” birlashmasi, Namangan shoyi to'qish fabrikasi abr gulli ipak matolar chiqardi. Taqsim usulida yirik gulli kilib ishlangan "arabi" xilidagi, sidirg'a va mayda gulli “terma” paloslar (T. Jo'rayev, B. Mirzayeva, O. Xolmatova), zardo'zi do'ppi, nimcha, yirik namoyonlar (A. Aminov, M. Ahmedova, V. P. Stolyarov), so'zana, palak, gulko'rpa va turli qiyiqlar yaratildi. Xalq an'anaviy Amaliy san'atning yangidan tiklanishi va rivojlanishi har yili Navro'zda o'tkaziladigan Amaliy san'at asarlari ko'rgazmasida namoyon bo'lmoqda. Amaliy san'atning hamma sohalarida professional rassom, haykaltaroshlar o'rtasida hamkorlik mavjud. Amaliy san'atning shakllanishi, taraqqiyoti jarayonida badiiy uslublar almashinuvi san'atning boshqa turlari bilan bog'liq ravishda davom etadi.

Quroqchilik san'ati ko'plab xalqlar orasida juda mashhur. Mato qoldiqlaridan san'at ustalari kerakli andazalar yordamida turli xildagi mozaika naqshlari bilan yangicha kompozitsiyalar yaratishadi. Qadimda quroqlarning bir tomoni, ya'ni orqa tomoni chit matosidan, old tomoni esa mato bo'laklaridan yaratilgan kompozitsiyadan tashkil topgan. Ayrim xalqlar orasida mato bo'laklaridan foydalanib kompozitsiyalar yaratish *bo'lakli mozaika* deb ham yuritiladi. Bo'lakli mozaika bo'lak texnikasining bir yo'nalishi hisoblanib, u applikatsiya deb ham ataladi. *Applikatsiya* – (lot. applicatio – yopishtirish) gazlama, qog'oz va boshqa materiallarga rang-barang gazlama, qog'oz bo'laklarini tikish yoki yopishtirish yo'li bilan naqsh ishlash, bezash. Shu usulda yasalgan gul,

tasvir ham applikatsiya deb ataladi.³ Quroqda ham tasvir hosil qilish uchun yaxlit fonga mato bo'laklari tikib birlashtiriladi, bu esa o'ziga xos matolar orasidagi bir butun go'zallikni hosil qiladi.

Quroq – mayda bo'laklardan ulab, to'plab bezak yaratish; shu usulda yasalgan bezak, buyum ham quroq deb ataladi. Turli rang va shakldagi mayda mato parchalaridan buyum, bezak hosil qilinadi. Amaliy san'atda keng tarqalgan; mas, ko'rpa, ko'rpacha, choyshab, so'zana, dasturxon, gilam va boshqa jihozlar qadimdan shu usulda tayyorlanib ajoyib san'at namunalari yaratiladi.⁴ Badiiy xalq madaniyati namunasi o'zbek quroqchilik san'atida ranglar juda muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqning dunyoqarashi, kishilarning ko'tarinki kayfiyati, mahalliy tabiatning butun go'zalligini ko'rsatish maqsadida ochiq, yorqin, to'laqonli ranglarda ifodalash kamlik qiladi. Shuning uchun quroqchilik hunar egalari quroqda osmon jismlarining qizil rangli uchqunlari sochqini yoki olovrang aylanalari, yashil rangdagi bog'lar, quyoshning o'ynoqi oltin ranglari moviy osmon bilan uyg'unlashib ketadi.

O'troq dehqon va ko'chmanchi xalqlar madaniy an'alarining o'zaro aloqasi jarayonida O'zbekiston xalq amaliy san'ati turli xil qo'l mehnati namunalariga asoslanadi. Bunga misol tariqasida XIX asrda Buxoroda yaratilgan chodir uylarni ko'rishimiz mumkin. Chodir uylar haqida 1887-1888 yillarda Markaziy Osiyoga safar uyushtirgan sayyoh L.Y.Dmitriyev-Kavkazskiy shunday deydi : “Chodir juda chiroyli, to'rtburchak shaklida, 4 kv.arshin(arshin = 0,71 m) li yorqin, yashil rangli va ichki qismi adras matosidan tikilgan. Naqshlari kesik mato qoldiqlaridan tipik tarzda yaratilgan va rangorang xarakterga ega”. Sayyoh chodir uylar o'z ichiga 200 kishini sig'dira olishini aytadi. Chodirlarning shakli to'g'ri to'rtburchak, sakkiz qirrali, dumaloq bo'lganligi va o'z qamroviga ko'plab odamlarni sig'dira olganligi haqida D.A.Faxretdinova ma'lumot beradi. 2008 yilda Rossiyaning Sank-Peterburg shahridagi Ermitaj muzeyining “Yevropadan Xitoygacha islom dunyosi” nomli ko'rgazmasida quroqdan tikilgan chodir barpo

³ O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. I jild. Toshkent 2000 yil. 582-bet.

⁴ O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. XI jild. Toshkent 2000 yil. 395-bet.

etildi. Ustunlar asosida qad roslagan chodir uyning devorlari va tom qismi tugmalar yordamida mustahkamlandi. Chodirning ustki qismi yo'l-yo'l ko'k rangli matodan, devorlarining ichki qismi esa bayramona adras mato bo'laklari yordamida panno ko'rinishida yaratildi.⁵

Samarqand va Buxoro quroq uslubi. Samarqand va Buxoroda quroq texnikasi ko'proq bolalar liboslarida qo'llanilgan. Buning o'ziga xos ma'nosi bo'lib, yosh bolalarni yomon ko'zlardan asraydi deb hisoblashgan. (1-rasm) Kelinlar sarposida quroq texnikasidan tayyorlangan buyumlar bo'lishi shart bo'lgan. Ularga quroq texnikasidagi buyumlarni buvilari va momolari tikishgan. Bir tomondan ularning bo'sh vaqtlari unumli o'tsa,



1-rasm. Samarqand uslubida tikilgan quroq, yostiq jildi.

ikkinchi tomondan kelin sarposining asosiy buyumlari tayyor bo'lgan. (1-rasm) Kelin sarposiga quroq texnikasida tikilgan buyum berilishi azaliy udumlardan sanalib, bu an'ana hanuzgacha saqlanib kelinmoqda. Buning ramziy ma'nosi kelin-kuyov ham shu quroq kabi o'zidan ko'paysin deganidir. Nikoh marosimlarida kelin va kuyov quroq texnikasida tikilgan ko'rpacha ustida va quroq texnikasida tikilgan dasturxon yonida o'tirishgan. Chimildiqda 40 kun chilla vaqtida quroq texnikasida tikilgan dasturxon tutilgan. Dasturxon o'lchami 80x80 bo'lib, to'rtburchak shaklda bo'lgan. Kelinlar sepiga 2ta quroq yostiq, 1ta quroq ko'rpacha va 1ta quroq texnikasida tikilgan dasturxon bo'lgan. Quroq yostiqlar kelinning yangi uyidagi taxlamdagi ko'rpa va ko'rpachalarning ustiga bezak sifatida yasatib qo'yilgan. Yangi kelin-kuyovlarning xonasiga quroq texnikasidagi buyumlarni qo'yilishining yana bir sababi, kelgan mehmonlarning har xil yaxshi-yomon nazarlari yosh kelin-kuyovga emas, aynan shu quroq texnikasidagi buyumlarga tushsin deganidir. Chindan ham quroq texnikasidagi buyumlar o'zining jimjimador va rang-barangligi bilan inson diqqatini o'ziga jalb etadi.

⁵ Ольга Удовенко. Сказочный шатер из Бухары. Искусство. 2015год. 10 стр.

Samarqand va Buxoroda quroq texnikasining shakllari ko'proq to'rtburchak va uchburchak shakllarda bo'lib, asosan oq ranglardagi bo'lakchalarni boshqa xil rangdagi bo'lakchalar bilan uyg'unlashtirilgan holda ishlatishgan. To'rtburchak shakllarni romb shaklida qatorlashtirib tikish usuli – "Olmaqator" deb nom olgan. Shuningdek, quroq texnikasining taxlamali uslubidan ham keng foydalanishgan. Bu usul – "Turna" deb nomlangan. Ushbu texnikada tikilgan uy ro'zg'or buyumlari, ya'ni ushlagichlar, choynak yopgichlar, ko'rpacha va hokazolar, shular jumlasidandir.

Xorazm quroq uslubi. Xorazm viloyatida quroq texnikasidan tikilgan buyumlarni asosan qariya ayollar, ya'ni buvilar qiz nabiralarining kelinlik sepiga atab tikishgan. (2-rasm.) Ular quroq tikish uchun asosan oq va qora ranglardagi matolardan foydalanishgan. Buning ma'nosi hayotning o'n besh kuni qorong'u



bo'lsa, o'n besh kuni yorug' deganidir. Quroq tikish uchun yahlit matoni kesishdan oldin irim qilib bir chetidan kertik berishgan. Boshqa viloyotlarda bo'lgani kabi, Xorazm viloyatida ham kelinlar

2-rasm. Xorazm quroq uslubida tikilgan yosti jildi.

sarposida quroq texnikasida tikilgan buyumlar bo'lishi shart bo'lgan. Bular, yosti jildlari, ko'rpa avrasi va chimildiq ustiga ilish uchun choyshab. Yosti jildlari choklari boshga botganligi va noqulaylik tug'dirganligi uchun yaltiroq matolardan foydalanilmagan. (2-rasm)

Surxondaryo va Qashqadaryo quroq uslubi. Qadimdan o'zbek xalqi hunarmandchilik bilan kun kechirgan. Shuning uchun xalqimiz hunarmand kishilarga alohida hurmat-e'tibor bilan qaraydi. Avvalo, hunarmandchilik so'zining asl ma'nosini izohlaydigan bo'lsak, har xil mehnat qurollari yordamida mavjud xom-ashyodan chiroyli buyumlar ishlab chiqariladigan hunarlarning umumiy nomi hunarmandchilik deb yuritiladi.

Bizlarga momolarimiz tomonidan avloddan avlodga meros bo'lib kelayotgan milliy hunarmandchiligimizning sir-asrorlari saqlanib, o'rganilib kelinmoqda. Ana

shunday hunarlardan biri “Quroq” usulida milliy kiyimlar, buyumlar tikish san’atidir. (3-rasm.)

3-rasm. Surxon quroq texnikasida tikilgan yostiqlik jildi.



Surxondaryo va Qashqadaryo quroqlari qadimda, asosan bolalar kiyimlarida qo'llanilgan. Keyinchalik bu texnika rivojlanib bordi va hunarmanchilikning ajoyib yo'nalishlaridan biriga aylandi. Surxon quroqlarining o'ziga xosligi shundaki, ularda yorqin ranglar ishlatilganligi va kashtalarning tikilganligidadir. Surxondaryo va Qashqadaryo quroqlari ham kashtalar kabi shakllarga ega bo'lib, ko'proq dumoloq va uchburchak shakllardan foydalanilgan. Asosan qizil, yashil, sariq va ko'k ranglardan tikilgan.

Farg'ona quroq uslubi. Quroqchilik Farg'ona viloyatining So'x tumanida xalq turmush tarzining ajralmas qismi hisoblanadi. Chunki quroqdan tikilgan buyumlar inson tug'ilganidan to hayotining so'nggi manziligacha bo'lgan davrda barcha an'anaviy milliy marosimlarda ishlatiladi. Masalan, go'dak dunyoga kelganining oltinchi kunida serfarzand nuroniy otaxon va onaxonlarning uylaridan 15 tadan ortiq mato qiyqimlari yig'ib olinib, “Farzandimiz ham shularga o'xshab uvali-juvali bo'lsin, uzoq umr ko'rsin”, deya niyat qilib, ushbu parchalardan tikib qovulgan to'n chaqaloqqa chillasi chiqquncha kiydiriladi. Nikoh marosimlarida esa ikki yosh baxtli yashashlari ularga ko'z tegmasligi, yomon ko'zdan saqlashi uchun hamda serfarzand bo'lishlarini tilab go'shanganing ikki tomoniga “Qatlama” quroq, kelin-kuyov uyining oldiga “Poyandoz quroq” to'shaladi. Shuningdek, kelin-kuyov oldiga “quroq dasturxon” ham solinib, ikki yoshning noni va nasibasi butun bo'lishiga tilak bildiriladi. Kelin-kuyovlarning ko'rpa yostiqlari jildlariga rang-barang quroqning qo'llanilishiga sabab, kelgusida ularning o'g'il-qiz farzandlari aralash tug'ilsin, degan ramziy ma'no yotadi. Quroqlarning ramziy ma'noda oq-qora, qizil-ko'k va boshqa ranglar bilan qorishig'i yoshlar bir-birlari

bilan chatishib ketishi totuv yashashlariga ishoradir. Quroqdan, shuningdek, dafn marosimlarida foydalanib, “Balish quroq” tikiladi.

Jizzax quroq uslubi. Jizzaxda “Turna”, “Ko’z”, “Ulama”, “Qatlama”, “Tirnoq”, “Quduq”, “Shahmat” kabi quroq texnikasida beshik uchun asboblari, poyandoz, quroq chimildiq, quroq yostiq kabilar tikiladi. Beshik uchun tikilayotgan quroq buyumlarining asl ma’nosi farzandlar sog’-salomat bo’lib, ya’ni har bir oilaga qiz yoki o’g’il farzandlar nasib etsin va ularga ko’z tegmasin, deya niyat qilinadi. Nikoh to’ylarida, kelinga bir dona poyandoz, quroq chimildiq, bir dona quroq ko’rpa, 10 dona quroq yostiq, quroq bolish beriladi. Yana bir an’anaviy udumga ko’ra, kuyovning onasi niyat qilib 100 dan ortiq mato qiyqimlaridan to’shak tikadi. To’shakning bir chekkasiga tumorcha va to’shakning boshqa burchagiga “Qo’yning oshig’i” maxfiy ravishda tikiladi. Maqsad, ikki yoshning baxti mangu bo’lib, ular butun umr “oshiq-moshiq” bo’lishlari, baxtlari bir umrlik butun bo’lishi nazarda tutiladi. Sunnat to’ylarida esa, to’y bolalarga quroqdan bir juft yostiq, to’shak hamda yasatilayotgan toy uchun xurjun, bo’yintumorlar tikiladi.⁶

Qozoq quroq texnikasi. Qozoq xalqining amaliy san’ati namunasidan biri quroq hisoblanadi. Qozoqlarda quroq san’ati o’zbek xalqi kabi qadimdan taraqqiy



etgan. Qozoq quroq san’ati namunalari boshqa xalqlar kabi o’zining milliy madaniyati, turmush tarzi, xalqning ijodiy qobiliyatlari asosida yaratiladi. Quroq an’anasini hozirda zamonaviy chevarlar, rassomlar va dizayner-modelyerlar davom ettirib kelmoqda. (4-rasm) Qozoq quroqlarida inson hayotidagi muhim belgilar: salomatlik,

4-rasm. Qozoqcha quroq.

mehribonlik tuyg’ulari asosan ranglar uyg’unligi asosida ramziylashtiriladi. Qozoq quroqlarida ranglar muhim ahamiyatga ega. Buyum fonidagi oq rang, ayniqsa, u chizma ichida bo’lsa oq yo’l, baxt-saodat, adolat ramzi sanaldi. Qizil rang – nur, quvvat chiqaruvchi quyosh, sevgi-muhabbat, qora rang – kuch-qudrat, ulug’vorlik,

⁶ A.B.Kasimova, N.M.Mirfayazova. To’qimachilik mahsulotlarini badiiy bezash asoslari. T.: 2019. 84-bet.

shuningdek, orzu-havas, farovonlikni bildiradi. Qizil va ko'k rangning birlashuvi serquyosh o'lkaning tabiiy boyliklarini bildirib, kishining baxt-saodat, farovonlik to'g'risidagi orzularni ifodalaydi. Quroq naqshlarida jonotning qayrilgan shoxi – farovonlik va chorvachilik ramzi ifodalanganda ezgulik va boylik ilohasi Tao-tye nazarda tutiladi. M.Cemëhobaning quyidagi mulohazalari e'tiborga molik: “O'zining shakli, ko'rinishi jihatdan qo'chqorning burama shoxiga o'xshaydigan naqshlar buyum sathida keng sathni egallab, kompozitsiyaga mahobatlilik bag'ishlaydi va undagi har bir unsur tuganmas, bepayon borliqqa ishora kabi taassurot uyg'otadi”.⁷ Tussiz, xira ranglar qayg'u-alam, g'am-anduh, tushkunlik, umidsizlikni bildiradi. Yashil rang – zaminning uyg'onishi, bahorning kelishi, yoshlik, ko'k rang – osmon, Tangri saltanati, sariq rang – aql, tafakkur ramzi sanaladi. Qozoq san'atida har bir shakl ham ramziylashtirilgan. Masalan, uchburchak orqali tog'larni, aylana shaklida quyoshni, kvadratda yerni, xochda quyoshning harakatlanishini anglatadi. Quroqning eng muhim ramzlaridan yana biri – bu oila, qarindosh-urug', hursandchilik va boshqalar. Qoldiq matolarni bir biriga biriktirish asnosida omad, baxt, hursandchilik, salomatlikni tiklash g'oyasi bilan biriktiriladi. Aynan shuning uchun qoruq inson hayotining ajralmas qismi sifatida qaraladi. Qozoq xalqida quroq yomonliklardan asrovchi vosita sifatida qaraladi. Shuning uchun har bir xonadonda quroqlar mavjud. Qozoqlar uchun quroq rang terapiyasi sifatida davolovchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu jumladan, Qadimgi Xitoy mamlakatlarida kasal insonga quroqdan tikilgan kiyim kiyib yurishi va uylarni rang-barang quroq namunalari bilan bezatishi buyurilgan, bu orqali esa insonning kayfiyati ko'tarilib, o'ziga bo'lgan ishonchi ortishi isbotlangan.

2018-yili Qozog'istonning Olmaota shahrida Navro'z bayrami munosabati bilan dunyoda eng uzun quroq ko'rpa tikildi. Bu haqida Xalqaro axborot agentligi “Kazinform” ma'lumot berdi. Xabarda “Olmaotaliklar Navro'z bahonasida dunyodagi eng uzun quroq ko'rpani tikib, Ginnesning rekordlar kitobiga kirishni ham maqsad qilib qo'ygan. Bu ko'rpaning hajmi 25 ming 500 kvadrat metr

⁷ Т.М.Семёнова. Народное искусство и его проблемы. М.: 1977г. 37-стр.

bo'lishi kutilmoqda. Olmaotada Navro'z shodiyonalari aprel oyiga qadar davom etadi"- deb qayd etiladi. (5-rasm)



5-rasm. Eng uzun qozoq quroq.

Yapon quroq texnikasi. Ilk o'rta asrlarda askarlarni himoyalash va issiq yurishlari uchun charm matosi va boshqa mato qoldiqlaridan sovutlar yaratilgan. Yapon sovutlarining namunasi boshqa mamlakatlarnikiga o'xshash tarzda yaratilgan. Tokio muzeylaridan birida taxminan shu davrga taaluqli bo'lgan mato qoldiqlaridan tikilgan kostyum eksponati hozirgacha saqlanmoqda. Taxminan VII asrda yapon quroqchiligida sholi ekin maydonlari ramziylashtirilib, kvadrat bo'lakli qiyqimlardan tikilgan quroqlar ommalashdi. Bu quroq namunalari bud ibodatxonalarida rohiblar kiyimlarida keng qo'llanilgan. Quroq tikish texnikasining bu ko'rinishi Sharq ipak matolariga qiziqish va G'arbning qovulgan buyumlarini birlashtirdi. Geometrik shakllar bilan birgalikda, bunda an'anaviy yaponlarning peyzaj va o'simliklar dunyosi aks ettiriladi, ayniqsa ziravorlarning gullari tasviri. Yapon quroqining asosiy ranglari: qizil, yashil va jigarrang. Bu asnoda yaratilgan quroqlarni yaponlar bir-biriga tabiatga yaqin bo'lish uchun sovg'a tariqasida ulashadilar. (6-rasm)



6-rasm. Yapon quroq uslubidagi bolalar katmoni.

Keyingi paytlarda yapon quroq san'ati namunalarida mushuklar, quyonlar va ayiqchalarning rasmlari paydo bo'ldi. Bu hol bolalar xonasini bezatish uchun eng yaxshi g'oyadan biriga aylandi. Yapon quroqlari asosan shoyi, paxta-qog'oz matolaridan yaratiladi. An'anaviy yapon quroqlari texnikaning rivojlanganligiga qaramasdan asosan qo'lda tikiladi. Yapon quroqlari o'zida ham Sharq, ham G'arb mamlakatlarining an'alarini o'zida mujassamlashtirgan. Yapon quroqlarida bezatish uchun tikiladigan kashtalar *sashiko* deb nomlanadi. Bu bezak qoldiq matolarni birlashtirilgan qismining ustidan kontur sifatida tikiladi. Bu bezak

uslubida ko'p qavatli ko'rpalar va ustki kiyimlar tikiladi. Boshqa xalqlarga nisbatan yapon xalqi minimalizmni hush ko'ruvchi xalq hisoblanadi. Yapon quroqining paydo bo'lish tarixi shunga borib taqaladi. Qog'oz bo'laklarini birlashtirib tikib, uni peyzaj bilan bezatish usuli *kunusayga* deb ataladi. Uy bezgi uchun ko'rkam kompozitsiyalar, pannolar shu tarzda yaratiladi. Bu uslubda qadimdan yapon kimanolari yaratilgan. Qoldiq matolardan yaratilgan kimano, *komono* deb ham yuritiladi. Hozirgi kunda ham tengi yo'q asar namunalari ham shoyi matosidan shu uslubda tikiladi. Quyoshning chiqishi, botishi, gullar va tog'lar tasviri kompozitsiyada ajoyib uyg'unlik kasb etadi.

Rossiyada quroq texnikasi. Uzoq vaqtlar oldin ham ruslarning uyda ishlab chiqarilgan (XVIII asrga qadar mamlakat bo'ylab asosan uyda ishlab chiqarilgan matolar ishlatilgan) va sotuvdagi matolarga ehtiyojlari juda baland bo'lgan. Kiyim tikish jarayonidan qolgan mato qoldiqlaridan saralangan va saralangan bo'laklar saqlab qolingan va undan yana tayyor kiyimlar yaratishgan. Ma'lumki, XVII asrda xalq orasida qadimgi urf-odatlariga asoslangan "yordamchilar" deb nomlangan yamoq gilamchalar ishlatilgan. Ushbu gilamchalarning rasmlari to'qqizta farishtalar saflari ramziy ravishda tasvirlangan. XVIII asrgacha mamlakat bo'ylab rus uy bekalari eski kiyimlardan, mato qoldiqlaridan, matoning gulli-naqshinkor qismlaridan yangi kiyimlar, ro'zg'or uchun kerakli buyumlar yaratishgan. Rossiyada XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib esa qalin surp matosini dengiz orti mamlakatlariga sotish bilan birgalikda mato qoldiqlarini birlashtirib tikib sotish ham keng quloch yozdi. Kengligi taxminan 40 sm bo'lgan uy matolaridan farqli o'laroq, fabrika tomonidan tayyorlangan matolarning kengligi 75-80 sm edi va ulardan kiyimlarni yaratish jarayonida ko'p sonli mato qoldiqlari hosil bo'ldi. Keyinchalik applikatsiya paydo bo'ldi: Rossiyada ingliz matolari qimmat edi, bitta matoni ikkinchisiga o'rash o'rinli emas edi. XVII asrning so'giga kelib quroq san'ati yuksak darajaga ko'tarildi, tikuv mashinalari ishlab chiqarilgandan so'ng esa Rossiyada mato qoldiqlaridan sovuqdan saqlash maqsadida chit matosining ustiga turli va oddiy bezakli gullar tikish taraqqiy etdi. Asosan, dehqonchilik sharoitida yaratilgan narsalar (asosan, ko'rpa-to'shaklar) juda amaliy vazifani

bajargan - ular sovuqdan himoyalagan. Erkaklar ko'ylagi va ayollar sarafanlariga mato qoldiqlari yordamida bezaklar berilgan. Ko'pincha ishlatilgan kiyimlarning parchalari ularni ishlab chiqarish uchun ishlatilgan, ular shakldagi tartibsiz va tasodifiy ulangan. Biroq, parallel ravishda to'y va bola tug'ilishida foydalaniladigan adyol tikish odati bor edi. Ushbu mahsulotlar utilitar va dekorativ funktsiyalarni birlashtirgan. Ularning shakli (chiziq, kvadrat, uchburchak) to'g'ridan-to'g'ri ruscha kostyumni kesish paytida hosil bo'lgan andoza bilan o'xshashligi aniqlandi. Kiyimlarni pichish jarayonida turli qoldilar paydo bo'lgan va tejamkor uy bekalari bu qoldiqlarda ko'rpa, parda, gilamchalar, yostiqlar va boshqa buyumlar yaratishgan. Qishloqlarda to'rtburchali va uchburchakli yorqin rangli qoldiq matolar yordamida mozaikalar yaratilgan. Rus milliy liboslarining to'g'ri bichimlaridan qolgan qoldiqlar shaklidan to'rtburchak, uchburchak va to'g'riburchak qoldiqlar qolganligi sababli quroq bo'laklarining shakli ham shunga bog'liq bo'lgan. Uchburchaklik va to'rtburchaklikni bir-biri bilan dumaloq shaklida birlashtirib tikiladi va uzun arqonsimon marolarga birlashtirib tikiladi, asosiga esa qalin va mustahkam matodan foydalaniladi. Xristianlar orasida sovuqdan saqlanish maqsadida quroq texnikasida tikilgan ko'rpalardan foydalanilgan. Ularni tayyorlashda ko'pincha eski kiyimlardan foydalanishgan va ular duch kelgan tartibda noto'g'ri shakllar bilan bir-biriga ulangan. To'yga va farzand tug'ilishiga atab ko'rpa tikish an'anasi ham mavjud bo'lgan. XIX asr oxiri XX asr boshida quroq texnikasi milliy kiyimda naqshli kashta, to'r kabi qiyin elementlarning o'rnini almashtirdi. Quroq texnikasidagi buyumlarni ranglar yechimini yaratishda mahalliy aholi doim san'atdarajasida bo'lishini afzal ko'rishgan. Quroq texnikasining hajmli texnikasida bejirim usullar yaratildi. Masalan, "ляпачиха"- ishlov berilmagan har xil rangli yo'l-yo'l qiyqimlar, "уголками"- mato burchak qilib asosga tikilgan, "йо-йо"- to'rtburchak yoki dumaloq bo'laklar shar shakliga keltirilib qo'lda tikilgan va asosga zich qilib terib tikib chiqilgan. Uchburchakli gilamchalar bilan bir qatorda gazlamalarni qalin ip ko'rinishiga keltirib, soch o'ramiga o'xshatib to'qilgangilamchalar ham ko'p tayyorlangan. Rus milliy quroq tarixini – qiyqimlarni asossiz qo'l yordamida

yig'ish, qiyqimlarni duch kelgan tartibda birlashtirish va har xil o'lchamdagi detallardan foydalanish kabi ta'riflar bilan izohlashimiz mumkin. XX asrgacha qoldiq matolardan badiiy asarlar yaratish amaliy va dekorativ san'at turi sifatida qaralmagan. XX asrning boshida quroq va kollaj rassom avangardistlar, futuristlar e'tiboriga tushdi. Va rus quroq namunalari tasviriy san'atning badiiy namunalaridan ko'ra ko'proq shuhrat qozondi. Usta chevar ayollar eski va tashlandiq motlardan qiyinchiliksiz chiroyli ko'rpalar tikishdi. Inqilobdan keyin tikuvning ushbu turi davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan dekorativ san'at va hunarmandchilik ro'yxatiga kiritilmagan. Keyinchalik quroq qashshoqlik belgisi bo'lib, mamlakat boshidan kechirgan urushlar va vayronagarchiliklarni eslatdi. Ushbu san'at va hunarmandchilik turiga qiziqish XX asrning 90-yillarida qayta tiklandi, Rossiya muzeylariga quroq buyumlarini to'plashdi va ayni paytda uni o'rganish boshlandi. Quroqning eng sara namunalari saralandi va ular Rossiyaning Sank-Peterburgdagi Rus davlat muzeyi, Moskva xalq san'ati muzeyi, Ivanova shahridagi Chit muzeyi va mahalliy muzeylardan joy oldi. Bu nafaqat odatiy hobbi, balki dekorativ san'atning mustaqil janriga aylandi. Ikki yilda bir marta (1997 yildan beri) Rossiyada "Лоскутная мозаика России" festivali o'tkazilib, unda usta asarlari namoyish etilmoqda. Bu festivalning eng yorqin rassomi Vera Sherbakova haqida gapirishimiz mumkin. U Xalqaro rassomlar va san'atshunoslar Rossiya Assotsatsiyasi rassomi, "Лоскутная мозаика России" barcha rus festivallari laurianti, bir nechta ko'rgazmalar ishtirokchisi. 2002 – yili Ispaniyaning



Barselona shahrida Kvilt-Ekspo VIII festivalida, Fransiyaning Leon sharidagi Kvilt-Ekspo X, Fransiyaning El'zas sharida bir necha bor o'tkazilgan Yevrokvilt festivallarida va boshqa ko'plab quroq(patchwork) festivallarda V.Sherbakovanning asarlari namoyish etilgan. U Rossiya, Qozog'iston, 7-rasm. Vera Sherbakova asari bilan.

Shvetsariya, Fransiya va Germaniyada mahorat darslarini o'tkazgan. (7-rasm) Yillar davomida u o'z mahorati bilan ko'plab ko'rgazmalarda

qatnashgan. Birinchi shaxsiy ko'rgazmasi 1999 – yili Italianing Milan shahrida bo'lib o'tdi. Unda rassomning 60 ta asari ko'rgazmaga qo'yildi. Vera Sherbakova yangi texnologiyalardan foydalangan holda yangiliklar yaratib, u xuddi tasviriy san'at tilidagi kabi uslub chegaralarini buzmasdan ijodiy namunalari yaratadi. Matoning cheksiz imkoniyatlari va o'ziga xosligi asosida quroq san'atining turli texnikalar'ni qo'llagan holda tasviriy san'at namunalari yaratishda foydalaniladigan moy bo'yoq, sangina, akvarel bo'yoqlari yoki italyan qalamlari kabi hayratlanarli zavq beruvchi plastik va to'laqonli materiallardan asarlar yaratadi. Rassomning ko'plab asarlari Rossiyaning davlat va xususiy tashkilotlarida, hattoki Italiya, Fransiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Shvetsariya, Shvetsiya, Meksika, Amerika Qo'shma Shtatlarida ham saqlanadi. Vera ochiq ko'ngil inson, u Rossiya va chegaradosh mamlakatlarga borib, quroqchilik(patchwork)ning kvilting turi yuzasidan ko'plan mahorat darslarini tashkillagan.

Angliyada quroq texnikasi. Tejamkor quroq texnikasi G'arbda "patchwork" inglizchadan tarjima qilinganda "quroq bilan ishlash" deb nomlanadi, u milliy hunarmandchilik san'ati sifatida eng avval Angliyada paydo bo'lgan. XVI asrda Angliyaga hind paxtasidan turli xil naqshli rangli matolar kela boshladi. Uyida hind matolari bo'lgan xonadon boy deb hisoblangan. Hech qancha vaqt o'tmasdan qalbaki matolar chiqarila boshladi. Ya'ni hind matolaridan qovulgan ko'rpalar Angliya bozorlari uchun ishlab chiqarila boshladi. Naqshli yoki bosma naqshlar bilan bezatilgan ko'rpa uyning interyer dizayni uchun bezak sifatida qabul qilindi. 1712 yilda Angliyada hind matolarini sotishni taqiqlash natijasida paydo bo'lgan chitlarning etishmasligi natijasida qoplamali tikuvlar paydo bo'ldi. Shunday qilib, hukumat jun va ipak matolar ishlab chiqaradigan mahalliy ishlab chiqarishni saqlab qolishni niyat qildi. Natijada chitni kontrabanda yo'li bilan Angliyaga olib kirish boshlandi va uning narxi keskin ko'tarildi. Chitdan kiyimlarni qirgqandan keyin qolgan parchalar tashlanmagan, aksincha boshqa mahsulotlarni yaratishda ishlatilgan. Jun yoki lion matolar applikatsiya

texnikasidan foydalangan holda chitning katta bo'laklariga bezatilgan. Eng kichik qoldiqlar bir-birlari bilan tikilib, bitta mato hosil qildi.

Shimoliy Amerikada quroq texnikasi. XVII asrning 20-yillaridan mato "Uyg'onish davri" bilan yuzlashdi. Quroq texnikasi ko'pchilik aholining sevimli mashg'ulotiga aylangan va milliy hunarmandchilik san'ati sifatida tan olingan. Matolar etishmasligi sababli choyshablar eski kiyimlardan foydalangan holda ta'mirlandi. Matolarning yana bir tanqisligi choyshabdan yaratilgan buyumlar tayyorlash an'anasi to'xtatildi. Vaqt o'tishi bilan ular murakkablashdi, har bir usta o'ziga xos naqsh va ranglarning uyg'unligi bilan choyshab yaratishga harakat qildi. XVIII asrda Angliya, Gollandiya va Germaniyadan kelgan qochoqlarning ahvoli ancha og'ir bo'lgan. Pullari yangi kiyim sotib olish uchun yetmas edi. Ammo ayollar bu og'ir vaziyatdan chiqishdi. Eski kiyimlarning yaxshi saqlanib qolgan parchalarini qopga solib to'plashdi. Keyinchalik hamma ayollar bir joyga to'planib parchalar, qiyqim qoldiqlaridan kiyim, ko'rpa, yopinchiq va boshqa buyumlar tikkanlar. Amerikalik uy bekalari qishda choyshabning ust qismini tikardilar. Barcha qo'shnilar bahorda kechqurun, ishdan keyin, erkaklari kelgunicha ko'rpa tikish uchun yig'ilishadi. 1750 yilgacha yaratilgan Amerika kviltlarining deyarli barchasi quroq(patchwork) texnikasidan foydalangan holda amalga oshiriladi. Vaqt o'tishi bilan quroq naqshlarining an'anaviy bloklari shakllandi. Ularning aksariyatining nomlari kundalik hayotda uchratishimiz mumkin bo'lgan so'zlardir:

- "Arra tishi", "Ayiqlik kafti", "To'rlar uchun savatcha"
- ushbu naqsh ixtiro qilingan maydon ("Ogayo va Texas Yulduzi");
- Injil hikoyalari bilan bog'lanish ("Yoqubning zinasi").

1880 yillarda Amerikada quroq texnikasining "kvilt" usuli yaratildi. "Kvilt" so'zi inglizcha "quilting"-tikish, qovush so'zidan olingan bo'lib, "o'rtasiga issiq mato solinib qiyqimlardan tikilgan ko'rpa" degan ma'noni anglatadi. Keyinchalik ushbu usulda yaratilgan barcha buyumlar "kvilt" deb ataldi. Kvilt bilan ko'plab an'analar bog'liq bo'lgan. Masalan, qiz bolaning sepiga albatta kvilt uslubida tikilgan 12 ta buyum bo'lishi kerak. 13-buyumni unashtiruv paytida tika boshlashgan va to'ydan oldin tugatilgan. Bu buyum yulduz shaklida bo'lib, 672 ta

romb va 8 xil rangdan iborat bo'lgan. Badiiy kviltingning eng chiroyli yana bir turi bu albom kviltingdir. U do'stlik va ozodlik ramzi sifatida do'stlarga, qarindosh-urug'larga sovg'a qilinardi. Bu kviltinglarni "sovg'a" yoki "tashrif kvilting" lar deb atashardi. Albom kviltinglar mazmunan inson uchun qimmatli narsalarni eslatadi. Masalan, ibodatxona binosi, tarixiy shaxslarni eslatuvchi rasmlar tushirilgan bo'ladi. Bunday kviltinglarda albatta gullar, barglar, tabiiy hodisalar, buyumlar, hayvonlar, mehnat qilayotgan insonlar rasmi tushirilgan bo'lardi. Eng mashhur albom kviltinglar 1840-1860 yillarda Merilend shtatida joylashgan Baltimorda topilgan.

Keyinchalik (1850 yilgacha) applikatsiya ommalashib ketdi. Quroq(patchwork) texnikasida juda kam sonli qadimiy choyshablar saqlanib qolgan, chunki ular kundalik buyumlardir, applikatsiyali kvilt choyshablar esa maxsus holatlarga mo'ljallangan edi.

1876 yildagi Amerika Qo'shma Shtatining Filodelfiya shtatida bo'lib o'tgan Butunjahon mamlakatlari ko'rgazmasida yangicha texnikaga asoslangan ingliz san'ati namunasi – kreyzi (inglizcha "crazy" so'zidan olinib "Spiral", "Charxpalak", "Atirgul" nomlari bilan nomlangan noyob, taniqli asarlar) namoyish etildi. Kreyzi shoyi matosidan yaratildan va qo'shimcha gulli bezaklar bilan bezatilgan. Kreyzi texnikasida noyob matolar: parcha, baxmal, duhoba, shoyidan foydalaniladi va ixtiyoriy shakda naqshinkor tarzda yaratiladi. Tikilayotgan joriy qurorlar turli xil bezaklar, applikatsiyalar va mato suratlar yordamida bezatilgan. Quroqning yangicha namunalari haqidagi ma'lumotlar 1879 yili "Peterson" illustrativ jurnalida chop etildi. Quroq namunasi bu yo'nalishi "bezakli kvilt" (kvilt ingliz tilida "quroqli qovulgan mato" ma'nosini anglatadi) yoki "yapon shoyisi" (bu uslubda sharq motivlari keng qo'llanilgan) nomi bilan ataldi. Qo'l mehnati bezak uchun mo'ljallangan bo'lsada, quroqlarning chekka qismlari katta-katta qo'l choklari bilan mustahkamlangan, qirg'oqlari dekorativ to'rlar, popuklar, bahmal matolari bilan bezatilgan. Astari esa qisqaradigan (kirishadigan) matodan bo'lganligi uchun yuvilmagan. Diniy chevarchilik to'garaklarida kreyzi uslubidagi quroq namunalariga jun va paxta matolari qo'shib tikilgan. Yangi texnika Amerika

savdosiga butunlay yangilik kiritdi, pechvork(quroq)lar qo'l mehnati asosida shoyi matosidan tayyorlanib, kashta tasvirlari bilan xalqqa taqdim etilgan. XX asrning 10-yillariga kelib, kreyzi uslubi oddiy quroq tikish uslubiga o'rnini bo'shatdi. Ayrim diniy jamiyatlar o'zlari bilgan an'anaviy quroq tikish uslublarini davom ettirishdi. Yangi davrda ham quroq uchun an'anaviy naqshlardan va shoyi matolaridan foydalaniladi. XX asrning 70-yillarida Amerikada pechvorkga qiziqish qayta uyg'ondi. Kvilt-klublari mashhur bo'ldi. Maxsus do'konlar haridorlarga ushbu yo'nalishdagi milliy hunarmandchilik san'ati uchun kitob va jurnallarni taqdim etdi. 1971 yilda Iv Sen-Loran dekorativ quroq tikish va moda dunyosida yangi yo'nalish – folklor romantizmga oid model yaratdi. Bu modelning nomi "Buvimning bog'i" deb nomlanadi.

"Pechvork" an'anasi missionerlar sharofati bilan Osiyo, Kanada, Avstraliya, Hindiston mamlakatlariga, Gaiti va Gavayi orollariga tarqaldi. Ammo hamma joyda o'zining o'z milliy usuli mavjud.

1.3. Quroq san'atining turlari.

O'zbek zamonaviy san'at bosqichida quroq san'atini ikki yo'nalishga ajratish mumkin. Birinchisi – an'anaviy xalq kashtachiligi bilan bog'liq bo'lib, quroqdan turmush jihozlarini bezashda foydalaniladi. Ikkinchi yo'nalish malakali rassomlar faoliyat ijodi bilan bog'liq bo'lib, quroqchilikdan ilhomlanib ajoyib kompozitsiyalar yaratishni o'z ichiga oladi.

Bugungi kunda har ikkala yo'nalishda ham ijodkorlar samarali faoliyat olib borib, o'z asarlarini yaratishmoqda. Jumladan, xalqimiz orasida quroq san'ati yordamida buyumlar tayyorlash odatiy hol bo'lib, mahalliy quroq ustalari ko'pchilikni tashkil etadi. Bundan tashqari ushbu san'at turi yordamida liboslar yaratish yoki bezash ham urfga aylanib, yurtimiz dizaynerlari bu yo'nalishdagi kolleksiyalarini taqdim etmoqdalar. Quroq san'atining ikkinchi yo'nalishi ham nihoyatda qiziqarli va sermashaqqat faoliyat turi bo'lib, bu yo'nalishda yaratilgan san'at asarlari zamonaviy bo'lishiga qaramasdan asrlar osha yashab kelayotgan boy madaniy me'ros bilan yo'g'rilganligi ahamiyatga molikdir. Samarqandlik

rangtasvirchi rassom, grafik Toir Sharipovning ijodidan o'rin olgan san'at asarlari shular jumlasidandir. (8-rasm)



8-rasm. Toir Sharipov san'at asarlaridagi quroq namunasi.

Har bir quroq tayyorlash jarayonida ijodkordan o'ziga xos yondoshuv, did va sabr talab etiladi.

Chunki, haqiqiy quroq ushbu omillar vositasida san'at asari ko'rinishini oladi. Quroq ijodkori asarida o'zining estetik didini, shu bilan birga o'lkasining mahalliy xususiyatlarini ham namoyon etadi. Quroqlarda tabiat ko'rinishi, maishiy sahnalar, handasaviy kompozitsiyalar namoyon bo'ladi. Quroqchilik san'ati orqali xalq ijodiyotidagi qadimiy bezaklar, ramzlar, belgilar jonlanadi. Dekorativ va tasviriy motivlar tiniq, sodda jaranglaydi va ular iliq rangli matolar vositasida bajariladi.

Qadimdan yurtimiz ayollari tomonidan quroqlarning turfa xil shakllari yaratilgan va ularni qo'llab kundalik hayotda ishlatish uchun ajoyib buyumlar tikilgan. Hech bir o'zbek xonadoni yo'qki quroq uslubida yaratilgan amaliy san'at namunalaridan foydalanmasa. Xalqimiz xonadonlarida bunday buyumlarning bo'lishi va foydalanilishi o'ziga hos an'ana hisoblanadi. Chunki, quroq namunalarining har biri yaxshi niyat va ezgu istaklar ramzidir. Masalan, qadimdan yurtimizda har bir qiz turmushga chiqishi oldidan kelinlik sepi uchun o'z qo'llari bilan quroq san'atidan foydalangan holda buyumlar tikishi lozim bo'lgan. Dono momolarimizning hikmatiga binoan quroq qurayotgan qiz o'z baxtini jamlayotgan hisoblanib, o'sha qiz albatta baxtli bo'lar ekan. Shu bilan birgalikda quroq qurash jarayoni inson uchun ma'naviy ozuqa bo'lib, miyyani dam oldirish xususiyatiga ham ega. Inson hayotini quroqdan qilingan to'shamaga o'xshatsak mubolag'a bo'lmaydi, chunki baxtli, yorug' kunlar, payti kelsa, yomon, qora kunlar bilan ixtiyorsiz almashadi. Shuning uchun, quroq namunalarida iloji boricha qora rangli gazlamalar kamroq tanlanadi. Bugungi kungacha chevarlarimiz tomonidan quroqning juda ko'p turlari yaratilgan. O'zbekistonda har bir viloyatning o'ziga xos quroq tikish usullari mavjud. Jumladan, "Qatlama quroq", "Ko'z", "Oq kush",

“Turna”, “Tegirmon”, “Tirnoq”, “Quduq” kabi tikish usullaridan foydalaniladilar va ular o’ziga xos ramziylilikka ega. Hozir ham yurtimizning deyarli har bir xonadonida quroq san’ati yordamida tayyorlangan buyumlar mavjuddir. Ayniqsa, kelinlarning kelinlik seplarida albatta bunday buyumlar bo’lishi urf hisoblanadi. Bu ramziy ma’noda yosh kelin-kuyovlar turmushi to’kin-sochin bo’lib, farzandlari-yu avlodlari ko’p bo’lsin degan ma’noni anglatadi. Quroqlarning barchasi shakli, bezaklariga ko’ra o’ziga hos bo’lgan ma’no, mazmunga ega bo’lsada, aslida ular barchasining tub negizida xalqimizga xos bo’lgan yagona ezgu maqsad yotadi, u ham bo’lsa momolarimiz ta’biri bilan aytganda, “yurtimiz insonlari ulashib, qurashib, farzandlari esa bir-birini quvlashib yursin”. Demak, quroq yordamida yaratilgan amaliy san’at namunalari shunchaki buyum emas, balki xalqimiz ezgu maqsad va tilaklarining ramziy belgisi ham bo’lib xizmat qiladi. Hozirda quroq tikish san’atini umumbashariy desak, mubolag’a bo’lmaydi. Chunki, ushbu san’at turi yordamida yaratilgan buyumlar ko’plab millatlar maishiy hayotining ajralmas qismi hisoblanadi va bu san’at turi quroq ijodkorining iqtidorini namoyon etadi. Bu san’at turi orqali barcha xalqlar madaniyatida umumiy jihat mavjud ekanligini ko’rish va tahlil qilish mumkin. Jumladan, Markaziy Osiyo xalqlari bilan bir qatorda Yevropa mamlakatlari hamda Rossiya federatsiyasi aholisi bu borada yetakchilik qiladi. Shuningdek, quroq tikish san’atini o’rganish o’zbek xalq hunarmandchiligi maktablarining o’ziga xosligi, hududlar an’analari va kasanachi ustalar didini yaxshi bilishga, uni alohida badiiy jarayon sifatida zamonaviy xalq amaliy san’ati taraqqiyotida tutgan o’rni va rivojlanishiga qo’shgan hissasini aniqlashga xizmat qiladi. O’zbek xalq amaliy san’at tarixidan quroq tikish san’ati xalqimizning nafaqat estetik did sohibi, balki isrofgarchilikka yo’l qo’ymaydigan, tejamkor va san’atga oshno qalb egasi ekanligidan ham dalolat beradi. Shuni alohida ta’kidlab o’tish joizki, xalqimiz yaratgan har bir quroq san’ati asari namunalaridagi belgilar, bezaklar va ramzlar so’zlaydi. Chunki, san’at namunalarining hech bir qismi shunchaki emas, ulardagi har bir detal va ko’rinish xalq turmush tarzi, orzu umidlari va an’analarini o’zida aks ettiradi. Quroq tikish

san'ati orqali buyumlar tayyorlash quyidagi ijobiy xususiyatlarni o'zida mujassam etadi:

- gazlama tejalishiga olib keladi;
- ko'p miqdorda chiqindi chiqishining oldini oladi;
- xom-ashyo masalasi juda arzon;
- yangi ish o'rinlari paydo bo'ladi;
- bu san'at turi inson psixologiyasiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi;
- milliy an'analarimiz davomiyligi ta'minlanadi.

Gazlama bilan ishlaydigan har qanday ustada qolgan qoldiqlarni tashlamasdan, kerakli narsa uchun foydalanish ishtiyoqi tug'ilishi tabiiy. Bu bir tomondan, ayollarga xos tejamkorlik, sarishtalilikdan dalolat bersa, ikkinchi tomondan, ayollarning yaratuvchanlik qobiliyatini namoyon etadi. Quroqlarning chiroyli chiqishi unda tanlangan gazlama qiyqimlarining tolaviy tarkibi, qiyqimlarning, ranglar uyg'unligi, mutanosibligi, iplarni to'g'ri tanlanishi, ishlov berish sifati hamda chevarning ijodkorlik qobiliyatiga bog'liq.

Yurtimiz boy madaniy merosi tarixida quroqlarning juda ko'p turlari mavjud. Shu bilan birgalikda yurtimizning bir hududida uchraydigan quroq san'ati namunalari boshqa hududlarida takrorlanmasligi, har bir hududning o'ziga xos va betakror quroqchilik maktablari mavjud ekanligi ahamiyatga molikdir. Ushbu quroq namunalari o'zining murakkab yechimga, shakily ko'rinishga ega ekanligi bilan kishini hayratga soladi. Quyida bir qancha quroq turlari va quroq san'ati yordamida tayyorlangan buyum namunalari keltirilgan:

Applikatsiyali quroq – qadimiy quroq turlaridan biri bo'lib, asos mato ustida boshqa rang va turdagi, turli shaklli mato bo'laklarini mohirlik bilan qo'llagan holda yaxlit naqsh yoki shakllar hosil qilinadigan quroq turi hisoblanadi.



Qadimdan yurtimiz ayollari bu quroq turidan amaliy san'atda keng foydalanishgan. (9-rasm)
9-rasm. Applikatsiyali quroq.

Jumladan, bolalar beshiklari go'zal va betakror yopinchiqlar tayyorlanib, applikatsiyalar bilan bezatilgan. Bu, momolar tili bilan aytadigan bo'lsak, "shu beshikda yotadigan bolalar ulashib, qurashib, bir birini quvlashib yursin" degan ezgu niyatni o'zida mujassamlashtirgan. Shuningdek, applikatsiyali quroqdan gilam, so'zana, choynak isitgich va shu kabi boshqa buyumlar tayyorlashda ham keng foydalaniladi.

Gul quroq – quroqning zamonaviy turlaridan biri bo'lib, nafis mato bo'laklarini kvadrat shaklda kesib, qirqimlariga ishlov beriladi va asos qismi markazdan tashqi tomonga qaratib tikib chiqilishidan hosil bo'ladi. Bu quroqdan amaliy san'atda kelin-kuyovlar uchun yostiq jildlar, beshiklar uchun yopinchiqlar, choynak isitgichlar, sumkalar va albatta liboslarda ham rang fakturalariga e'tibor



berib qo'llanilsa chiroyli chiqadi. Shuningdek, gul quroqdan foydalanib yaratilgan buyum egalarining har doim guldek ochilib, chiroyli va ko'rkam bo'lib yursin degan ramziy ma'noni anglatadi. Quroqning bu turini tikishda har kim o'z xohishiga ko'ra turli rangli matolardan foydalanishi mumkin bo'ladi. (10-rasm)

10-rasm. Gul quroq.

Hrizantema quroq – zamonaviy quroq turlaridan biri bo'lib, qadimiy quroq hisoblanmish tish quroqdan uslublashtirilgan holda yaratilgan. Tish quroqda uchburchak shakldagi mato bo'laklari quroq markaziy bo'lagiga qaratiladi, hrizantemada esa o'sha bo'laklar markazdan tashqi tomonga qaratib ketma-ket



shaklda tikib chiqiladi. Quroqning bu turidan ramziy ma'noda "guldek ochilib, yashnab yursin" deya kelin-kuyovlar uchun yostiq jildlari, ko'rpa, choynak isitgichlar tikilib, shuningdek, liboslarda ham qo'llanilishi mumkin. Bunday o'zgacha uslubdagi buyumlarning ishlatilishi insonga estetik zavq berib, xush kayfiyat baxsh etadi. (11-rasm)

11-rasm. Hrizantema quroq.

Kashta quroq – quroqning eng qadimiy nusxalaridan biri bo’lib, mato bo’laklariga iroqi kashta turidan foydalanib turfa naqshlar tushirish yo’li bilan hosil qilinadi. Odatda kashtalar liboslar, yostiqlar, so’zanalar kabi buyumlarga tikiladi. Ammo qadimda yurtimiz ayollari quroq yordamida tikiladigan ko’rpa, ko’rpacha, yostiq kabi buyumlarga alohida san’at sifatida qarab o’z mahoratlarini namoyon qilishgan. Kashta quroq yordamida tikilgan buyumlar ko’proq qizlar tomonidan o’z kelinlik seplari uchun tikilib, ajoyib bezak vazifasini o’tagan va barchaga yosh kelinning mahoratidan darak berib turgan. Yurtimizning Qashqadaryo vohasida tikilgan kashta quroqlar o’zining turfa xil, serjilo va uzoq yillar o’tsada o’z xususiyatini yo’qotmaydigan ranglari bilan ajralib turadi. Bu ranglarning har biri amaliy bezak namunalarida o’ziga xos ma’no va mazmun kasb etadi. (12-rasm)



12-rasm. Kashta quroq.

Ushbu quroq namunasi Qashqadaryo viloyati Qamashi tumani “Katta Ko’ba” qishlog’ida yashab o’tgan mohir chevar va usta hunarmand onaxon - Qizlarsora Aliyeva (1928-1996- yillar) ijodiga mansub.

Olma quroq – eng qadimgi quroq turlaridan biri bo’lib, kvadrat va uchburchak shakldagi mato bo’laklarini bir biriga mahorat bilan biriktirishdan hosil bo’ladi. Qadimda quroqning ichki kvadrati uchun qizil rangli matodan foydalanib, mato atrofiga oq rangli uchburchak shakldagi bo’laklar tikilgan va bu qizil rang olma mevasiga qiyoslangan. Tayyor quroq kompozitsiyasida qizil matolar huddi olmalar sochilib turgandek ko’rinish bergan. Shu sababli ham quroq



“olma quroq” nomini olgan. Ammo, keyinchalik qizil mato o’rniga boshqa rangli matolardan ham foydalanilgan, biroq quroq nomi o’zgarishsiz qolgan. Olma quroq ramziy qut-baraka, hosildorlik belgisi hisoblangan va amaliy san’atda dasturxon,

ko'rpa, ko'rpacha va boshqa buyumlar tayyorlashda keng foydalanilgan. (13-rasm)
13-rasm. Olma quroq.

Olmali parcha quroq – quroqning qadimiy turlaridan biri bo'lib, “olma quroq” shaklini alohida kvadrat tasmalar ichida qo'llab, boshqa xil mato parchalari bilan uyg'unlik hosil qilingan holda yaratiladi. Shuningdek, bu quroqda kichik mato bo'laklaridan gul hosil qilish uchun applikatsiya usulidan ham foydalanilgan. Qadimdan bu quroqda foydalanilgan “olma”, “gul” shakllari ramziy ma'noda el-yurtdagi qut-baraka, hosildorlik ma'nolarini anglatgan. Quroqdagi ranglar va matolar uyg'unligi quroq yaratuvchining mahoratidan darak berib turgan va



ko'rpa, dasturxon, ko'rpachalar tikishda keng foydalanilgan. (14-rasm)

14-rasm. Olmali parcha quroq.

Ushbu quroq namunasi Qashqadaryo viloyati Qamashi tumanida yashab-istiqomat qiluvchi quroqdo'z va mohir chevar Zulfiya Saydullayeva (1949-yil tug'ilgan) ijodiga mansub.

Parcha quroq – quroqning qadimiy turlaridan biri. Bu yerda bezakli va bezaksiz mato parchalaridan uyg'unlik hosil qilinganligi uchun ushbu quroq “parcha quroq” nomini olgan. Parcha quroqning bezakli qismini hosil qilishda “qush ko'zi” nomli quroq bo'lagidan foydalanilgan. Tasvirga e'tibor berib qaraladigan bo'lsa, u yerdagi oq va qora mato bo'laklaridan hosil qilingan shakl qush ko'ziga qiyoslanadi. Bu shakl ramziy “ko'z tegmasin” degan ma'noni



anglatadi. Quroqdagi mato parchalarini ajratib ko'rsatish uchun qora rangli tasmalardan foydalanilgan. Parcha quroq amaliy san'atda asosan ko'rpa va ko'rpachalar tayyorlashida keng qo'llanilgan. (15-rasm)

15-rasm. Parcha quroq.

Ushbu quroq namunasi Qashqadaryo viloyati Qamashi tumani “Katta Ko’ba” qishlog’ida yashab o’tgan mohir chevar va usta hunarmand onaxon - Qizlarsora Aliyeva (1928-1996- yillar) ijodiga mansub.

Qamay quroq – tasma shakldagi mato bo’laklarini ketma-ket va bir biriga parallel kvadrat shaklda tikilishidan hosil bo’ladigan quroq turi. Qadimda Qashqadaryo vohasining Qamay qishlog’ida ushbu turdagi quroq ko’p tikilganligi uchun quroq shu joy nomi bilan “Qamay quroq” deb atalgan. E’tibor berib qaralsa



bu yerda kichik shaklning sekinlik bilan kattalashib borishini ko’rish mumkin. Bu hol ramziy ma’noda oila baxtining sekin astalik bilan kattalashib, to’lishib borishini anglatgan. Odatda qamay quroq turli xil va rangli mato bo’laklaridan mahorat bilan tikilgan va yostiqlar,

16-rasm. Qamay quroq.

ko’rpa va ko’rpachalar tikishda keng foydalanilgan. (16-rasm)

Shahmot quroq – bir xil shakldagi kvadrat mato parchalarini bir biriga tartib va mahorat bilan birlashtirish natijasida hosil bo’ladigan quroq turi. Albatta, bu quroqda faqat oq va qora ranglardan foydalanilmasada asos shahmot taxtasiga qiyoslanadi. Shahmot quroq nafaqat bizning xalqimizda balki boshqa xalqlarda ham qadimdan mavjud bo’lib, bu quroq turidan foydalanilib dasturxon, ko’rpa, sumka, shuningdek, liboslar ham tikilgan. Bu quroqning tayyorlash jarayoni



nisbatan oddiyroq ko’rinsada, aslida alohida mahorat va ziyraklik talab etiladi. Chunki, tayyorlanayotgan ishning muvofaqiyati ranglarni to’g’ri tanlash va o’z o’rnida foydalanishga bog’liq bo’ladi. Shahmot quroqda yorqin ranglardan foydalanilishi

17-rasm. Shahmot quroq.

kishiga quvnoqlik va jo’shqinlik kayfiyatini bersa, neytral ranglarning tanlanishi esa kishiga sokinlik tuyg’usini ulasha oladi. (17-rasm)

Tasmali quroq – zamonaviy quroq turlaridan biri bo'lib, kvadrat shakldagi mato bo'laklaridan tayyorlangan tasma va applikatsiyali bezaklardan foydalanilgan holda hosil qilinadi. “Tasmali quroq”ni o'z fantaziyamizdan kelib chiqib, turli



shakl va usullarda qo'llashimiz mumkin. Tasmalardan hosil qilingan shakl yaqqol ko'rinib turishi uchun bir biriga qarama qarshi, ammo uyg'unlasha oladigan ranglar tanlanadi. Bu quroq turidan foydalanib nafaqat go'zal va betakror buyumlar, balki liboslar uchun o'ziga xos aksessuarlar ham yaratishimiz mumkin. (18-rasm)

18-rasm. Tasmali quroq.

Tirnoqcha quroq – kvadrat shakldagi mato qirqimlariga ishlov berish orqali hosil qilinadigan, tirnoq ko'rinishidagi bo'laklarning biriktirilib, uyg'un shaklga kelritilishi orqali tayyorlanadigan quroq turi. Quroqning bu turi yordamida buyumlar yaratish tayyorlovchidan sabr va mahorat talab qiladi. Chunki quroqdagi “tirnoqcha”lar shaklining bir xil chiqishi kompozitsiya muvoffaqiyatini ta'minlashi



bilan birgalikda tayyorlash jarayonida o'ta aniqlik talab qiladi. Tirnoqcha quroq ramziy “bir-birimiz bilan et-u tirnoqdek bo'laylik” degan ma'noni anglatadi. Qadimda bu quroq turidan amaliy san'atda keng foydalanilib choynak isitgich, yostiq, bosh kiyimlar uchun aksessuar va boshqa buyumlar tayyorlangan. (19-rasm)

19-rasm. Tirnoqcha quroq.

Tish quroq – qadimda keng foydalanilgan, ammo bugungi kunga kelib unitilib ketish arafasida bo'lgan quroq turlaridan biri. Quroqning ushbu turida mato bo'laklarini uchburchak shaklda buklab, bu shakllarni asos matoga ketma-ket tikilishi natijasida tish tasviri hosil qilinadi. Qadimdan millatimizda “tish” suqdan, yomon ko'zlardan asrovchi tumor ramzi hisoblanilgan. Shu maqsadda, yosh

bolakaylar beshiklariga, uylar ostonasiga biron bir hayvon tishi “balo qazolardan asrasin” deya ramziy ma’noda osib qo’yilgan. Ushbu quroq turi yordamida tikilgan buyumlar foydalaniladigan xonadonga “ko’z tegmasin” degan maqsadda momolarimiz, onalarimiz tomonidan o’z xonadonlari va farzandlari foydalanishi uchun mahorat bilan tikilgan va amaliy san’atda, xususan: ko’rpa, ko’rpacha, yostiq jildlar tayyorlashda keng foydalanilgan. (20-rasm)



20-rasm. Tish quroq.

Ushbu quroq namunasi Qashqadaryo viloyati Qamashi tumani “Katta Ko’ba” qishlog’ida yashab o’tgan mohir chevar va usta hunarmand onaxon - Qizlarsora Aliyeva (1928-1996- yillar) ijodiga mansub.

Turna quroq-1 – qadimgi quroq turlaridan biri bo’lib, odatda qora va oq rangli matolar uyg’unlashuvidan hosil qilinadi. Bu yerda qora rang uchib ketayotgan turnalar, oq rang musaffo osmon, quroqda qo’llanilgan boshqa xil rang matolar esa tabiatning turfa ranglari va manzaralari ramzidir. Erta bahor yoki kech kuzda turnalarning ko’kda qator-qator bo’lib uchishini barchamiz kuzatganmiz. Qadimda momolarimiz tabiatning mana shu go’zal manzarasidan ilhomlanib quroqning ushbu turini yaratishgan va ko’p asrlar davomida o’z farzandlari



(chaqaloqlar beshigi, bolalar sunnat to’ylari, yosh kelin-kuyovlar sarpolari) uchun shu turna galasi misoli “ahil va hamjihat bo’lishsin” degan maqsadda ko’rpa, ko’rpacha, yostiq kabi buyumlar tayyorlashgan. (21-rasm)

21-rasm. Turna quroq-1.

Turna quroq-2 – qadimgi “turna quroq” dan uslublashtirilgan bo’lib, asosan ikki xil rang uyg’unlidan hosil qilinadigan quroq turi. Bu yerda ham ko’kda qator bo’lib uchib ketayotgan turnalar tasvirini ko’rishingiz mumkin. Farqli tomoni shundaki quroqda “turnalar” yashil rangda ifodalangan va yanada jozibali

ko'rinish berish uchun oq rangli to'r matosidan uyg'unlik hosil qilingan. "Turna



quroq 2" ni yaratish jarayonida o'z istagimizdan kelib chiqib boshqa ranglardan ham foydalanishimiz mumkin. Quroqning bu turi asosan turli buyum va liboslarda aksessuar sifatida foydalanishga mo'ljallangan. (22-rasm)

22-rasm. Turna quroq-2.

Yulduzcha quroq – quroqning qadimiy turlaridan biri bo'lib, oq, qora va turfa rangli mato bo'laklari yordamida hosil qilinadi. Bu yerda tabiat og'ushida turib, tungi osmonda charaqlab turgan yulduzlar tasvirini ko'rishingiz mumkin. Yulduzlar-oq, tungi osmon-qora, tabiat-turfa rangli matolar yordamida hosil qilingan. Qadimdan yurtimiz ayollari "xonadon sohiblarining tole'i yulduzlar singari porloq bo'lsin va doimo charaqlab tursin"



degan maqsadda ushbu quroq turidan foydalanib, o'z oilalari, farzandlari va yaqinlari uchun ko'rpa, ko'rpacha, yostiq va dasturxon kabi buyumlar yaratishgan. (23-rasm)

23-rasm. Yulduzcha quroq.

Ushbu quroq namunasi Qashqadaryo viloyati Qamashi tumanida yashab-istiqomat qiluvchi quroqdo'z va mohir chevar Zulfiya Saydullayeva (1949-yil tug'ilgan) ijodiga mansub.

I bob bo'yicha xulosa.

Amaliy san'at buyumlari birmuncha erkin-ijodkor tafakkuri maxsuli sifatida yaratiladi va u tevarak-atrofga fayz kiritishga qaratilgan bo'ladi. Xalq amaliy san'ati juda qadim zamonda paydo bo'lib, xalq hunarmandchiligi tarzida rivojlanib san'atning eng qadimgi rivoj topgan va barhayot turi bo'lib kelgan. Har xil gazlamalarni birlashritib tikish san'ati "quroq" deb ataladi va bu san'at turi qadimdan ma'lum. Unga lug'atlarda shunday deb ta'rif berilgan: Turli rang va shakldagi gazlama parchalaridan, ulab-qurab hosil qilingan buyum. Quroq usulida tikish birinchi marta Angliyada paydo bo'lgan bo'lib, u yerdan ko'chmanchi xalq orqali Amerika, Avstraliya va boshqa mamlakatlarga kirib kelgan. Ayollar eski kiyimlardan, yangi kiyimlar yaratishgan. O'rta Osiyoda ham bu san'at keng rivojlangan. Bu san'at turi haqida hech bir tarixiy qo'lyozmalarda ma'lumotlar keltirilmagan, lekin xalq orasida keng tarqalgan. Quroq tikish san'atini tasviriy san'at turiga o'xshatish mumkin. Faqat bo'yoqlar o'rniga gazlama, mo'yqalam o'rniga igna va ip ishlatiladi. Ajablanarlisi shundaki, rassomlar kabi usta chevarlar tomonidan ham shoh asarlar yaratiladi. Quroq usulida tikilgan buyumlar yuqori didni, go'zallikni, tadbirkorlikni, mehnatsevarlikni talab qiladi. Bu buyumlar – oshxonada (dasturxon, qo'l sochiq, tutqich), mehmonxonada (ko'rpalar, yostiqchalar, yostiq jildlari, yopinchiqlar) ishlatiladi. Qo'l mehnati asosida yaratilgan buyumlar beqiyos, boshqa hech kimda, dunyoning hech qaysi joyida uchramaydi. Har qanday ijodni rivojlantirish uchun turli ijodkorlar bilan tajriba almashish muhim. Qadimda bu san'at momolarimizning eng sevimli ishlaridan biri bo'lgan. To'y-hashamlar, ya'ni qiz uzatib, o'g'il uylantirmoqchi bo'lsalar albatta quroq ko'rpacha, yostiqlar va turli bezak namunalarini yaratishgan. Bu ishlar bilan ular keyinchalik avlodlarga quroqchilik san'atini meros qilib qoldirganlar. An'analarni davom ettirib rivojlantirayotgan zamonaviy usta chevarlar yangi-yangi naqshlar va ranglar uyg'unligini kashf etishmoqda. Xulosa qilib aytganda quroq texnikasi hozirgi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan bo'lib, bu texnikadan foydalanib betaror kompozisiyalar, noyob liboslar yaratish mumkin.

II bob. Quroqchilik san'ati namunalarining ishlab chiqarilish texnologiyasi.

2.1. Quroq uchun kompozitsiya izlash va matolarning tanlanishi.

Tikuvchilik jarayonida ishlatiladigan matolar tolaviy tarkibiga ko'ra tabiiy va kimyoviy tolali gazlamalarga bo'linadi. Tabiiy tolali gazlamalarga paxta, zig'ir, jun, ipak tolalaridan olinadigan gazlamalar kiradi.

Paxta – g'o'za deb ataladigan o'simlik urug'ini qoplab turadigan ingichka tolalar bo'lib, to'qimachilik sanoatining asosiy xom-ashyosi hisoblanadi. Kimyoviy tarkibi jihatidan paxta deyarli toza sellyulozadan iborat. Pishgan paxta tolasining 95-96% sellyulozadan; 4-5% turli aralashmalar: moy, mum, bo'yoq va mineral moddalardan iborat. Paxta tolasining gigroskopikligi ancha yuqori. Paxta namni tez shimadi va tez quriydi. Tolasi suyultirilgan kislotalar ta'sirida ham yemiriladi, kislotalar uzoq ta'sir qilib turgan ip-gazlama quritilgandan keyin xuddi papiros qog'ozidek yirtilib ketaveradi. Konsentratsiyalangan sulfat kislota ta'sirida paxta tolasi ko'mirga aylanadi. Sovuq o'yuvchi ishqorlar tolalarni shishiradi, natijada buramdorligi yo'qoladi, sirti silliqlanadi, ipakka o'xshab tovlanadi, pishiqligi ortadi, bo'yaluvchanligi yaxshilanadi. Qaynoq o'yuvchi ishqorlar havo kislorodi ishtirokida paxta sellyulozasini oksidlantiradi va tolaning pishiqligini kamaytiradi. Kimyoviy tozalashda qo'llaniladigan organik eritgichlar ta'sir qilmaydi. Yorug'lik ta'sirida paxta pishiqligini asta-sekin yo'qotadi. 150°C da dazmollaganda quruq paxta tolalari o'zgarmaydi, harorat bundan oshganda bir oz sarg'ayadi, qo'ng'ir tusga kiradi va 250°C da ko'mirga aylanadi. Paxta tolalari sarg'ish alanga berib yonadi, kulrang kul hosil qiladi. Paxta tolali gazlamalar kuydirilganda kuygan qog'oz hidi keladi.

Zig'ir – poyaning lub qismidan olinadigan tola bo'lib, tarkibida 80% sellyuloza va 20% boshqa aralashmalar bo'ladi. Lignin moddasi borligi uchun zig'ir tolasi paxtaga qaraganda ancha pishiq bo'ladi. Zig'irning xossalari paxtanikiga o'xshash: gigroskopikligi 12%, namni tez shimadi va tez quriydi, issiqni yaxshi o'tkazadi, paypaslab ko'rilganda qo'lga sovuq o'naydi, kislota va ishqorlar ta'siri xuddi paxta ta'siriga o'xshaydi. Qizigan dazmol ta'siriga yaxshi chidaydi, paxtaga o'xshab yonadi.

Jun – junli hayvonlarning teri qatlamidagi shoxsimon o'simtalardir. Respublikamizda qo'y, tuya, echki, qoramol va quyon juni keng miqyosda ishlatiladi. Kimyoviy tarkibida oqsillar mavjud. Gigroskopikligi yuqori, namni tez shimib, sekin quriydi. Ho'llab dazmollaganda cho'ziluvchanligini o'zgartira olish va kirishish xususiyatiga ega bo'lgani uchun junni dazmollab qisqartirish, cho'zish, dekatirovka qilish mumkin. Kiyimni kimyoviy tozalashda qo'llaniladigan barcha organik eritgichlar ta'siriga jun yaxshi chidaydi. Jun kislotalar bilan ham, ishqorlar bilan ham ta'sirlashishi mumkin. Quruq jun tolalari 110°C va undan yuqori haroratda pishiqligini yo'qotadi. Yorug'likka chidamliligi paxta va zig'irga nisbatan yuqori. Yonayotganda alanga ta'sirida tolalari bir-biriga yopishib qoladi, alangadan chiqarilgandan so'ng yonishdan to'xtaydi, tolalar uchida qora sharchalar hosil bo'ladi, kuygan pat hidi keladi.

Tabiiy ipak — ipak qurti o'raydigan ingichka ip. Ipak tolali gazlamalar tarkibida ham oqsillar bor. Normal sharoitda tolalarning gigroskopikligi 11%. Kimyoviy turg'unligi jihatdan tabiiy ipak jundan afzal. Suyultirilgan kislota va ishqorlar, kiyimlarni kimyoviy tozalashda ishlatiladigan organik eritmalar tabiiy ipakka ta'sir qilmaydi. Tabiiy ipak faqat konsentratsiyalangan ishqorlarda qaynatilganda eriydi. Bo'yalgan tabiiy ipak tolalariga suv uzoq ta'sir etganda oqish dog'lar hosil bo'ladi va tikuvchilik buyumlarining ko'rkamligi buziladi. Tabiiy ipak tolalari 110°C dan yuqori haroratda pishiqligini yo'qotadi. Quyosh nurlari ta'sirida boshqa tabiiy tolalarga qaraganda tezroq yemiriladi. Tabiiy ipak xuddi junga o'xshab yonadi.

Kimyoviy tolali gazlamalar ikkiga: sun'iy va sintetik tolali gazlamalarga bo'linadi. Sun'iy tolali gazlamalar tabiiy tolalarni qayta ishlash orqali olinadi. Bu ishlovlarda tolalarning g'ijimlanuvchanligi, kirishuvchanligi, kuyaga qarshi chidamliligi, tashqi ko'rinishi singari ayrim xossalari yaxshilanadi. Viskoza tolali, mis-ammiak tolali, atsetat va triatsetat tolali, shisha tolali va metall ipli gazlamalar sun'iy tolali gazlamalarga misol bo'la oladi.

Sintetik tolali gazlamalar esa tabiatda tola sifatida uchramaydigan oddiy moddalarning molekulalarini biriktirish yo'li bilan olinadi. Ularga kapron, lavsan, nitron xlorin, polietilenlar kiradi.

Gazlamalar tolaviy tarkibidan tashqari pardoatlanishiga qarab ham sinflarga ajratiladi: xom, oqartirilgan, bo'yalgan, gul bosilgan.

Ayrim gazlamalar maxsus pardoatdan o'tkaziladi. G'ijimlanuvchanlikka qarshi qilib g'ijimlanmaydigan, suv yuqmaydigan, yonishga va chirishga chidamli qilib pardoatlanadi.

Tikuvchilikda ishlatiladigan gazlamalar ko'ylaklik, kostyumlik, paltolik, plashlik va hokazo uchun mo'ljallangan xillarga bo'linadi. Kiyim tikishda gazlama tolaviy tarkibi, xossalari hisobga olinishi lozim.

Jun, ipak, sintetik tolali gazlamalardan tikiladigan ko'ylak va yubka etaklari maxsus mashinada qirqimlari ichkariga ikki marta bukib tikiladi. Qalin jun, sintetik tolali vilvet (chiy duxoba), velyur kabi materiallardan tikiladigan kiyimlar etagi ochiq qirqimli, ya'ni qirqimlarini maxsus mashinada yo'rmab, so'ngra bir marta bukib tikiladi.

Agar lavsanli jun gazlamalarni ho'llangan latta qo'yib 200°C gacha qizdirilgan dazmol bilan dazmollansa, gazlamaning ayrim joylari kirishadi, ketmaydigan dog'lar paydo bo'ladi. Kapron gazlamalarga qizib ketgan dazmol tegishi bilan erib ketadi.

Atsetat tolali gazlamalarga qizigan dazmol tekkanda ketishi qiyin bo'lgan yaltiroq joylar paydo bo'lishi mumkin. Nitron tolali ko'ylakli gazlamalar ip yoki sun'iy tola aralashgan jun gazlamalarga qaraganda kam eziladi. Bunday gazlamalardan dazmollab hosil qilingan taxlamalar faqat kiyganda emas, balki yuvib, kimyoviy tozalanganda ham o'z xususiyatini o'zgartirmaydi. Taxlama yoki ziylarni bukib dazmollashda noto'g'ri dazmollanib, bukilib qolgan joyini tuzatib bo'lmasligini yodda tutish zarur. Atsetat, triatsetat tolali ipak gazlamalar ezilmaydigan, yuvilganda kam kirishadigan va tez quriydigan gazlamalar bo'lgani uchun ko'p dazmollashni talab qilmaydi. Lekin bu gazlamalarning ishqalanishga

qarshiligi past bo'lganligi uchun tikiladigan kiyim orqa bo'lagi o'rta choksiz va keng bo'lishi tavsiya etiladi.

Trikotaj polotnolar yumshoq, elastik bo'lgani uchun yopishib turganda ham harakatga xalaqit bermaydi. Ular gigiyenik jihatdan havo o'tkazuvchan, namni shimuvchan bo'ladi, lekin trikotajni tikish vaqtida to'qima petlyalar so'kilib ketishi mumkin. Bir qavat to'qilgan trikotaj buralib ketishi natijasida uni tikish ancha qiyin. Gazlamalarning tuzilishi, xossalariga qarab model tanlash tikuvchilik kasbining asosiy talablaridan biri hisoblanadi.

Bichishdan oldin ko'p gazlamalarga (duxoba, chiy duxoba, astarli sarja, sun'iy shoyi, «boloniya» tipidagi gazlamalar, plash bop gazlamalardan tashqari) namlab issiqlik ishlovi beriladi. Dekatirovka — tayyor kiyimning kirishishini oldini olish uchun gazlamaga namlab issiqlik ishlovi berishdir. Oddiy ip gazlamalarni, zig'ir tolali va shtapel gazlamalarni ho'llab siqiladida (buramasdan), tanda va arqoq iplariga to'g'rilab yoyiladi. Gazlama namligida teskari tomonidan tanda ipi bo'yicha dazmollanadi. Jun gazlamalarni, sintetik va boshqa tolali gazlamalarni ho'llab siqilgandan keyin choyshab ustiga yoyib, rulon qilib o'raladi. Plyonkaga o'rab ozroq yuk ostida 2-3 soat tutib turiladi. Choyshabni ho'llashga sirka eritmasini ishlatga bo'ladi (2 litr iliq suvga 1 osh qoshiq hisobida). Gazlamani bir oz quritib, tanda ipi bo'ylab teskarisidan ustiga doka yoki yupqa mato yopib dazmollanadi. Gulli, ayniqsa, to'q rangli gazlamalarning rangini aynimasligini ho'llangan gazlama ustidan dazmollab tekshiriladi.

Hamma gazlamalar bichish oldidan dazmollanadi. Jun gazlamalar, odatda, o'ngini ichkariga qilib rulon holatida o'raladi. Shoyi gazlamalar o'ngi ustiga qilib o'raladi. Ikkiga bukilgan gazlamalar o'ngi ichkariga qaragan bo'ladi. Milki yaqinidagi teshiklarning qabariqlari o'ng tomonga chiqqan bo'ladi. Agar gazlamaning o'ng va teskarisi bir xilda bo'lsa, sifatli tomoni o'ngi hisoblanadi.

Tukli gazlamalarning teskari tomoniga har 50-60 smda tukining yo'nalishi tomonga qaratib strelka qo'yiladi. Hamma detallar bir tomonga qaratib: duxoba va chiy duxoba tukini yuqoriga qaratib, "taram" gazlamalarni tukini pastga qaratib bichiladi.

Gazlamaning ikkala tomonini yaxshilab qarab, nuqsonlari: tugunchalari, teshikchalari, dog'lari, gulidagi uzilishlar va boshqa nuqsonlar bo'r yoki qaviq bilan belgilanadi. Bichayotganda bu nuqsonlar chiqarib yuboriladi yoki sezilmaydigan joylarga ishlatilib yuboriladi.

Bugungi kunda moda olamida quroq texnikasining turli usullaridan keng foydalanilmoqda va yanada yangidan yangi turlari amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Dunyoning ko'plab dizaynerlari bu texnika asosida bejirim kolleksiyalarni yaratmoqdalar.

“Kostyum” so'zi fransuz tilidan olingan bo'lib, kiyim tushunchasiga o'xshash. Kostyum va kiyim odamning tanasini yopadi. Ammo farqi ham bor. Kostyum tushunchasiga kiyim, poyabzal, soch turmagi, bosh kiyimi, qo'lqop, taqinchoqlar va grim kiradi. “Kiyim” va “kostyum” tushunchalari - insonning gavda tuzilishi va obraziga nisbatan ko'rib chiqilishi zarur. Kiyim – bu materiallarning odam tanasidagi qobiq sistemasi bo'lib, tanani iqlim ta'siridan saqlaydi va odamning o'ziga xos ba'zi xususiyatlarini namoyon qiladi. Kostyum – bu kiyim qismlarining muayyan obrazli badiiy sistemasi bo'lib, ushbu qismlarni insonning individual obrazini yoki ijtimoiy guruhini xarakterlovchi qaror topgan prinsiplarga asosan yaratilgan va muayyan tarixiy bosqichda erishilgan ma'lum texnik, ilmiy va madaniy yutuqlarni aks ettiradi.

Odatda, erkaklar va ayollar kiyimining pidjak va shimdan yoki jaket va yubkadan iborat ma'lum bir turi ham kostyum deb ataladi. Qo'shimchalar kostyumga tugallik ko'rinishini beradi. Bularga sharf, sumka, zont, hassa, qo'lqop, taqinchoqlar kiradi.

Zamonaviy kostyumni yaratishda quyidagi prinsiplarga amal qilish lozim:

- tarixiy an'analar bilan bog'liqlikni saqlash;
- ilg'or tendensiyalarni analitik o'zlashtirish;
- yangi badiiy g'oyalarni sanoatga tezkor tadbiq etish;
- modani prognozlashda ilmiy yondashish va kostyumda ilm-fan, madaniyat va sanoatni yutuqlarini aks ettirish;
- kostyumni utilitar funksiyalariga amal qilish;

- o'rab turgan moddiy muhit bilan zamonaviy inson obrazi uslubining yakdilligini ta'minlovchi kostyum ansamblini yaratish.

Hozirgi kunda kostyum yaratishning asosiy kompozision prinsipi kontrast va dinamika bo'lib, ilgari urf bo'lgan ko'p qavatli liboslar esa vertikal liboslar uyg'unligi bilan almashinadi. Insonsiz kostyum faqatgina potensial qiymatga ega bo'ladi, inson bilan kostyum esa badiiy obrazni vujudga keltiradi. Bu qonuniyatni dizayner navbatdagi yangi kompozisiyani yaratishda unutmasligi lozim. Kostyum kompozisiyasi naqsh kompozisiyasi to'g'ri va asoslangan yechimini belgilab beradi. Mato naqshi rasmi va kostyum – ajralmas yaxlitlik bo'lib, ular bir birini to'ldirib turadi. Bundan tashqari kostyum loyixalanayotganda uning kompozisiyasi obrazini sintez qilgan holda matodagi naqsh tanlanadi. Dizayner aniq gavdada tayyor libosni aniq tasavvur eta olish kerak. Bu erda shuni takidlash joizki libos eskizi to'g'ridan tog'ri matodagi naqshga bog'liq.

Kostyum – bu avvalambor hajm va fazoviy shakl bo'lib, kostyum kompozisiyasi esa, o'z navbatida fazoviy elementlarni strukturasi hisoblanadi. Kostyum kompozisiyasi vositalariga: massa (xajm, fazoviy geometrik shakli); maydon (detallarning yassi shakllari uchun); chiziqli (shakllarni bo'laklash); mato (faktura, rang, naqsh) lar kiradi.

Kostyum strukturasi kiyimni fazoviy shaklining o'lchamlari mutanosibligi (lif, yubka, eng), oyoq kiyim va bosh kiyim elementlarning chiziqli xarakteristikasi (siluet chiziqlar, relief choklar) mato bilan birga yetarlicha to'liq xarakterlaydi. Kostyum kompozisiyasini buyumning fazoviy shakliy maketida yoki qog'ozdagi eskiz loyihasida amalga oshirish mumkin. Kostyum kompozisiyasini eskiz ko'rinishidagi echimiga to'xtaladigan bo'lsak, bajaradigan funksiyasiga ko'ra eskizlar quyidagilarga ajratiladi: muammolarning dastlabki umumiy g'oyasini namoyish etuvchi (qo'yilgan maqsadga qarab eskiz; qog'ozda yoki xajmda echim topadi) va tugallangan, ya'ni matodagi naqshni yoki kostyumni namoyish etadigan holatda. Kostyum kompozisiyasida naqsh funksiyasining roli haqida so'z borganda, kostyumga ta'sir etuvchi naqshning ritm-plastikasida to'xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir.

Moda – inson ehtiyojining atrofdagi sharoitning turlanishi va doimiy yangilanishi bilan bog'liq bo'lgan muayyan shakllarning qisqa muddatli hukmronligi. Moda aktiv va ko'zga tashlanadigan darajada, ayniqsa, shakllari tez o'zgarib turadigan kiyimda namoyon bo'ladi. Moda - kiyim formasi (fasoni)ning o'zgarishi, yangilanishi va jamiyatning turli guruhlariga o'rtasida rasm bo'lishidir. Moda o'z zamonasiga, turmush tarziga hamohang bo'lib, kishining ehtiyojini qondirish uchun xizmat qiladi va kishilik jamiyatining taraqqiyoti, insonlar o'rtasidagi munosabatlarning rivojlanishi bilan bog'liq. Moda kiyimda - qiziqarli va yetarli darajada murakkab hodisa. Jamiyatdagi iqtisodiy, ijtimoiy va psixologik jarayonlar kiyimda o'z aksini topadi. U ma'lum darajada shaxsning hayot uslubini, axloqini mujassamlaydi, ya'ni kishini o'z-o'ziga va boshqalarga munosabat uslubini ifodalaydi. Moda - turmushning tashqi ko'rinishida, asosan kiyimda namoyon bo'ladigan biror didning muayyan ijtimoiy muhitda ma'lum vaqt hukmron bo'lib turishidir. Moda va iqtisod bir-biriga bog'liq ma'nodosh so'zlar. *Moda* (fransuzcha “mode” so'zidan olingan bo'lib – me'yor, tarz, usul ma'nosini bildiradi) paydo bo'lishi unchagina murakkab voqea bo'lib, jamiyat hayotidagi qator hayot omillariga bog'liq, insonning juda ko'p faoliyatiga o'tadi.

Moda - zamonaviy degani, estetik qiymat esa vaqt o'zgarimas bo'lib qoladi. Biroq modaning ziddiyatliligi uning progressivligini inkor etmaydi. Moda insonning yangilanib turishdek tabiiy intilishiga mos bo'ladi. U zamonaviylik nuqtai nazaridan eng ma'qul yechimlarni tanlab oladi. Moda olamida ham quroq san'atidan keng foydalaniladi.

Fendi brendining dizayneri Karl Lagerfeld quroq texnikasini qo'llagan holda ajoyib va chiroyli bo'lgan modellarni yaratgan. U turli xil rang va uzunlikdagi mo'ynalardan foydalandi. (24-rasm)



24-rasm. Quroq texnikasida yaratilgan mo'ynali ustki kiyimlar to'plami.

Shuningdek, Sergey Grinko, Jean Paul Gaultier, Valentin Yudashkin kabi taniqli dizaynerlar ham o'z ishlarida quroq texnikasidan foydalangan holda ko'rkam liboslar to'plamlarini yaratishgan. (25-rasm)



25-rasm. Quroq texnikasida yaratilgan charm va mo'ynali kiyimlar to'plami.

1913-yilda Miuccia Prada va Mario Pradalar oilasi tomonidan tashkil topgan mashhur “Prada” brendining kolleksiyasida ham quroq texnikasidan foydalanib turli matolar va naqshli bo'laklardan iborat liboslar va ustki kiyimlar yaratilgan. (26-rasm)



26-rasm. Prada brendining quroq texnikasidan foydalangan to'plami.

1983-yilda dizayner Franko Moschino tomonidan tashkil topgan “Moschino” italyan kompaniyasi kiyimlar, matolar, parfyumeriya, aksessuarlar va boshqa tovarlar ishlab chiqaruvchisidir. Moschino brendining dizaynerlari quroq texnikasini oddiygina to'rtburchaklar usulini juda ham bejirim ko'rinishda liboslarda qo'lladilar. U jinsi va tilla rangdagi matolardan foydalanib betakror to'plam loyihalagan. (27-rasm)



27-rasm. Moschino brendining qur oq texnikasidan foydalangan to'plami.

O'zbek moda olamida ham taniqli va yosh dizaynerlar tomonidan quroq texnikasidan foydalanib bejirim liboslar kolleksiyalari yaratilmoqda. Masalan, mashhur o'zbek dizaynerlaridan biri bo'lgan Saodat Muratxadjayeva o'z ishlarida quroq texnikasidan keng foydalanadi. U quroq texnikasining kresh usulida, milliy matolar uyg'unligida ayollar, erkaklar va bolalar liboslarini yaratgan. (28-rasm)



28-rasm. Saodat Muratxadjayevaning 2009-yildagi liboslar to'plami.

Yana bir taniqli o'zbek brendi hisoblangan "KANISHKA" ning kolleksiyalarida ham quroq texnikasidan keng foydalaniladi. U turli-tuman jun va charm matolardan foydalanib quroq texnikasida yangi fakturalarni hosil qilgan holda ustki kiyimlar va boshqa turdagi liboslarni yaratadi. (29-rasm)



29-rasm. Kanishka brendining quroq texnikasidan foydalangan to'plami.

Quroq texnikasini noyob va bejirim ko'rinishda yaratish maqsadida uni tasviriy san'at asarlari bilan uyg'unlashtirish mumkin. Go'zal ijtimoiy yo'naltirilgan buyumlar yangi turmush tarzini o'rgatishga imkon beradi, insonning ruhiy talablarini qondiradi, moddiy vositalarni tejamlash rezerviga aylanib, mahsulotni mukammallik darajasini oshiradi. Amaliy hunarmandchilikning o'ziga xos bir yo'nalishlaridan biri bo'lgan quroq texnikasi - tarixda matolar tanqisligidan kelib chiqqan bo'lsa-da, yillar mobaynida rivojlanib bordi. Bugungi kunda quroq texnikasining juda ham ko'plab turlarini uchratishimiz mumkin. Ular malakali dizaynerlar va ko'ngilli quroq tikuvchilar tomonidan yaratilmoqda. Zamonaviy moda olamida ham quroq texnikasi aktual mavzulardan biridir. Ijodiy manbani izlanish jarayonida quroq texnikasiga o'xshash akril va moybo'yoqlarida ishlangan tasviriy san'at asarlaridan, zamonaviy moda tendensiyalaridagi yorqin ranglar koloritidan va siluetlaridan foydalaniladi. Quroq texnikasini tikishda adras matolaridan foydalanish mumkin, chunki ulardagi rang barang naqshlar tasviriy san'at asarlari bilan uyg'unlashib ajoyib quroq uslubini yaratadi. Quroq texnikasining ornamentlari uchburchak, to'rtburchak, shakllarda va turli o'simliklar va gullar shakllarida applikatsiya texnikasida tikiladi. Bo'lakchalar bir-biriga mashinaning zig-zag choklari yordamida ulab chiqiladi. Natijada, juda ham ajoyib va bejirim fakturaga ega bo'lgan quroq texnikasining na'munalari paydo bo'ladi va ustki kiyim plashlarning har hil qismlarida qo'llaniladi. Quroq texnikasini tasviriy san'at asarlari bilan uyg'unlashtirishda o'zbek milliy matolari bo'lgan adras matolaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki milliy matolardagi rang-baranglik quroq texnikasini tasviriy san'at asarlari bilan uyg'unlashtirilganda ularda bejirim ranglar gammasini yaratadi. Asos sifatida ustki kiyimlar uchun plashbop matodan foydalanamiz. Plashbop matolar xomashyo tarkibiga ko'ra, ip-gazlamali, ipakli va yarimjunli bo'lishi ham mumkin. Odatda ular yengil zichlikdagi poliamid tolalardan iborat bo'lib, sadaf rangli, kumush va tilla rangdagi plyonka, shuningdek, lateks bilan qoplangan, lak bezakli bo'ladi, shamolga bardosh beruvchi, suv o'tkazmaydigan matolar ham shular jumlasidandir. Nam o'tkazmaydigan plash, palto va bosh kiyimlar kompleks va

plyonkali materiallardan tayyorlanishi ham mumkin. Bunga tabiiy yo sun'iy charm



va zamshni misol keltirish mumkin.⁸ (30-rasm.)

30 -rasm. Endryu Jakobning “Soy” asarini qo'llab loyihalangan libos namunasi.

2.2. Qoldiq mato bo'laklarini bir-biriga moslab, matolar asosida andaza tayyorlash.

Mehnat qilgan insongina o'z mehnatining qadriga yetib, isrofgarchilikka yo'l qo'ymaydi. Donishmandlarimiz: “Turmushing yaxshi o'tishini, farovonlik bilan yashashni istasang isrofgarchilikka yo'l qo'yma, bundan hazar qil”, - deb aytganlar. Gazlama qoldiqlari bilan ishlash bir tomondan isrofgarchilikning oldini olsa, ikkinchi tomondan yoshlarni sabr-toqatga, nazokatga, bo'sh vaqtini unumli bo'lishiga undaydi. Faqatgina gazlama qoldiqlaridan emas, balki eski kiyilmaydigan kiyimlardan uy-ro'zg'oz uchun ko'plab foydali buyumlar tayyorlash mumkin. Bunday buyumlarni bezashda palto, jaket, mehli kiyimlar bichimlaridan qolgan gazlama, charm va zamsh bo'laklaridan foydalanish mumkin. Boy fantaziya va ijodiy yondashish orqali bunday ishda hamma material qoldiqlari o'z o'rnini topadi.

Quroq tikish jarayoni bir qancha bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Quroq eskizini chizish;
2. Gazlama qiyqimlarini tanlash;
3. Quroq tikish uchun iplar tanlash;
4. Asboblarni tanlash;
5. Bichish usulini tanlash;
6. Tikish usulini aniqlash va tikish.

Quroqlarni tikishda ko'pincha, tabiiy gazlamalardan foydalaniladi, chunki, ular yengil bo'lib, yaxshi bukiladigan va taxlanadigan xususiyatga ega. Ammo,

⁸ To'qimachilik mahsulotlarini badiiy bezash asoslari. T., 90-bet.

quroqlardan buyum tayyorlash jarayonida ularning yuvilganda kirishish xususiyatlarini e'tiborga olish zarur.

Turli mato qoldiqlaridan mohirona, turli ranglari bir-birini to'ldirib, geometrik shakllarning uyg'unlashuvi orqali yaratilgan buyumlar, takrorlanmas badiiy asar hosil qiladi. Bunday buyumlardan oshxonada – parda, dasturxon, salfetkalar, sochiq, choynak uchun isitgich, choynak ushlagich, fartuklar; mehmonxonada – manzarali panno sifatida; yotoqxonada – yostiq jildi, ko'rpalar; aksessuarlar – sumka, katmon, kiyimlar ko'rinishida yaratiladi. Bularni tayyorlash uchun och rangdagi zig'ir, paxta tolali matolardan foydalansa bo'ladi. Ularning kompozitsion yechimini hosil qilish uchun sanab o'tilgan buyumlarning bir xilda bezalishiga ahamiyat berish kerak.

Pardani ikkita asimmetrik detaldan bichiladi. Undagi kashtaning yechimi asimmetrik bajariladi. Pardaning chap bo'lagining yuqori qismi o'rtasida joylashgan, asosiy gazlamaga applikatsiya qilib tikilgan fantaziyali gul kompozitsion markaz bo'ladi. Guldan tepa va past tomonga chetki qirqimlar bo'ylab barglar tarqatilgan. Pardaning ichki qirqimlari tishsimon shaklda petlya chokdan kashta bilan ishlov beriladi.



31-rasm. Quroq texnikasida yaratilgan dasturxon.

Dasturxon – to'g'ri to'rtburchak bo'lib, stol o'lchamlariga mos bo'ladi va 20-25 sm yon tomonga tushib turadi. Uning chetki qirqimlari tishsimon shaklda petlya chok bilan tikiladi. Dasturxondagi kashta asimmetriya bo'lib, pardadagi tikish texnikasi va rasm elementlari takrorlanadi. (31-rasm)

Salfetkalar 35*35 sm bo'lib, to'rtburchak shaklida, u ozgina gul barglari bilan bezatiladi.

Choynak isitgich choynak g'ilofi va choynak tagligidan iborat. Choynak g'ilofi issiq astar – ostki qismi va ustki qismi bezatilgan avradan iborat. Bunda oval shaklidagi g'ilof ko'rsatilgan. Katta bo'lak g'ilofning ostki qismiga teng bo'ladi. Ostki qismi 2 qavat astardan iborat bo'lib, uning orasiga vatin yoki

porolon qo'yib qo'lda yoki mashinada qaviladi. Ustki qismiga kashta alohida tikib olinadi va yon tomonlari alohida petlya chokda tikiladi. So'ngra kashta tikilgan avrani ostki qismiga bostirib tikiladi. Ostki qismidagi issiq vatin yoki porolondan 1 sm kesib tashlanadi, shunda biriktirilgan chok qalin bo'lmaydi. G'ilofning pastki qismiga mag'iz bilan ishlov beriladi. Isitgichni atlas yoki yaltiroq satindan tayyorlasa ham bo'ladi. G'ilof uchun 8 ta bo'lak, choynak tagligi uchun esa 2 kvadrat bo'lagi shunday bichiladiki, bunda ular orasiga vatin yoki porolon qo'yilishini hisobga olish kerak. Har bir bo'lak alohida tikiladi, ya'ni birinchi usti – avrasi mashinada teskari tomonidan qaviladi, keyin qo'lda porolon yoki vatin tikiladi. Oxirida astar qismi mayda qaviqda ichkari tomondan tikiladi. G'ilofning pastki tomonidan ortiqcha qismlari qirqib tashlanadi va ichkariga bukilib, chetidan 0,1-0,2 sm qoldirilib mashinada bostirib chiqiladi. Choynak tagligi ham shunday tayyorlanadi. So'ngra salfetka uslubida tayyorlangan bo'lakni taglik ustidan tikib qo'yiladi. Isitgich gulini tikish yoki lentadan tayyorlash mumkin. Choynak tagligi



3 qavat asosiy gazlamadan turli shaklda bichiladi, qo'lda yoki mashinada qaviladi va atrofi choynak ushlagichlari ham choynak tagligi kabi tayyorlanadi. (32-rasm)

32-rasm. Quroq texnikasida yaratilgan choynak tagligi.


Fartuklar fantaziya uslubiga moslashtirilgan asimmetrik, orqaga o'timli bo'ladi. Chetki qirqimlari kashta bilan bezatilgan bo'lib, bichish vaqtida gardish bilan tikishga qulay bo'lishi uchun 2 sm ortiq qoldiriladi. Cho'ntak pastki qirqimi va yuqori burchak tomoni kashta bilan tikiladi. Cho'ntak cheti qirqimlari bukilib bostirib tikiladi. Fartuk taqilmasiga petya va tugmacha bilan ishlov beriladi.

Komplektga dekorativ sochiqni ham kiritish mumkin. Uning yon tomoni “zig-zag” chokda tikiladi, ikkita uchi esa oshxona jihozlarining boshqa komplektlaridek bezatiladi.

Deraza pardalar 3 detaldan iborat: 2 ta uzun bo'laklari oyna kengligi va uzunligiga mos bo'ladi, yuqori qismi esa lambreken bo'lib figurali bezatiladi.

Uzun bo'laklarining ichkari qirqimlari va lambrekenning pastki qirqimlari tekis petlya chokda kashta bilan bezatiladi. Lambrekenning yuqori qismi markazida kapalak nusxali tasvir tekis kashta chokida tikiladi. Bunda ipning rangi asosiy gazlamaga mos bo'lishi kerak. Ba'zi hollarda turli ranglardagi iplardan foydalanish ham mumkin.


Applikatsiyali quroq tayyorlashida turli rang va turdagi mato bo'laklaridan foydalaniladi. Bu jarayonda yaratuvchi iste'dodidan kelib chiqib matolardan istalgan shakldagi naqsh elementlarini kesib olishi va ularni tayyorlanayotdan buyumda qo'llashi mumkin. Jumladan, applikatsiyali quroqning yuqorida ko'rsatilgan turini tayyorlash uchun bo'yi 36 sm, eni 31 smli asos mato va uni bezatish uchun bo'yi 22 sm va eni 18 sm li bitta, bo'yi 14 sm va eni 6 smli to'rtta, bo'yi 15, eni 4 smli ikkita to'g'ri to'rtburchak shakldagi mato bo'laklari kerak bo'ladi. Tayyorlab olgan to'g'ri to'rtburchaklarning kattasini ikki buklagan holda, qolganlarini esa qavatma-qavat taxlangan holda chetki qismlarini naqshli qilib kesib olamiz. Quroq yanada chiroyliroq chiqishi uchun ba'zi joylarida teshikchalar ham hosil qilinadi. (33-rasm)



33-rasm. Applikatsiyasining asos qismi va qirqimlari.

Kesib olingan bo'laklarni asos matoga joylashtirib dastlab qo'l choki yordamida, so'ng mashina choki yordamida tashqi qirqimidan 0,2 sm joy qoldirilib, aylantirib tikib chiqiladi. Bunday shaklda tayyorlanadigan applikatsiyalarni amaliy san'at namunalari va ayniqsa liboslarda keng qo'llaniladi.


Gul quroq asosan nafis mato bo'laklaridan tikilib, bunda istalgan rang turi tanlanishi mumkin. Quroqdagi gullar dastlab alohida tayyorlab olinib, so'ng kerakli joyga o'rnatiladi. Bitta gul tayyorlashi uchun asos qismiga diametri 14 smli aylana shakldagi qotirma yopishtirilgan mato va ko'ndalang holatda kesib olingan, tomonlari 5 smli nafis mato bo'laklari kerak bo'ladi. (34-rasm)



34-rasm. Gul quroq mato asosi va kvadrat qirqimlari.

Ko'ndalang holatda kesib olingan kvadrat shakldagi mato bo'laklari qirqimiga kuydirib ishlov beriladi. Shundan so'ng, bo'lak ketma-ket ikki marta kvadratning diagonal chiziqlari bo'ylab bukiladi. Bukilgan kvadratchalarning markaz qismini asos aylananing chetki qismiga, kuydirib ishlov berilgan tashqi qirqimlari aylana markazidan tashqi tomonga yotqizilgan holatda qo'yilib ketma-ket tikib chiqiladi. Har bir tikilgan aylana choklarning oraliq masofasi 1.5-2 smni tashkil qilishi lozim. Yaproqlarni shu tarzda ketma-ket asos matoga qo'yib tikilishi natijasida gul shakli hosil bo'ladi. Hosil bo'lgan gulning markaziy qismiga bezak toshlar bilan ishlov beriladi.

Hrizantema quroq tayyorlashda dastlab har bir gul alohida tikilib olinadi. So'ng tayyor bo'lgan gullar kerakli joyga o'rnatiladi. Bitta hrizantemani tayyorlash uchun diametri 14 smli doira shakldagi qotirma yopishtirilgan qattiq va tomonlari 5 smli kvadrat shaklidagi nafis mato bo'laklari kerak bo'ladi. (35-rasm)



35-rasm. *Hrizantema quroq asosi va kvadrat mato qirqimlari.*

Kvadrat shakldagi mato bo'laklarini diagonaliga ikki marta buklanadi, hosil bo'lgan shaklni markazidan yana bir marta buklanadi. Buklab tayyorlangan shakllar buklangan uchini aylana tashqi qirqimiga, ochiq qismini esa aylana markaziga qaratgan holda asos matoning chetki qismidan markazga tomon aylantirib ketma-ket tikib boriladi. Tayyor hrizantema markaziga bezak beriladi. Shundan so'ng, uni kerakli joyda qo'llashimiz mumkin bo'ladi. Hrizantema "yaproq" lari tikilguncha har bir aylana orasidagi masofaga etibor berilishi lozim. Chunki, aylanalar biron joyining kengayishi yoki torayishi, shakl buzilib gul markazining siljishiga olib kelishi mumkin.

Kashta quroqni yaratilish jarayonida ham dastlab, eng mukammal bo'lagini alohida tayyorlab olinib, so'ng esa boshqa bo'laklar bilan birlashtirib tikiladi. Turli rangdagi matolardan kerakli shakllarni qirqib olamiz: markaziy qism uchun tomoni 7smli 1 ta kvadrat, 4tadan uzunligi 9, 15 sm va eni 15 smli qora, 4 ta kashta tikish uchun uzunligi 13sm va eni 3 smli oq tasmalar, quroq atrofini o'rab turuvchi kattaroq ko'rinishdagi kashta naqshlari tikilishi uchun ixtiyoriy uzunlikda va eni 6 sm li oq tasma. Tayyorlab olingan qirqimlarni tikish markaziy qismdan boshlanadi. Kvadrat tomonlariga 9 smli qora tasmalar tikib chiqiladi. Qora tasmadan so'ng oq va uzunligi 15 smli qora tasmalar ham biriktiriladi. Shu tarzda hosil qilingan kvadratlar va buyum chetidagi oq, qora, qizil tasmalar bir-biriga tikilib tayyorlab olinadi. Tayyor bo'lgan buyum dazmollanadi va oq tasmalarga mahorat bilan iroqi kashta yordamida naqsh elementlari tikib chiqiladi. Kashtali quroqni boshqa quroq

turlaridan farqli jihati shundaki, u yaratuvchida ikki barobar sabr, matonat va mahorat talab etadi.

Olmali parcha quroq tayyorlash jarayoni boshqa quroqlarga nisbatan ancha oddiy va soddaroq hisoblanadi. Olmali parchalar uchun tomonlari 6 smli turfa rangli, ikki tomoni 5 smli bo'lgan to'g'ri burchakli uchburchak shaklidagi oq rangli, uzunligi 13sm sariq yoki qizil rangli, 15 smli qora rangli eni 3smli tasma, applikatsiyali gullar uchun diametri 2 sm li gulchalar shaklida kesib olingan mato bo'laklari kerak bo'ladi. Dastlab markazdagi "olmacha" tayyorlab olinadi. Buning uchun kvadrat shakldagi mato bo'lagining 4 ta qirqimlariga oq rangli uchburchak shakldagi matolar biriktiriladi. So'ng kvadrat markazga hamda har bir uchburchak ustki qismiga gulchalar qo'yilib diagonaliga tikiladi, natijada applikatsiyali bezak hosil qilinadi. Hosil qilingan "olmachalar" chetki qismlariga dastlab sariq rangli, so'ng qora rangli tasmalar tikiladi. Tayyor olmali quroq parchalari boshqa bo'laklar bilan biriktirilib yaxlit shaklga keltiriladi.

Parcha quroq tayyorlash jarayonida eng avvalo qora tasmalar ichidagi qismlar taxlab olinadi. Har bir qora tasma ichidagi quroq 4 ta "qush ko'zi" deb ataladigan qism, 4 ta kichik va 1 ta katta kvadrat shakldagi qismlardan iborat. Jarayon oson kechishi uchun dastlab "qush ko'zi" larni alohida tayyorlab olinadi. Buning uchun tomonlari 6 smli 1 ta rangli, 1 ta qora va 2 ta oq kvadrat shakllar kesilib, qora kvadratni 2ta, oq kvadratlarni esa 4 ta uchburchak shaklga bo'linadi. So'ng, oq shakllarni rangli va qora shakllarga alohida-alohida tikib taxlab olib, tayyor bo'lgach bir-biri bilan biriktiriladi. Natijada "qush ko'zi" tayyor bo'ladi. Huddi shunday "qush ko'zi"dan 4 ta tayyorlab dazmollab olinadi. Quroq parchasining markaziga qo'yish uchun ixtiyoriy rang va turda, tomonlari 12 sm bo'lgan kvadrat shakl tayyorlanadi. Chunki, har bir tayyor "qush ko'zi" ning bo'yi 12 sm, eni 6 sm bo'ladi. Tayyor kvadratning ikki qarama-qarshi tomoniga "qush ko'zi" larni biriktirib tikib olinadi. Qolgan ikkita "qush ko'zi" har birining ikkita tomoniga 4 ta, tomonlari 6 smli kvadratlar biriktirib, dazmollanadi. Tayyor bo'lgan uchta shaklni bir biriga biriktirib tikib olinib dazmollanadi. So'ng atrofiga qora, tasma shakldagi mato biriktiriladi. Shu usulda taxlab olingan quroq va mato

parchalarining barchasi bir-biriga tartib bilan, ketma-ket biriktirib tikib chiqiladi. Bu jarayonda parchalar soni buyum turiga bog'liq bo'ladi. Shuningdek tayyor buyum qismining chet qismlariga ham "qush ko'zi" tikilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Qisimlarning birikritilish jarayonida, har bir qismlar oxiriga qora matodan ishlov beriladi. Barcha qismlar biriktirilib tayyorlab olingach buyum chetiga qora rangli mag'iz tikib chiqiladi.


Qaymay quroq tayyorlash tikuvchidan aniqlik va e'tibor talab qiladi. Quroqning asos qismi uchun tomonlari 20 smli kvadrat shakldagi qotirma yopishtirilgan mato, kvadratchalar hosil qilish uchun buklangan holatda eni 3smli uzunliklari 9, 15, 19 smli qizil rang, 12, 16 smli sariq rangdagi matolardan tayyorlangan tasmalar kerak bo'ladi. Dastlab kvadrat markazidan tomoni 5 smli kvadratcha belgilab olamiz va shu kvadrat chetki qismlariga 9 smli qizil rang tasmalarni buklangan tomonini kvadrat markaziga qaratgan holda joylashtirib tikib olinadi. Undan so'ng, 12 smli sariq va 15 smli oq rangli tasmalar ham bir-birining ustiga kiyishtirilib tikib chiqiladi. Tayyor shakl davomidan yana sariq va oq rangli tasmalar asos kvadrat tomonlari bo'ylab joylashtirilib tikiladi. Tasmalar biriktirilish jarayonida chok ularning buklov bo'lmagan tomoni ustidan yurgiziladi. Har qaysi ketingi tasma o'zidan oldingi tasma tikilgan chokini berkitishi lozim. Tayyor quroq dazmollanib yanada go'zal ko'rinishga keladi.

Dastlab, Shahmot quroqda foydalanishimiz mumkin bo'lgan ranglar aniqlab olinadi va mato tanlanadi. So'ng har bir matodan 5-7 smli kvadratchalar tayyorlab olinadi. Barcha kvadratlar shakli bir xil bo'lishi lozim. Chunki ozgina xatolikka yo'l qo'yilishi ham tayyor quroqning egiroq chiqishiga olib kelishi mumkin. Tikish jarayonini boshlashdan oldin shahmot quroqda hosil qilinadigan shakllarning bittasini chizmasi chizib olinadi. Chizilgan chizmaga qarab turli rangli kvadratchalar dastlab ketma-ket tasma shaklda biriktiriladi. So'ng har bir tasma shakldagi qismlar bir-biriga tikib chiqiladi. Tayyor quroq dazmollanadi va chet qismlariga qora mag'iz yordamida ishlov beriladi.

Tasmali quroqning suratda ko'rsatilgan xilini tayyorlaymiz. Bajarish oson bo'lishi uchun bitta qismni ajratib olib, uni tayyorlash jarayoni bilan tanishamiz.

Buning uchun tomonlari 14 smli 1 ta, 5 smli bir qancha kvadrat shakldagi oq va asos uchun tomonlari 16 smli qora mato bo'laklari kerak bo'ladi. Katta oq kvadratni dastlab bo'yiga, so'ng eniga ikki buklab, har buklangan holatida markazidan 5 sm kvadrat tashqi tomoniga qarata kesiladi. Natijada kvadrat ichida "++" shaklida kesik hosil bo'ladi. Kichik kvadratchalarni diagonaliga ikki buklab, burchak qismidan boshlab o'raladi. Natijada tasma hosil bo'ladi. Markazidan kesilgan kvadratning kesik burchaklarini ichkariga qaratib dazmollaymiz va hosil qilingan tasmalarni ketma-ket joylashtirib qora rangdagi asos mato ustiga bostirma chok bilan tikib chiqiladi. Oq kvadratning chetgi qirqimlari ham asos matoga buklangan holda bostirib tikiladi. (36-rasm)


36-rasm. Tasmali quroq matolaring joylashuvi.



Tirnoq quroq tayyorlash jarayinida quroqdan tikilishi mo'ljallangan kiyim turiga ko'ra har xil rang va matolardan foydalanishimiz mumkin. Suratda tirnoq quroq yordamida hosil qilingan "pista guli" shaklini ko'rishimiz mumkin. Buning uchun bizga diametri 16 smli qotirma yopishtirilgan asos mato va tomonlari 3.5 smli kvadrat shakldagi mato bo'laklari

kerak bo'ladi. Kesib taxlab olingan kvadratchalarning har birini bir uchidan diagonal chizig'igacha o'rab kelaymiz. Shundan so'ng yarmi o'ralgan kvadratchalarni taqa shaklida bukamaymiz. Bukib olingan shakllarni asos aylananing chetki qismidan markazga tomon ketma-ket holatda tikib chiqiladi. O'rab buklangan shakllarning tikilish jarayonida etiborli bo'lish lozim. Chunki har bir "tirnoqcha" o'zidan oldingi "tirnoqcha" tikilgan chokini berkitib turishi kerak.


Shundagina quroq ko'rinishi to'la to'kis va chiroyli chiqadi. Shu tarzda bo'lakchalar aylana markazigacha tikib boriladi va markaziy qismga turli tosh yoki



munchoqlar yordamida bezak beriladi. (37-rasm)

37-rasm. Tirnoq quroq uchun mato parchalari va ularning joylashuvi.

Tish quroqni tayyorlashda kerakli rangdagi mato bo'laklari ajratiladi va tikilish jarayoni oson bo'lishi uchun dastlab, quroq kompozitsiyasidan qora tasma ichidagi qismlar tayyorlab olinadi. Bitta kvadrat shaklli quroq qismini taxlashimiz uchun xohlagan rangdagi matodan tomonlari 6 smli 1 ta kvadrat, uzunligi 12 sm va eni 3 smli 4 ta qizil, uzunligi 16 sm va eni 3 smli 4 ta qora tasmalar shuningdek tish shaklini hosil qilish uchun tomonlari 2.5 smli bir qancha 2 xil rangdagi kvadratchalar va markazdagi applikatsiyali "gul"cha uchun diametri 3 smli shakllar qirqib olinadi. Kichik kvadratchalarga tish shaklini berish uchun har bir bo'lakni diagonal chizig'i bo'ylab ikki marta buklab olamiz. Tayyor bo'lgan "tish"larni katta kvadrat qirqimlariga ketma-ket qo'yib universal mashina choki yordamida tikib chiqiladi. Kvadrat qirqimlariga "tish"lar o'rnatilgach 12 smli qizil tasmalar biriktiriladi va tasmalar chetki qismiga ham boshqa rangdagi "tishlar" ketma-ket tikiladi. Bo'lakning asosiy qismlari tikib bo'lingach qora tasma ham biriktiriladi. Tayyor bo'lgan bezakli kvadrat dazmollanadi va boshqa bo'laklar



bilan tartibli biriktiriladi. Shuningdek, yaratilayotgan buyum turiga qarab, bezak sifatida quroqning "qush ko'zi" turidan ham bezak sifatida foydalanishimiz mumkin. (38-rasm)


38-rasm. Tish quroq.

Turna quroq 1 ning tayyorlash jarayoni tikuvchidan o'ta aniqlik talab qiladi. Quroqdagi turnalar katta kichikligi yaratilayotgan buyum turiga bog'liq bo'ladi. Dastlab qora tasma ichidagi qismlar tayyorlab olinadi. Har bir qism uchun turli rang matodan 1 ta tomonlari 10 smli, 4ta 5 smli kvadratlar, tomonlari 5,5, 4,5 smli oq va qora to'g'ri burchakli uchburchaklar, chetki qismi uchun uzunligi 20 sm va eni 2 smli qora tasmalar kerak bo'ladi. Kesib olingan uchburchak shakldagi qirqimlardan dastlab bittadan "turna" lar hosil qilinadi. Buning uchun 1 ta qora uchburchak ikki yoniga 2 ta oq uchburchaklar tikib olinadi. Endi 4 ta shakl bir-

biriga biriktiriladi. Tayyorlab olingan 4 ta turnalar galasi 2 tasining ikki tomoniga 5 smli kvadrat shakldagi matolar biriktiriladi. Qolgan ikkitasi esa katta kvadratga birlashtiriladi va barcha qismlar dazmollab olinadi. Dazmollangan 3 ta qism bir-biri bilan biriktirilib chakka qismlariga qora tasmalar tikib chiqiladi va yana bir bora dazmollanadi. Tayyor bo'lgan qismlar boshqalari bilan biriktirilib yagona quroq kompozitsiyasiga aylanadi.

“Turna quroq 2” ning tayyorlash jarayoni “turna quroq” bilan deyarli bir xil. Farqli tomoni shundaki “turna quroq 2” da quroqning markaz qismi uchun mo'ljallangan tomonlari 10 smli bitta va tomonlari 5smli to'rtta katta va kichik shaklda qirqib olingan mato bo'laklari ustiga, huddi shu shaklda to'r matosidan kesib olingan kvadrat bo'lakchalar qo'yiladi va tikilish jarayonida har ikkala qavat birgalikda qo'shib biriktirib tikiladi.

Yulduzchali quroq kompozitsiyasini hosil qilishda, yulduzchalar uchun oq, tungi osmon ochun qora, tabiat uchun turfa gulli va rangli matolardan foydalanamiz. Bitta yulduzchali kvadrat hosil qilish uchun tomonlari 10 smli 1 ta, tomonlari 5smli 4 ta turfa gulli matolardan qirqib olingan kvadratlar, ikki tomoni 7 smli qora, 5 smli oq to'g'ri burchakli uchburchak shakldagi mato bo'laklari va uzunligi 22 sm, eni 3 smli 4 ta qora tasmalar kerak bo'ladi. Dastlab bitta qora va





39-rasm. Yulduzcha quroq shakllarini birlashtirish.

ikkita oq uchburchaklarni bir-biri bilan biriktirib olinadi. (39-rasm) Barcha qismlar biriktirilishi uchun 0,5 sm chok haqqi hisoblanadi. So'ng hosil bo'lgan to'g'ri to'rtburchak shakllarning ikkitasining ikki tomoniga kichik kvadratlar biriktiriladi. Qolgan ikkitasi esa katta kvadratga biriktiriladi. Tayyor bo'lgan qismlar bir biriga biriktirilib, chetki qismiga qora tasmalar tikiladi. Har bir yulduzchalar shu tarzda tayyorlab olinadi va boshqa bo'laklar bilan birlashib yaxlit kompozitsiyani hosil qiladi.

Olma quroqni tayyorlashda ramziy ma'nodagi “olma” shakli uchun qizil rangli, “olma”larni ajratib ko'rsatish uchun qora rangli, tabiatni ifodalash uchun

turli rangli mato bo'laklari kerak bo'ladi. Ushbu quroqning bir qismini tayyorlab olish uchun tanlangan matolardan tomonlari 4,5 sm bo'lgan qizil rangli, tomonlari 5 sm bo'lgan turli rangli kvadratchalar, ikki tomoni 4 sm bo'lgan 16 ta qora rangli to'g'ri burchakli uchburchaklar va uzunligi 17 sm, eni 2 smli qora tasma shakllari qirqib tayyorlab olinadi. Dastlab tomonlari 4,5 smli qizil kvadratchalar qirqimlarini uchburchak shakldagi mato bo'laklari bilan biriktirgan holda "olma" shaklini hosil



qilinadi. Tayyor bo'lgan shakllarni tomonlari 5 smli kvadratchalar bilan biriktiriladi. Buning uchun ikkita "olma" shaklni ikki qarama-qarshi tomonlariga,

yana ikkita shaklning esa o'rtasiga bitta turli rangli kvadratlar tikib chiqiladi. (40-rasm)

40-rasm. Olma quroq qismlarini birlashtirish.

Taxlab olingan uchta bo'lak tartib bilan bir-biriga biriktiriladi va tashqi qismiga qora rangli tasmalar tikib chiqiladi.

2.3. Quroq texnikasida tasviriy san'at oqimlarining qo'llanilishi.

Quroq – mohir chevarlar va noodatiy buyumlarni yaxshi ko'ruvchilar uchun bebaho topilma. Quroq tikish hunarmandchilikning qadimgi yo'nalishi. Qadimgi Misr, Eron, Afrika, Hindistonda va boshqa mamlakatlarda turfa rangli qiyqimlardan tikilgan buyumlar keng tarqalgan. Quroq tikishda qadimgi an'analarga asoslanibgina qolmay, ayrim dizayner chevarlar quroq texnikasida Art Deco, Art Nuvo, Vintaj va boshqa usullarni ham qo'shib tikishgan. Jiddiy hay-tek va Loft usullarida tikilgan yorqin namunalar ham interyer uchun mo'ljallanishi mumkin. Kitch va Pop art ranglari ham huddi quroq uchun yaratilgandek.

Art Deco uslubi. Art Deco XX asrning birinchi yarmida tasviriy va dekorativ san'atning ta'sirli yo'nalishi bo'lib, u birinchi marta 1920 yillarda Fransiyada paydo bo'lgan. 1925 yilda Parijda bo'lib o'tgan va rasmiy ravishda "Expo

Internationale des Art Decoratifs et Industriels Modernes” deb nomlangan xalqaro ko’rgazma “Art Deco” atamasini tug’dirdi. 1925 yil apreldan oktyabrgacha Parijda bo’lib o’tgan Xalqaro zamonaviy dekorativ va sanoat san’ati ko’rgazmasi uslubning o’ziga xosligini ta’kidlab, uni shunday nomlashdi. Bu Fransiya hukumati tomonidan rasmiy ravishda tashkil etilgan. Ko’rgazmada Buyuk Britaniya, Italiya, Ispaniya, Polsha, Chexoslovakiya, Belgiya, Yaponiya va yangi Sovet Ittifoqi singari 20 turli mamlakatlardan 15000 eksponentlar taqdim etildi. Yetti oy davom etgan ko’rgazmaga 6 million kishi tashrif buyurdi. Ko’rgazma qoidalariga ko’ra, barcha ishlar zamonaviy bo’lishi kerak edi. Ko’rgazmaning bosh maqsadi Afrika va Osiyodagi fransuz koloniyalari mahsulotlarini, jumladan, fil suyagi va ekzotik o’rmonlarni targ’ib qilish edi. 1930-1940 yillarda Art Deco xalqaro miqyosda ommalishdi. Art Deco uslubiga kubizm, konstruktivizm va futurizm kabi badiiy yo’nalishlar ham ta’sir ko’rsatdi. Fransuz tilida “dekorativ san’at” degan ma’noni anglatuvchi bu uslub – ikki dunyo urushlari orasida modernizmdan keyin Yevropa va Amerikada hukmronlik qilgan badiiy uslubning nomi. Bu uslub o’sha davrning “buyuk san’ati” ekspressionizm, abstraksionizm, konstruktivizm va boshqa uslublar bilan tajriba o’tkazayotgan paytda ro’y berdi. Art Deco buyumlari kundalik hayotimizda har kuni uchraydi. Urushdan keying 20-yillarda Yevropada sanoatlashtirish rivojlana boshladi. Zavodda ishlab chiqarilgan kiyimlar rangli, kesilgan va ko’p miqdorda ishlab chiqarilgan. Yorqin va noyob ko’rinishga ega bo’lgan ko’plab moda ayollariga zerikarli kiyimlar yoqmasdi. Art Deco Afrikadan Sharqqacha bo’lgan madaniyat, san’at va hunarmandchilik mavzusi va detallarini bir-biriga chambarchas bog’lab turuvchi uslubdir. Bu uslub zamonaviy moda an’anasiga asoslanmagan. Art Deco buyumlari kundalik hayot uchun mo’ljallangan. Ajralib turadigan xususiyatlari qat’iy qonuniylik, jasur geometrik shakllar, etnik geometrik naqshlar, yarim qirra bezak, bezaklarda yorqin ranglarning yo’qligi, qimmat, zamonaviy materiallar (fil suyagi, timsoh terisi, alyuminiy, kumush va b.) ning qo’llanilishidir. Geometrik naqshlar ehtiyotkorlik bilan nisbatlarga muvofiq qurilgan va o’ziga juda e’tibor talab qobiliyatga ega. Bu uslubdagi kiyimlar to’rtburchakka o’xshash tarzda ishlab chiqarildi. Art Deco

uslubi yumaloq shakllar va belgilarning yo'qligi bilan ajralib turadi. Liboslar tizzadan pastga tushib turishi lozim. Biroq zamonaviy ayollarning kiyimi bundan mustasno. Ushbu uslubdagi kiyimlarda asosan neytral ranglar ustunlik qiladi. Kulrang, jigarrang, bej soyalar XX asrning kiyimlari uchun odatiy hol edi, bugunga kelib esa kumush, oq, qora rangli kiyimlar ham bu uslubga tegishli hisoblanadi. Art Deco uslubi quroq san'atiga yo'g'irilgan, chunki bu uslubda mato bo'laklaridan juda ko'p qo'llaniladi. Kesilgan va rang-barang deko liboslarining soddaligiga qaramasdan, ular hashamatli ko'rinishi uchun mayda detallar bilan tikiladi. (41-rasm)



41-rasm. Art deco uslubida quroq san'ati.

Bundan tashqari bu uslub moda, zargarlik buyumlari, plakatlar, interyerlar, mebellarida hukmronlik qildi.

Pop art uslubi. Pop art (inglizcha pop art – ommabop san'at) zamonaviy tasviriy san'atda avangard yo'nalishi, 1950-yillarning 2-yarmida eng avvalo AQSH va Buyuk Britaniyada paydo bo'lgan, so'ngra Fransiya, Germaniya kabi G'arbiy Yevropa mamlakatlarida tarqalgan. Pop art uslubining asoschisi Andy Warhol, muvaffaqiyatli jurnal illyustratsiyachisi bo'lgan. U noyob va qimmatli uslubi uchun ko'plab sovrinlarni qo'lga kiritgan va vaqtning eng muvaffaqiyatli tijorat rassomlaridan biri bo'ldi. Ommaviy va ommabop madaniyatdan tasvirlarni o'z ichiga olgan badiiy harakatlar pop art deb ataladi. Abstrakt san'atining borliqdan, real hayotdan ajralib borishiga qarshi harakat ko'rinishida shakllangan. Pop art vakillari real borliqqa qaytish, keng ko'lamda ishlab chiqarilayotgan buyumlarning

estetik qiymatini ommaviy yo'llar vositasida yoritishni asosiy maqsad qilib oldi. Shahar hayotida keng ishlatiladigan buyumlarni huddi o'ziga o'xshatib ishlab, ularning o'zidan kompozitsiyalar tuzadi. Pop artda tanlangan buyumlar bir-biri bilan bog'liq bo'lmagan holda birlashtirilishi mumkin. Muhimi bir-biri bilan mos tushmaydigan buyumlarni birlashtirib tomoshabin fikri va tasavvurida zid hissiyotlarni uyg'otishdan iborat. XX asrning oxirida pop art san'atda yetakchi yo'nalishga aylandi. Ushbu uslub moda dizaynerlari va interyerlarning fikr-mulohazalarini sezilarli darajada oshirdi. Ular matolar va mebellarni bezash uchun turli xil bosimlardan foydalanadilar, butun dunyo pop-rassomlaridan ilhom olishadi, turli mukofotlarga nomzodlar uchun kino afishalarini takrorlashadi. Andy Warhol san'atini moda buyumlariga aylantirish uchun birinchi rassom edi. 60-yillarda u paxta liboslarida o'z ijodiy loyihalarini chop etishni boshladi, o'sha paytda yangi edi. Eng taniqli pop art liboslari Krepklining sho'rva qutilarida chop etiladigan Dress Souper. Yves Saint Laurent liboslar dizaynida san'at asarlarini yaratgan birinchi dizayner edi. Bunday liboslarning eng yorqin to'plami 2008-yilda Dolce&Gabbananing to'plami bo'ldi. Gianni Versace Marilyn Monroining portretini ishlagan, Christian Dior, Andy Warhol eskizlari uni ilhomlantirgan va kolleksiya chiqardi. Pop art uslubida, shuningdek, quroq texnikasi ham qo'llanadi: (42-rasm)



42-rasm. Pop art uslubida yaratilgan quroq kiyimlar.

Modern (frans. moderne — eng yangi, zamonaviy) XIX asr oxiri XX asr boshlarida Yevropa va Amerika san'atida mavjud bo'lgan badiiy uslub. Modern turli mamlakatlarda turlicha ataladi: Angliya, Fransiya, Belgiya, AQSH da “art-nuvo” (Art Nouveau), Germaniyada “yugendstil” (Jugendstil), Avstriyada

“setsission” (Sezession), Italiyada “liberti” (Liberty), Ispaniyada “modernism” (modernismo) va boshqa. Modern eklektizmdan qutulishga va “yangi uslub” (yagona sintetik san’at) yaratishga harakat qilishlar natijasida yuzaga kelgan; industrial jamiyat jadal rivojlanayotgan, ijtimoiy qarama-qarshiliklar o’tkirlashib borayotgan sharoitda shakllangan. Modern tarafdorlari klassik san’at shakllaridan holis bo’lishga intildilar. XIX asrning oxiriga kelib sanoatning jadal rivojlanishi modernning keng ko’lamda rivojlanishi va yoyilishiga ham sabab bo’ldi. Dastlab Angliyada, keyinchalik boshqa Yevropa mamlakatlariga keng tarqala boshladi. Modern tarafdorlari barcha san’at turlarining yagona majmui (ya’ni san’atlar sintezi) ni yaratish orqali go’zallik muhitini yaratishga harakat qildi. Amaliy bezak san’atida modern keng rivoj topdi, amaliy san’at ustalari buyumlarni ifodali shakllarda yaratishga harakat qilib, bezak va shakllarda egri chiziqlarga e’tiborni qaratdilar hamda yassi tekis shakllardan foydalandilar. O’zbekistonda modern uslubiga xos xususiyatlar XIX asr oxiri XX asr boshlarida me’morchilik va rassomchilik san’atida kuzatiladi. Odatda bu uslubning dekorlarida ochiq yashil, binafsha, jigarrang ko’rinishi mumkin. Ham vertikal, ham gorizontalar tarzda tashkil etilgan yumshoq va egri chiziqlar, sferik, silindrsimon va to’rtburchaklar siluetlar ko’pincha ishlatiladi. Modern uslubida ham quroq san’atidan keng foydalaniladi, bunga misol qilib quyidagilarni ko’rishimiz mumkin: (43-rasm)



43-rasm. Modern uslubida yaratilgan quroqli kiyimlar namunasi.

Vintaj uslubi. Vintaj atamasi 90-yillarning boshlarida, ayollar yoshi 20 yildan oshgan narsalarni kiyishni boshlagan paytdan boshlab kiyimlarga nisbatan qo’llanila boshlandi. Va ular buni yangi kiyim sotib olish uchun pul yetishmasligi

bilan emas, balki o'tmishdagi davrning o'ziga xosligini his qilish, o'tmishdagi odamga aylanish uchun emas, balki hozirgi zamonda yangi uslubni yaratishdi. Odamlarning vintajga bo'lgan qiziqishi dizaynerlarni 30 va 60-yillarda stilize qilingan to'plamlarni yaratishga undadi. Tarixiy ma'lumot "Amp" (vintage) atamasi vinochilikni anglatadi va qarigan sharob, eski sharob yoki eng yuqori sifatli sharob deb tushuniladi. Vaqt o'tishi bilan sharob yaxshilanadi, bu hamma narsaga ham tegishli. Vintage uslubida qanday kiyinish kerakligini va qaysi vaqt oralig'ini tanlashni tushunish uchun kostyum tarixiga murojaat qilinadi. Xususan, mashhur kino yulduzlari - Marlen Ditrix, Ketrin Xepbern, Miriam Xopkins, Norma Sheerer, Vera Xolodnaya va boshqalar modaga e'tibor berishadi. Tunik ko'ylaklar, chiziq darajasiga tushirilgan to'g'ridan-to'g'ri siluetning ko'ylaklari, ko'ylak-charleston amp modalaridandir. Vintaj kiyimlariga talab 70-yillarda paydo bo'lgan. Ushbu davrda, yengil sanoatning rivojlanishi bilan, hamma uchun bir xil bo'lgan kiyim va poyafzallarni ommaviy ravishda ishlab chiqarish boshlandi. Ammo modaning mustaqil yo'nalishi sifatida kiyimdagi vintage uslubi faqat 90-yillarda shakllangan. Ushbu yangi moda yo'nalishi bugungi kunda zamonaviy madaniyatning ajralmas qismiga aylandi. Unga Julia Roberts, Rene Zellweger, Chloë Sevigny (Kate Moss) va (Dita von Teis) singari mashhurlarning libos kiyishga bo'lgan qiziqishi ortib bormoqda. Vintage kiyimlarining tan olingan moda fenomeni sifatida so'nggi tasdiqlanishi 2010 yil dekabr oyida Vashingtonda o'tkazilgan Rojdestvo kontsertida Amerika Qo'shma Shtatlarining birinchi xonimi Mishel Obama 1950 yillarning kechki libosida paydo bo'lishi edi. Vintaj uslubi ham quroq san'ati bilan chambarchas bog'liqdir. Mato qoldiqlarining bir biriga birlashtirilishi orqali turli noyon asarlar paydo bo'ldi. (44-rasm)



44-rasm. Vintaj uslubida yaratilgan quroq kiyim namunalari.

Loft uslubi. Loft – (“Loft” inglizchadan tarjima qilinganda - attic, chinini, dovecote, keng doira, galireya) - bugungi kunda mashhurligi eng yuqori bo’lgan uslublardan biri. XX asrning boshlarida paydo bo’ldi va Amerika Qo’shma Shtatlaridan eng katta shahri Nyu-Yorkda paydo bo’ldi. Lyuks tarzidagi dastlabki studiya afsonaviy Manxettenda paydo bo’ldi, ular lofts va ishchi binolarni studiyaga aylantirdi. Va o’tgan asrning 50-yillarida u Qo’shma Shtatlardagi eng badavlat kishilar orasida mashhur moda va talabga aylandi. Va 20 yildan keyin butun dunyoda shuhrat qozondi. Loft uslubi eng ko’p London, Berlin va Tokioning



moda sohalarida uchraydi. Loft uslubida ham quroq san’ati namularini uchratishimiz mumkin. Kiyimlardagi harflar mato bo’laklarini birlashtirib tikish orqali loft uslubi kompozitsiyasi yaratiladi. (45-rasm)

45-rasm. Loft uslubidagi kiyim.

Hay-tek uslubi. Hay-tek (lotincha high technology, high tech, hi-tech) – modernizmdan keyin yaratilgan 1980 yillar dizayni va arxitekturası uslubi. Bu uslub xarakteri texnika, metal, plastikaga asoslangan. Hay-tek uslubi asoschilari Norman Foster, Richard Rodgers, Nikolas Grimshou, Djeıms Stirling, Renso Pianolardir. Hay tek uslubida eng yuqori texnologiyalardan foydalaniladi. Bu uslub detallari konstruktivizm va kubizm elementlariga asoslanadi. Bu uslubda yorqin ranglardan keng foydalaniladi. Hattoki, eng yuqori texnologiyalarga asoslangan uslub ham quroq san’atidan foydalanadi. Bu san’at uslubga o’zgacha uyg’unlik kasb etadi. Buni quyida ko’rishimiz mumkin: (46-rasm)



46-rasm. Hay-tek uslubida yaratilgan quroq kiyimlar.

II bob bo'yicha xulosa

Qadimdan paydo bo'lgan Quroq san'ati turli mamlakatlar orasida, hatto tasviriy san'at uslublari orasida o'zining turli naqsh kompozitsiyalarining paydo bo'lishiga olib keldi. Avvallari quroq tikish tejamkorlik maqsadida kiyimlarni tashlamasdan kerakli buyumlar tikishgan bo'lsa, hozirgi kunda bu san'at bilan shug'ullanish mashhur hunarlardan biriga aylanib bormoqda. So'nggi paytlarda jahonning eng mashhur dizaynerlari faoliyatini kuzatar ekanmiz, ayollar liboslarida quroq uslubidan foydalanilgan kompozitsiyalarni uchratamiz. Bunga sabab, tanlangan quroq elementlari nafaqat kiyimni bezaydi, balki iste'molchida boshqa kiyimlarda uchramaydigan ma'lum ma'nodagi serjilolik, vazminlik, sokinlik yoki yuqori kayfiyat bag'ishlaydi. Zamonaviy moda olamida quroq uslubida tikilgan rang-barang ko'ylaklar, kofta-yubkalar, hatto sovuq mavsumda kiyiladigan shubalar ham inson xusniga o'zgacha ko'rk bag'ishlaydi. Quroq tikish usuli yordamida har qanday kiyimni tikish mumkin. Quroq turlarida va texnikasini qo'llashda asosiy talab, me'yorni bilishdadir. Xususan, liboslar yaratilish jarayoni asosida libos qulay, go'zal, estetik talabga javob beradigan hamda arzon bo'lishi lozim. Mana shu talabga javob beraoladigan mahsulotlar bugungi kun bozorida muvaffaqiyat qozona oladi. Kiyimlarda quroq elementlarining qo'llanilishi, ishlab chiqaruvchilarning iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilanishiga imkon yaratadi. Korxonalar va brendlar oldida iste'molchilarni zamonaviy moda yo'nalishidagi sifatli, bejirim, zamonaviylik bilan uyg'unlashgan fasondagi assortimentlarini tayyorlash dolzarb vazifalardan hisoblansa, tikuvchilik buyumlarini tayyorlash jarayonida andazalarni joylashtirishda ular orasidagi chiqindilar miqdorini kamaytirish doimiy muammolardan biri hisoblanadi. Chunki, kiyimga gazlama sarfida chiqindilar miqdorining to'qimachilik gazlamalarida 0,8% va trikotaj matosida 1,4% ni tashkil etishi, korxonalarning iqtisodiy ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu jumladan, quroq san'atidan tasviriy san'at oqimlariga yo'g'irilgan moda uslublari qo'llanilishi ham yuqoridagi fikrlarning namunasi bo'la oladi va moda olamida bu san'at asosida yangi uslublarning paydo bo'lganini ham ko'rishimiz mumkin.

III bob. “Gullagan vodiy” mavzusida yaratilgan dekorativ kompozitsiya.

3.1. Dekorativ kompozitsiya haqida tushuncha. Kompozitsiya uchun mozaik tasvir yaratish.

Kompozitsiya (lotincha “composition” – tuzilish, birlashish, bog’lanish) – badiiy asar(mato qismlari va naqshlari)ning mazmunan, xarakteri va maqsadi jihatdan bog’langan qismlarining joylashishi. Kompozitsiya asosini mantiqiylik, shakl aniqligi va ularning o’zaro uyg’unligi tashkil qiladi. Ijodkor yaratgan har bir asarning asosida kompozitsiya yotadi, unda borliqni idrok etish jarayonida hosil bo’ladigan fikr, his-tuyg’ular o’z aksini topadi.

Kompozitsiyaning asosan 4 ta qonuni mavjud: yaxlitlik qonuni, tipiklashtirish qonuni, qarama-qarshi munosabatlar (kontrast) qonuni, kompozitsiyaning barcha vositalarining fikriy mazmuniga bog’liqligi qonuni.

Kompozitsiyada yaxlitlik yordamida mavzu mohiyati ochib beriladi. Asarning muhim bo’lgan mazmuniga tomoshabin e’tibori jalb etiladi. Kompozitsiyadagi yaxlitlikni ta’minlashning turli yo’llari va vositalari mavjud. Ular asar lo’ndaligi, ortiqcha narsalarning cheklanganligi, ranglarning va tuslarning o’zaro muvofiqligi, uyg’unligi orqali yuzaga chiqadi. Mavzu mohiyatidan kelib chiqqan holda faqat zarur narsalargina tanlab olib tasvir etiladi. Ikkinchi darajali narsalar asarning asosiy unsurlariga bo’ysundiriladi. Shu sababdan ham yaxlitlikka alohida e’tibor berilishi kerak. Kompozitsiyadagi barcha unsurlar g’oyaviy jihatdan ham mazmun mohiyatiga moslanib aks ettiriladi. Asosiy narsa kompozitsiya markazining qay darajada mos va muvofiq topilganligiga qarab alohida ajralib turishi ma’lum. Shu sababdan kompozitsiya markazini ham tasvir orqali, ham rang-tuslar orqali yuzaga chiqarish muhimdir.

Uyg’unlik (*garmoniya* yunoncha – harmonia) – san’at asarining ayrim bo’linmalarini bir biriga mosligi, muntazamligi, bog’lanishi, turli-tumanlikda spesifik birligidir. Quroq tikishda matolarning rangini bir-biriga moslash buyumning ko’rkini qay darajada bo’lishini belgilab beradi. (47-rasm)



47-rasm. Kompozitsiyada garmoniya uyg'unligi.

O'zbek xalqining madaniyatida o'ziga xos xususiyatlarini hech narsa mato, so'zana, quroq va gilamlaridagi bezaklarda aks ettirilgan darajada xalqning dunyo qarashi, kishilarning ko'tarinki kayfiyati, mahalliy tabiatining butun go'zalligini ochiq, yorqin, to'laqonli ranglarda ifodalab bera olmaydi. Ularda osmon jismlarining qizil rangli uchqunlari sochqini yoki olovrangli aylanalari, yashil rangdagi bog'lar, quyoshning o'ynoqi oltin ranglari moviy osmon bilan uyg'unlashib ketadi. Shu boisdan XIX asrdayoq nemis tadqiqotchisi va sayyohi fon Shvars: "Markaziy Osiyo aholisi chiroyli ranglar va qimmatbaho matolar tanlashda osmonning ko'k rangiga o'rganib qolgan barcha Yevropa rassomlaridan ustun turadi"- deb aytishi bejizga emas.⁹ O'zbek quroqchilik san'ati namunalarida qadimdan asosan 15 xilgacha asosiy tuslardan foydalanishgan va bu bilan usta chevarlar rang jarangining turli-tumanligi, uyg'unligi, to'g'ri tanlangan ranglarning alohida ta'sirchanligiga erishganlar. Qadimdan ranglarning an'anaviy bilimlar tizimiga kiritilishi natijasida ulardan har birining o'ziga xos xususiyati alohida belgilangan.

Qizil rang kishilar ongida qon (hayot yoki o'lim), olov (uy o'chog'i), himoya xususiyatlarini uyg'otgan. Qizil rangning hayotbaxshlik xususiyati yana shundaki, qadimgilarning e'tiqodiga ko'ra, u yomon ruhlarni qaytargan, quyosh quvvati va ilqligi ramzi sanalgan. Qizil rang asrash, quvvat berish, ezgulik ulashish manbai sifatida qaralgani bois uning turli rang tovlanishlaridan foydalaniladi.

⁹ O'zbekiston Badiiy Akademiyasi San'at /Art/Искусство jurnali. № 3-4.2008. 22-bet.

Oq rang ko'pgina xalqlarda niyatning xolisligi, e'tiqod, baxt-saodat, hamjihatlik belgisi bo'lgan. O'rta Osiyo xalqlarida hozirda ham saqlanib kelayotgan keng tarqalgan ezgu niyatlar shu rang bilan bog'liq. Xususan, "oq yo'l" tilagi ana shulardan biri.

Hozirgi paytda motam ramzi bo'lgan qora rang yer, tuproq rangini anglagani uchun hosildorlik ma'nosini bergan. Xalq ongida uning salbiy ma'nosi o'zgarmasdan saqlanib qoldi. Xalq san'atida keng tarqalgan oq va qora ranglarning o'zaro yonma-yon ishlatilishi ezgulik va yovuzlikning mavjudligi sifatida qaralishi mumkin.

Qizil, qora va oq ranglar qadimdan o'zaro muvofiqlikda ishlatilib kelingan ranglardir. Ingliz etnografi, sotsiologi va folklorshunos V.Terner fikriga ko'ra, oq-qizil-qora ranglari uchligi ulug' ma'no kasb etadi, ular bilan ishlash amaliyoti butun insoniyat uchun umumiy hisoblanadi. Qadimgi quroqlar aynan shu ranglar uyg'unligida yaratilgan. Ular ana shunday ranglari va geometrik shakllarining muvofiqligi hamda emotsional ta'siri bilan e'tibirni tortadi. Qizil rang ko'proq ishlatilgan qora-oq ranglar uyg'unligida yaratilgan quroqlarda voqelikka falsafiy munosabat bildirganini anglash mumkin. Ya'ni, ulardan hayotda ezgulik va yovuzlik doimo yonma-yon, ammo biz hamisha quyoshning himoyasidamiz, degan ma'no anglashiladi. To'quvchi ustalar gazlamalarni ham huddi shu ranglar uyg'unligida yaratadilar.

Kontrastlilik qonuni, ya'ni tasvir bo'laklarining o'zaro va fonga nisbatan qarama-qarshi mohiyat kasb etib, ko'rinishi orqali yuzaga chiqadigan «vizual» bo'rtiqlik, ta'sirchanlik ham kompozitsiyada asqotadigan eng zarur qonuniyatlar safida turadi. U gajmdorlik va yassilik, tarx va siluet, yorug' va qorong'u, iliq va sovuq, rangdor va tussiz o'lchamlar kontrasti orqali namoyon bo'ladi. Kompozitsiya mazmun mohiyatini ochib berishda xizmat qiladi. Masalan, hajmdor narsa tasvirini yassi sathli tasvir ko'rinishi orqali, ya'ni yonma-yon qo'yib shakl bo'rtiqligini yanada orttirib ko'rsatish imkoniyati bor. O'lchamlardagi kontrastlilik orqali katta narsa va kichik o'lchamdagi narsa orasidagi farqlar orqali masshtab ko'lamiga erishish mumkin. Rang-tuslar orasidagi kontrastlilik ham yuqoridagi

misollar kabi holatlarda yaxshi namoyon bo'ladi va kompozitsiya mazmun mohiyatini ochib berishning zo'r vositasi bo'ladi. Sovuq va issiq ranglar farqi orqali ham tuyg'ularga ta'sir etuvchi holatlarni yuzaga chiqarish va kompozitsiya g'oyasini yanada bo'rttirishga erishish imkoniyati bor. Kompozitsiyadagi ranglar kontrastida yana shular ham namoyon bo'ladiki, unda sovuq rangli fonda issiq, issiq rangli fonda sovuq rangli narsalar bo'rtib ko'rinadi va shu asosida ta'sirchanlik kasb etadi. Yuqoridagi ijodiy ishimda sovuq rangli fonda issiq rangli gullar bo'rtib ko'rinadi.

Badiiy ijodning mohiyatiga nazar solar ekanmiz, uning muvaffaqiyatiga ko'p narsa kerakligini bilib olamiz. Bular: badiiy ijod kuchlari, ya'ni mehnat, iroda, ilhomlanish. Ijodning samara beruvchi kuchlari, ya'ni fikrlash, sezgi (intuitsiya), tasavvur va boshqalardir. Badiiy ijod komponentlariga esa bilim, dunyoqarash, badiiy uslub, badiiy nafosat didi va mahorat kabilar mansub ekanligini tasviriy va amaliy san'at, xususan kompozitsiya masalasida muhim-nomuhim narsalar bo'lmaydi, ularning barchasi zarur hal etiladigan vazifalardir. Qunt va chidam bilan ish olib borilsa barcha narsaga, yuksak natijalarga erishish mumkin.

Kompozitsiyadagi tipiklashtirish qonuni 3 ta asosiy belgilar bilan xarakterlanadi. Birinchi belgi kompozitsiyadagi berilayotgan voqea va xarakterlarning tipikligi. Bu qonuning asosida xarakter orqali tipikligi berilgan badiiy asar yaratishdadir. Tipiklashtirish qonuning ikkinchi belgisi san'at asarida harakatni berish, vaqtni ko'rsatib bera olishdir. Uchunchi belgisi esa syujetli asarda harakatni his qilishdadir.

Kompozitsiyaning yana bir asosiy qonunlaridan biri bu qarama-qarshi munosabatlar qonunidir. Qarama-qarshi munosabatlar kompozitsiyaning ta'sirchan kuchini ko'rsatib beradi. Inson o'z atrofidagi predmetlarni eng avvalo ularning siluetiga qarab ajrata oladi. Kompozitsiyada uzunlik kontrastlari (katta va kichik) va syujet tuzilishidagi kontrastlar (holat, psixologik) katta rol o'ynaydi.

Keng ma'noda kompozitsiya ostida shaklning badiiy g'oyaviy tartibi, tuzilishni, g'oyaviy-ijodiy fikrni tushuniladi – bu turlicha qismlarning bog'liqligi,

ularni bir butun g'oyaga birlashtirish, ijodiy fikr, bularning barchasi birgalikda badiiy shaklni aniqlashda hosil bo'ladi.

Dekorativ kompozitsiya – (lotincha decoro-bezayman) bu hissiy va hissiy idrokni kuchaytiradigan stilizatsiya va abstraksiya elementlarini o'z ichiga olgan yuqori darajadagi ifodalilik va dekorativlikka ega kompozitsiya. Ya'ni, dekorativ kompozitsiya buyumlarni, interyer, kiyim elementlarini bezashni maqsad qilib qo'yadi.

Har qanday badiiy asarning kompozitsion to'g'ri tashkil etishning asosiy tizimli xususiyatlari va tamoyillari:

- shaklning va mazmunning uyg'unligi (hissiyotli-obrazli fikr elementlar va tanlangan vositalarning muvofiqligi, mazmun rejasi va obrazning formal ifoda etish rejasining birligi);

- bir butunlik (ajratilmaslik, qismlarni uzviy bog'lash: kompozitsiyaning hech bir elementini o'zgartirish mumkin emas, uyg'unlikni to'liq buzmasdan olib tashlash yoki qo'shimcha qilish);

- tartibga solish (kompozitsiya elementlarning joylashish ketma-ketligi ularni bir butun qabul qilish qonuniyatlari bilan mosligi);

- mutanosiblik (shaklning va tasvir elementi hajmining tegishli ravishda bir- biriga uyg'unligi);

- strukturalilik (konstruktiv aniqlik, ratsionallilik, kompozitsion qurishning tektonikligi);

- egiluvchanlik, o'zgarish (kompozitsiyani qabul qilish va uning xarakteriga qaramasdan yangi elementlar kombinatsiyalarni paydo bo'lishi mumkinligi);

- takrorlash (bir butunlikni qismlarda takrorlanishi, kompozitsion elementlarni qurishda ayrim tamoyilni o'zgartirish) va boshqalar.

Quroqchilikda kompozitsiya tuzishda ritm muhim ahamiyat kasb etadi. *Ritm* – (yunoncha rheo - oqaman) bu naqsh elementini bir tartibda takrorlanishidir. Ritm naqsh kompozitsiyasini motivlar va shu motiv elementlari, ularni yuza, burilish, qiyaliklari, naqsh dog'lari, ular orasidagi masofalarni ritmik takrorlanishi, naqshni ahamiyatli xarakteristikasi hisoblanadi. Kompozitsion yuzada motiv va motiv

elementlari o'zaro joylashishi ritmik uyushma deyiladi. Kichik shakldan kattaga, yaqindan uzoqqa, oddiydan murakkabga, ochdan to'qqa asta sekin ravon yoki keskin, sakrovchi harakatli o'tishi ritmik harakat deyiladi. (48-rasm)



48-rasm. Quroq texnikasida ritmik harakat.

Geometrik shakllarni qo'llash g'oyasi an'anaviy-milliy hunarmandchilik orqali yuzaga kelgan. Ehtimol, quroq naqshlarining paydo bo'lishiga qadimgi mozaika san'ati turtki bo'lgandir. Quroq tikish san'atini "quroq mozaikasi" deb atalishi ham bejiz emas.

Quroq san'atida ham tabiatdagi o'simliklar va gullardan, hayvonlardan ham foydalaniladi. Faqatgina gul yoki o'simliklar matolar yordamida amalga oshiriladi, ya'ni stilizatsiya qilinadi. *Stilizatsiya* – bu tabiiy manbani tashqi tuzilishini, hislarini, badiiy dekorativ qatya ishlashdir. Boshqacha qilib aytganda, stilizatsiya o'simliklar, hayvonot dunyosi, parrandalarning tabiiy ko'rinishini ancha soddalashtirib, eng ixcham ko'rinishlarga keltirish demakdir. Atrof muhit, ya'ni stilizatsiyalash yo'llarini bilish, undan samarali foydalana olishni puxta o'zlashtirishni sanoat dizayni, reklama dizayni, firma belgilarini yaratishda va tasviriy-amaliy san'atning barcha turlarida juda qo'l keladi. (49-rasm)



49-rasm. Quroq texnikasida stilizatsiya.

Quroq kompozitsiyasi uchun kerakli shakllar. Nuqta barcha shakllarni keltirib chiqaradi. Agar nuqta harakat qilsa, o'zining ketidan chiziq ko'rinishida iz qoldiradi – bir o'lchovli element. Agarda chiziqlar aralashtirilsa, ular yuzani hosil qiladi – ikki o'lchamli element. Yuza, perpendikulyar harakat qilib yoki o'z yuzasiga nisbatan qiyalik bilan harakat qilsa, uch o'lchamli hajmni yuzaga keltiradi. Shakllar to'g'ri va noto'g'ri bo'lishi mumkin. To'g'ri shakllar tartibga va

aniq ketma-ketlik bilan bir-biriga o'zaro nisbati mos kelgan qismi sanaladi. Ular qoidaga ko'ra, bir va bir necha o'qlarda simmetrik va tengdir. Shakllar miqyosini o'lchash vaqtida yoki qo'shimchalarda yoki qismlarni chiqarib tashlanganda ham ular to'g'ri bo'lib qoladi. Biz bu shakllarni qabul qilayotganimizda, faraziy tajribada dastlabki yaxlitlikni tasavvur qilsa bo'ladi. Noto'g'ri shakllar, qaysiki qismlar xarakteri bo'yicha turlicha bo'lgan, bir biri bilan o'zaro bog'lanmagan, hech qanday ketma-ketmalikka ega bo'lmagan shakllar hisoblanadi. Ular butunlikda asimmetrik, to'g'rilikka ko'ra, anchagina dinamik. Ayrim hollarda ular o'zida to'g'ri shakllarni, ba'zan noto'g'ri detallarni chiqarib tashlagan yoki to'g'ri shakllarning noto'g'ri kompozitsiyasini ifodalaydi.

Aylana – bu tabiiy aniq ko'rinish markaziy nuqtasiga ega bo'lgan, ixcham, yopiq shakl. U birlikni, shaklning iqtisod qilish va uzluksizlikni ifoda etadi. Qoidaga ko'ra, aylanali shakl, baqarorlikni bildiradi, boshqa chiziqli va tekislikka oid shakllarga uyg'unlikda harakatda assotsiyanishi mumkin. Aylana boshi va oxiriga ega emas, uning barcha nuqtalari markazdan birday uzoqlashtirilgan. Tomoshabin aylanani e'tiborli qabul qilish holatida emas, uning e'tibori markazda, ya'ni nuqtada to'xtaydi. Ana shunday sababga ko'ra asar, aylana shaklida ifoda etilgan, qandaydir osoyishtalik, tutashganlik, vazminlik bilan qabul qilinadi.

Oval (yassi shakl) egri tutashgan chiziqdan paydo bo'lgan. Bu shakl aylanani eslatadi, biroq uni aylana deb qabul qilishda farqlanadi. Oval turli kattalikdagi bir necha aylana yoyidan paydo bo'lgan. Ravon katta aylana yoyini qabul qilishda dinamikani sezish, harakatlar intensivligi hamrox bo'ladi. Kichik radiusli aylana yoyiga e'tiborni qaratish idrok qilish xarakterini o'zgartiradi. Tez harakatlanishni his qilish, harakatlanishning sekinlashishini his qilish bilan va nihoyat statik bilan almashinadi. Oval, xuddi shuningdek, bir qadar tinib-tinchimaslik, nafas oluvchi, bir xil turmaydigan, yaxlitlikda – dinamik sifatida qabul qilinadi. Egriligi o'ynoqlikni, energiyani va biologik o'sishni ifoda etadi. Boshqa egri chiziqli shakllar fragmentlar yoki dumaloq shakllarning kombinatsiyasi sifatida ko'rib chiqish mumkin. To'g'ri va noto'g'ri egri chiziqli

tashqi ko'rinishlar odatga ko'ra shaklning yumshoqligini, harakatning ravonligini yoki tabiiy biologik o'sishni ifoda etadi.

Uchburchak barqarorlikni o'zida ifoda etadi. Uchburchakli shakllar va tuzilishlar ko'pincha konstruktiv sistemada foydalanida, ularni shuningdek, egiltirmasdan yoki bir tomonini sindirmasdan turib, konfiguratsiyani o'zgartishi mumkin emas. Uchburchak – keskin, o'tkir qabul qilinadigan muhim shakldir. U gorizontalgacha nisbatan joylashishidan qat'iy nazar yoki imkon boricha dinamik, g'ayratlidir (cho'qqida turadi). Uchburchakli shakl barqarordir, uning qandaydir chidamli, agar u tomonlarning bir tomonida tursa statik qabul qilinadi. Uchburchakli shakl turg'un bo'lmagan muvozanat holatida bo'lishi mumkin va harakatni ifodalaydi, qaysidir tomonning bir tomoniga yig'ilmoqqa intiladi. Uchburchakli shaklning dinamik xususiyati, yana shuningdek burchaklar tomonlarining o'zaro nisbatiga ham bog'liqdir. Bu burchaklarni xuddi shuningdek alamashtirish mumkin, uchuburchakli shakl kvadrat shakliga yoki to'g'ri burchakli shaklga tenglashtirilganda bir qadar egiluvchandir. Uchburchaklar ratsional kombinatsiyalanishi mumkin, shu bilan birga har qanaqa kvadratli, to'g'riburchakli va boshqa poligonli shakllarning miqdorini olish mumkin.

Kvadrat qandaydir haqiqiylikni va ratsionallikni ifoda etadi. To'rt tomonining tengligi va to'rtta to'g'ri burchaklari unga to'g'rilikni va vizual aniqlikni beradi. U qandaydir mukammal, to'g'ri, aniq, turg'un, osoyishta, tantanali qabul qilinadi. Kvadratli shaklda ustunlik qiladigan yo'nalish yo'q. Kvadrat, agar tomonlarning bir tomonida tursa, barqaror shakl. Agar u burchaklarning birini joylashtirsa barqaror emaslikka ega bo'ladi. Boshqa barcha to'g'riburchaklilarni kvadratlar variantiga tomonlarning uzunligini yoki kenligini qo'shish sifatida ko'rish mumkin.

To'g'riburchak – kvadrat bilan solishtirganda anchagina dinamik shakldir. Proporsiyasidan (mutanosiblik) qat'iy nazar va gorizontali bo'yicha joylashishiga nisbatan to'g'riburchak yuqoriga intiluvchanlik (gorizontali bo'yicha turadi) yoki osoyishtalik va statik hissini beradi (gorizontali bo'yicha yotadi). To'g'ri burchakli shaklning aniqligi va turg'unligi vizual monotonlikka olib keladi. Unga, uning

hajmini, proporsiyasini, rangini, teksturasini o'zgartirib turli tuman o'zgartirish kiritish mumkin. Shaklning xususiyatini bir-biridan izolyatsiya qilinmagan. Shakl ularning barchasi va birligi bilan xarakterlanadi.

Shakllarni pozitiv tashqi ko'rinishga ega, fonlarni esa negativ yoki neytral elementlar sifatida, tashqi ko'rinishi aniq farqlanmaydigan pozitiv elementlar deyiladi. Huddi shuningdek shakllarni fonda yoki ular oldida ajratiladigan elementlar deb ataladi. Keskin farq qilishdan tashqari, shakllarni fonda uning tashqi ko'rinishi va o'lchovida ajratiladi. Agar shakl fon bilan birgalikda aniq chegaraga ega bo'lsa, u bir muncha farqalanadigan va taniy olish mumkin. Shakl va fonlar orasidagi noaniq o'zaro munosabat, kompozitsiya elementini goh shakl sifatida, goh fon sifatida galma-gal idrok qilishga olib keladi. Shakllarni yaxshisi, agar ularni katta miqdordagi fazoviylik yoki fon o'ragan bo'lsa ajratish osondir. Agar shakllar o'lchami ushbu fon uchun juda ham katta bo'lsa, u o'zining farqlanadigan tashqi ko'rinishi bilan rivojlantirishi mumkin va shaklning tashqi ko'rinishi bilan o'zaro ta'siriga kirishi mumkin.

3.2. Kompozitsiya uchun materiallar va bezaklarni tayyorlash.

Quroq texnikasi ustasi ham rang tanlashni, ham tikuvchilik mahoratiga ega bo'lishi lozim. Yaxshi natijaga erishish uchun har tomonlama mukammal – har bir millimetri hisobi to'g'ri va aniq bo'lishi talab qilinadi, chunki qiyqimlar noto'g'ri joylashsa mato bezagi qiyshiq bo'lib qoladi. Bundan tashqari, chevar qo'l va mashina choklarini mukammal bilishi lozim, ya'ni qovushni bilishi kerak. Sababi ikki mato orasiga solingan vatin, paxta va boshqa narsalarni qovush zarur bo'ladi.

Quroq tikish san'ati qadimdan ko'pchilik xalqqa ma'lum. Chevarlar turli mato qoldiqlaridan turli-tuman kompozitsiya – mozaika naqshlarini yaratadilar. Shuning uchun ijodning bu turi quroq mozaikasi deb ham yuritiladi. Bunday kompozitsiyalarning avrasida choklar bilinmaydi. Quroqlarni tikishda maxsus tog'nog'ich-ignalardan foydalanish qo'l ishlarini osonlashtiradi. Shuningdek, quroq tikishda asosan turli nomerli ignalar, qaychilar, arra shaklida kesuvchi

maxsus keskichlar, chizg'ichlar, maxsus kartonli shablonlar, dazmol, millimetrli va kalka qog'oz, sirkul, yumshoq qalamdan foydalaniladi.

Ranglar aylanasi. Quroq tikish texnikasining eng qiyin nuqtasi – bu ishlab chiqarilayotgan buyum qismlarining rangi bir-biriga mos kelishida. Bu muammoni yechish uchun ayrim chevarlar ranglar aylanasiidan foydalanishadi. Hozirgi vaqtda kompyuterda maxsuslashtirilgan programmalar mavjud, foydalanuvchilar tayyorlanayotgan mahsulotning gammasini taxminan yarata oladilar.

Bo'r. Bo'r – bo'sh sementlangan cho'kindi tog' jinsi. Bo'r iliq dengiz havzalarining 30-500 metr va undan chuqurroq joylarida kokkolitoforid (70-90 %) va foraminifera (20% gacha) mikroorganizmlari qoldiqlaridan hosil bo'lgan. Bo'rga sarg'ish yoki kulrang tus beriladi. Bo'rda kremniy, pirit va fosforit g'uddalari uchraydi. Kamdan kam bo'rlarda mollyuskalar chig'anoqlari, mshanka, dengiz tipratikanlar, marjon va boshqalar skeleti uchraydi. Bo'r Ukraina, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'istonda ko'p uchraydi. Kompozitsiya yaratish uchun tekis yuzaga ma'toni yozamiz (old tomoni pastda bo'ladi). Mato ustiga shablon qo'yib, uni bo'r bilan chizib olamiz.¹⁰ To'q rangli mato bo'lsa, sovun bilan, och rangli mato bo'lsa, qalam bilan ham belgilash mumkin. So'ng shablonni siljitib, ikkinchi detalni chizib olamiz. Hamma detallarni bichamiz.

Iplar. Ip – tolalar (paxta, ipak, jun, zig'ir va b.) dan ingichka qilib yigirilgan yoki yigirilmagan to'quvchilik va tikuvchilik materiali, pishiq va qayishqoq mahsulot. Gazlamalar, trikotaj to'qish, kiyim-kechak tikish va boshqa ko'p maqsadlarda ishlatiladi. Ipolish uchun ishlatiladigan tola turiga qarab ip tabiiy, sun'iy, mineral, kimyoviy xillarga bo'linadi. Iplar dastlabki, birlamchi va ikkilamchi turlarga ham ajratiladi. Dastlabki ip bo'lama yo'nalishda qismlarga bo'linmaydi. Bularga elementar va yakka iplar kiradi. Birlamchi ip to'qimachilik tolalaridan tayyorlanadigan kalava ip, bir necha elementar iplardan eshib olinadigan kompleks iplardan iborat. Ikkilamchi iplar bir necha birlamchi ipni eshib olinadi. Iplar bir xil toladan hamda har xil toladan (tabiiy tola bilan boshqacha tabiiy tola, sun'iy tola bilan tabiiy tolani aralashtirib) tayyorlanishi

¹⁰ O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. T.: Davlat ilmiy nashriyoti. 2-jild. 2005y. 345-bet.

mumkin. Iplarni pishitish yoki eshish darajasi ularning ishlatilishiga bog'liq. Bejamdor iplar olish texnologiyasi ham bor. Ular, asosan, matolar va trikotaj mahsulotlarining ustki qismini bezashda ishlatiladi. Kaprondan olingan yakka ip paypoy to'qish sanoatida ishlatiladi. To'qimachilik tolalaridan tashqari, qog'oz, kauchuk va boshqalardan ip olinadi. Yuqorida aytilgan iplarning hammasi to'qimachilik sanoatining xom-ashyosi hisoblanadi. Bulardan tashqari, uy-ro'zg'orda va xalq xo'jaligida ishlatiladigan iplar ham bor. Bularga turli tikish (g'altak iplar), chatish, kashtachilik, attorlik va jarrohlikda ishlatiladigan iplar kiradi.¹¹ Gazlama turiga, qalinligiga qarab, quroq tikish uchun iplar tanlanadi. Shifon, kapron va shunga o'xshash gazlama qoldiqlaridan quroq tikishda № 60 ip



yoki ipak ipdan foydalaniladi. Ip, shtapel va viskoza tolali gazlama qoldiqaridan tikiladigan quroqlarga № 50, jun gazlama qiyqimlarini № 40 iplar yordamida tikiladi. (50-rasm)

50-rasm. Iplar.

Qaychilar. Qaychi – turli materiallarni kesish (qirqish) uchun ishlatiladigan asbob. Dastlabki qaychi bir-biriga egiluvchan yoysimon metal plastina bilan biriktirilgan ikki pichoqdan iborat bo'lgan, hozirgi qaychilarga o'xshash (sharnirli biriktirilgan 2 pichoqdan iborat) qaychi mil. av. XVIII asrda Yaqin Sharqda yaratilgan va asta-sekin takomillashtirilib borilgan. Hunarmandchilik (kosiblik, tikuvchilik, tunikasoqlik, bog'dorchilik va boshqa kasblar) rivojlangan sari qaychining turi ham ko'paya borgan (chevarchilik qaychisi, tok qaychisi, tunika



qaychi va b.). (51-rasm)

51-rasm. Qaychilar.

Sanoat rivojlana boshlagach (XVIII asr 60-yillaridan boshlab), mexanik qaychilar paydo bo'ldi. Keyinchalik (XIX asr 30-40 yillari) elektr qaychilar yaratildi. Hozirgi qaychilarning dastlabki, mexanik, elektr turlari mavjud. Dastlabki qaychi bilan

¹¹ O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. T.: Davlat ilmiy nashriyoti. 4-jild. 2005y. 205-bet.

mato, qog'oz va boshqa materiallar kesiladi. Uning ro'zg'orda, chilangarlikda, tunika qirqishda, tikuvchilikda, tibbiyotda va boshqa maqsadlarda ishlatilgan xillari bor.¹² Matoni bichish uchun uchli qaychilardan, choklarni so'kish uchun kichkina qaychilardan foydalaniladi. Bundan tashqari matolar g'ildirakli, belgi qo'yilgan maxsus moslamalar yordamida kesiladi. Quroq qiyqimlari va karton andozani kesish uchun oddiy kanselyariya qaychilaridan foydalansa ham bo'ladi.

Bulavka va ignalar. Bulavka – buyum, odatda metallardan tayyorlanib, biror matolarni bir biriga jipslashtirib turuvchi moslama. Quroq bo'laklarni bir biriga qo'l choklarisiz tikuv mashinasida tikishda bulavkalardan foydalaniladi. Bulavkalardan foydalanishning asosiy maqsadi ishni osonlashtirish va kata-katta tikilgan qo'l choklaridan voz kechishdan iborat. Bulavkaning turlari ko'p. Ammo



mato qoldiqlarini birlashtirish jarayonida foydalanish uchun eng qulay bulavkalar bu ingliz bulavkalaridir. Bulavkaning uchi dumaloq plastik qoplamali ignadan iborat. (52-rasm)

52-rasm. Bulavka.

Ignasiz – tikuvchilik, trikotaj ishlab chiqarish, matbaa va boshqalarda keng ishlatiladigan tikuv quroli. Tikuvchilik ignasining qo'lda va mashinada tikiladigan xillari bor. Qo'lda tikiladigan igna xilma-xil yo'g'onlikdagi po'lat simdan suyri, o'tkir, ip o'tkaziladigan teshikli qilib yasaladi. Ular uzunligi va diametriga qarab raqamlarga bo'linadi. Masalan, 1 dan 9 raqamigacha bo'lgan ignaning yo'g'onligi 0,6 mmdan 1.0 mmgacha, uzunligi 30 mmdan 50 mmgacha bo'ladi. Kiyim-kechak, ko'rpa-to'shak va h.k. tikishda ishlatiladi. Katta-kichikligi va yo'g'onligiga qarab, chok ignasi (chok tikish uchun), qaviq ignasi (qovush uchun), so'zan ignasi (hurjun, to'rva, etik, mahsi va b. tikish uchun), palak igna (palak tikish uchun), mashina ignasi (tikuv mashinasi uchun) kabi xillarga bo'linadi.¹³

Andoza namunalari. Quroq namunasini yaratish uchun bichimning aniqligi juda muhim. Andoza namunalari, ya'ni oddiy geometrik shakllardan tuzilgan

¹² O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. T.: Davlat ilmiy nashriyoti. 10-jild. 2005y. 579-bet.

¹³ O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. T.: Davlat ilmiy nashriyoti. 4-jild. 2005y. 74-bet.

bo'lib, ularni qirqish va tikish chiziqlari ko'rsatilgan yoki tiniq plastikdan bo'lishi mumkin. Shaffof plastik andoza namunalarida mato tasvirlarini aniq ko'rish mumkin. Sotuvda quroq uchun mo'ljallangan metallardan tayyorlangan choklarni belgilash uchun chiziqlar tushirilgan namuna andozalar mavjud. Chok uchun paxta matolarda 5 mm, sitilib ketadigan matolarda 1 sm qo'shiladi. Andozani matoga qo'yishda matoning uzunasiga to'qimi hisobga olinadi. To'rtburchakli detallar matoning bu to'qimiga mos tushishi va uchburchak, oltiburchakli detallarda esa matoning to'qimiga perpendikulyar ravishda joylashishi lozim.

Gazlamalar. Gazlama qiyqimlari har bir uyda ham topiladi. Quroq uchun hamma qiyqimlar to'g'ri kelaveradi, ammo 1ta buyumda bir-biriga mos qalinlikdagi va fakturasi bir xil matolardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Quroq namunasini tikishda mayda qismlardan katta qismlarga o'tiladi. Qismlarni ketma-ket yig'ilib, ulardan bir butun buyumlar hosil qilinadi. Quroqni qo'lda yoki tikuv mashinasida tikish mumkin. Qo'lda tikish uchun matoning teskarisiga andoza namunalari yordamida belgilab chiqiladi, bulavka bilan jipslashtirilib mayda chok yordamida tikiladi. Ip chokning boshi va oxirida tuguncha bilan qotiriladi. Bu usul Yevropa xalqlari orasida "Buvimning bog'i" deb nomlanadi. Bu usulda asosan oltiburchakli qirqimlar ishlatiladi. Kartondan yasalgan andozachalar bir-biriga tikib chiqiladi. Tikuv mashinasida chok yurgizish jarayonida ikkita qism birlashtirib tikilgandan so'ng, qolgan qismlarini ipni uzmasdan tikish davom ettiriladi.

Dazmol. Dazmol – gazlama, kiyim-kechak mahsulotlari va boshqalarga issiqlik ishlovi berish (qizdirib silliqlash) uchun mo'ljallangan asbob. Uy-ro'zg'orda, maishiy xizmat korxonalarida, tikuvchilik fabrikalarida ishlatiladi. Dazmolning ko'mir yoki o'tin cho'g'ida qizdiriladigan, plita ustiga qo'yib qizdiriladigan va elektr xillari bor. Hozir, asosan, elektr dazmollar ishlatiladi. U metal asos, qopqoq, qizdirish elementi (spiral) va shnurdan iborat. Ba'zi elektr dazmollar issiqlik darajasini o'zgartiradigan (termorostlagichli) qilib ishlab chiqariladi. Ba'zi dazmollarda dazmollanadigan joyni ho'llab turadigan suv "kosacha" bo'ladi. Tikuvchilik fabrikalari, maishiy korxonalarda maxsus (og'irroq

va quvvatliroq) dazmollash preslari ishlatiladi. Ko'pchilikda ishlatiladigan dazmollar 90-100° gacha qizdiriladigan plita va unga terini qisadigan rolikdan iborat. Dazmol qadimdan ma'lum. XI asrda O'rta Osiyoda dazmol andavaga o'xshagan temir asbob bo'lib, uni o'tda qizdirib, kiyimning chok va bahyalarini bostirganlar, sirtini silliqdiganlar. Keyinchalik, olov dazmol paydo bo'lgan. U paytlarda utuk (olov) deb atashgan. (M.Koshg'ariy. Turkiy so'zlar devoni, T., 1960). Hozir ham Xorazm, Samarqand viloyatlarida xalq dazmolni utuk deb yuritadi.¹⁴

Tikuv mashinasi. Tikuv mashinasi – kiyim-kechak tikish, buyumlarni bezash (choklar hosil qilib naqsh tushirish), ularni qovush va boshqa maqsadlarda ishlatiladigan mashina. Tikuv mashinasini birinchi marta 1755-yilda ingliz ixtirochisi CH.F.Veyzentel ixtori qilgan. Nemis ixtirochisi I.M.Zinger tikuv mashinasini 1851-yilda takomillashtirdi. Shundan so'ng sanoatda keng qo'llanila boshladi. Tikuv mashinasining choklaydigan, tugma qadaydigan, tepchiydigan va qo'lda, oyoqda va elektr bilan harakatlanadigan, mokili va mokisiz, bir va ko'p ignali xillari mavjud.¹⁵

Xalqimizda shunday maqol bor: Ish quroling soz bo'lsa, mashaqqating oz bo'lur. Yuqoridagi jihozlar va anjomlar quroq kompozitsiyasining chiroyli, tartibli tikilishi uchun zarur ashyolardir.

¹⁴ O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. T.: Davlat ilmiy nashriyoti. 3-jild. 2005y. 173-bet.

¹⁵ O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. T.: Davlat ilmiy nashriyoti. 8-jild. 2005y. 427-bet.

III bob bo'yicha xulosa

Bizga ma'lumki, jamiyatimizda yuz berayotgan yangilanishlar, sa'nat sohasida jadal rivojlanib borayotgan, milliy madaniyatimiz rivojiga keng yo'l va imkoniyat ochib bermoqda. Respublikamizda badiiy ta'lim islohotlarini yanada chuqurlashtirish, malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash borasida ularning kasbiy xususiyatlarini rivojlantiruvchi, shuningdek, iqtidorli, ijodkorlik ko'nikmalarini o'zida namoyon qiluvchi va sohaga qiziqish uyg'ota oluvchi, o'z yo'nalishini topishda, umuman Amaliy san'at yo'nalishining o'ziga xos tomonlarini o'rgatuvchi hunar sifatida zaruriyati katta.

To'qimachilik mahsulotlarini badiiy bezashda usta chevar hunarmandlar ijodiy manbani milliy san'at an'analari va tarixiy merosdan olishadi. Zero turli davrlarda tabiat hodisalari, xalq ijodi turlicha talqin etib kelingan, bu esa o'z navbatida ijod uchun tuganmas manba bo'lib xizmat qiladi.

Magistrlik dissertatsiyamning ushbu bobini tayyorlash jarayonida Xalq amaliy san'ati turi bo'lmish Quroq san'atining yaratilish jarayoni bilan yana bir bor yaqindan tanishib chiqdim. Bu san'atni mukammal egallash uchun vaqt va sabr-toqat kerak bo'ladi. Muvaffaqiyatning asosiy sharti – ijodkorlik va orastalik. Qiyqimlardan mato hosil qilayotgan chevar o'z mehnati natijasini kuzatib boradi va o'z dunyoqarashiga tayanadi. Turli mato bo'laklarining rang-barang ranglari bir-birini mohirona to'ldirib, an'anaviy bichimlarda geometrik shakllarning uyg'unlashuvi orqali yaratilgan buyumlar, takrorlanmas badiiy asar hosil qiladi. Milliy kiyimlarimiz va buyumlarimizda quroq san'atining qo'llanilishi g'o'zallik, orastalik namunasi bo'libgina qolmay, badiiy xalq madaniyatining bir qismidir. Bu esa inson ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Magistrlik dissertatsiya ishimning amaliy qismini bajarish davomida geometrik shakllar, matolar bilan ishlashni yaqindan o'rganib, kompozitsion yechim, stilizatsiya, garmoniya, yaxlitlik, qarama-qarshilik, nisbat kabi tushunchalarning ma'nosini tushunib yetdim.

Umumiy xulosa

Har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini, kelajagini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analari, milliy va hayotiy qadriyatlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng, yosh avlodga xalqimizning o'tmishi, tarixidan darak beradigan azaliy qadriyatlari, urf-odatlarini qayta tiklash va ularni zamonaviy hayotga uyg'unlashtirish ishlariga alohida ahamiyat qaratildi. Ma'lumki, o'zbek amaliy san'ati ko'p asrlik tarixga ega. Amaliy san'at durdonalaridan hisoblangan kashtachilik, zardo'zlik, quroqchilikning qadimdan rivojlanib kelayotgan o'z an'analari va badiiy uslublari bor. Hozirda nafaqat xalqimizni, balki jahondagi ko'plab mamlakatlar xalqlarini o'zining go'zalligi, serjiloligi, milliyligi bilan hayratga solgan kashtachilik, quroqchilik va zardo'zi mahsulotlari o'zbek amaliy san'atining o'ziga xosligidan dalolat beradi. Ma'lumki, quroq bitta buyumda rangi va fakturasi turlicha bo'lgan gazlama qoldiqlarini birlashtirish usulidir. Qadimdan yurtimiz chevarlari tomonidan quroqlarning turli xil shakllari yaratilgan va ularni qo'llab kundalik hayotda ishlatish uchun ajoyib buyumlar tikilgan.

Quroq tikish san'ati xalqimizning nafaqat estetik didi, balki isrofgarchilikka yo'l qo'ymaydigan, tejamkor va san'atga oshno qalb egasi ekanligidan ham dalolat beradi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, xalqimiz yaratgan har bir quroq san'ati asari namunalaridagi belgilar, bezaklar va ramzlar so'zlaydi. Chunki san'at namunalarining hech bir qismi shunchaki emas, ulardagi har bir detal va ko'rinish xalqning turmush tarzi, orzu umidlari va an'alarini o'zida aks ettiradi.

So'nggi paytlarda jahonning eng mashhur dizaynerlari faoliyatini kuzatar ekanmiz, ayollar liboslarida quroq uslubidan foydalanilgan kompozitsiyalarni uchratamiz. Bunga sabab, tanlangan quroq elementlari nafaqat kiyimni bezaydi, balki iste'molchida boshqa kiyimlarda uchramaydigan ma'lum ma'nodagi serjilolik, vazminlik, sokinlik yoki yuqori kayfiyat bag'ishlaydi.

Quroq tarixiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ushbu san'at mayda yoki qiyqim mato bo'laklarini bir-biriga ulab, ro'zg'or uchun kerakli buyumlar yaratish qadimdan jahondagi turli xalqlar orasida keng tarqalgan. Xususan, Yevropaga

ushbu usul Sharqdan kirib kelgan bo'lib, pechvork nomi ostida mashhurdir. Rossiyada esa XIX asrda gazlama tikadigan fabrikalar faoliyat ko'rsata boshlagandan so'ng, sanoatda quroq tikish san'ati yo'lga qo'yilgan. Vaqt o'tishi bilan hunarmandchilikning bu turi san'at darajasiga ko'tarilgan va maishiy hayotda keng ko'lamda foydalanilgan.

O'zbekistonda quroqchilik qadimdan ma'lum bo'lib, o'ziga xos xususiyat va an'analarga boy. O'rta asrlarda Alisher Navoiyning "Nasomiy ul-muhabbat" devonida, Imom G'azzoliyning (U hijriy 450-505-yillar, milodiy 1058-1111-yillarda yashab o'tgan. Tus shahrida tug'ilgan.) "Kimyoi saodat" (Ruh haqiqati) hamda Husayn Vois Koshifiy (1440-yil Xurosonda tug'ilib, 1505- yil vafot etgan) asarlarida "muraqqa" (quroq to'n, janda) avliyo yoki darveshlar kiyimi sifatida eslatib o'tilgan. O'rta asr tasavvuf namoyondalari ko'pincha muraqqa yoki unga yaqin kiyimlarda tasvirlanganlar. Yuqoridagi dalillardan ko'rinib turibdiki, quroq san'ati yurtimizda XI-XII asrlarda ham mavjud bo'lib, kamida to'qqiz asrlik tarixga ega.

Ayrim adabiyotlarda mamlakatda iqtisodiy inqiroz yuzaga kelgan vaqtda ochlikdan qiynalgan xalq ro'zg'or qilish uchun quroq tikishga majbur bo'lgan deb yozilgan. Ammo, insonlarni quroq tikishga undagan asosiy kuch – bu ularning ijodkorlikka, yangilik va go'zallik yaratishga, o'z ijodiy qobiliyatini va yaratuvchanlik mahoratini yorqin tarzda ifodalashga bo'lgan intilishidir.

Qadimdan yurtimiz ayollari tomonidan quroqlarning turfa xil shakllari yaratilgan va ularni qo'llab kundalik hayotda ishlatish uchun ajoyib buyumlar tikilgan. Hech bir o'zbek xonadoni yo'qki quroq uslubida yaratilgan amaliy san'at namunalaridan foydalanmasa. Xalqimiz xonadonlarida bunday buyumlarning bo'lishi va foydalanilishi o'ziga xos an'ana hisoblanadi. Chunki quroq namunalarining har biri yaxshi niyat va ezgu istaklar ramzidir. Masalan, qadimdan yurtimizda har bir qiz turmushga chiqishi oldidan kelinlik sepi uchun o'z qo'llari bilan quroq san'atidan foydalangan holda buyumlar tikishi lozim bo'lgan. Dono momolarimizning hikmatiga binoan quroq qurayotgan qiz o'z baxtini jamlayotgan hisoblanib, o'sha qiz albatta baxtli bo'lar ekan. Shu bilan birgalikda quroq qurash

jarayoni inson uchun ma'naviy ozuqa bo'lib, miyyani dam oldirish xususiyatiga ham ega.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, quroq san'ati bilan shug'ullanish boshqa hunarmandchilik turlariga nisbatan eng tejamkor, kam sarf-harajat talab qiladigan san'at. Mato qiyqimlaridan chevarlar turli buyumlar: qo'g'irchoqlar, pannolar, ko'rpa, to'shak, yostiq jildlari, dasturxon, tutgich, parda, gilamcha, sumka, jaket va boshqa buyumlar tikishgan.

Takliflar

Magistrlik dissertatsiyadan kelib chiqib berilgan takliflar quyidagilardan iborat:

1. Yo'qolib borayotgan Quroq san'ati namunalari asosida ijodiy ko'rgazmalar tashkillash;
2. Milliy, madaniy merosimizni saqlagan holda Quroq san'atida "Ustoz-shogird" an'alarini davom ettirgan holda hunarmandchilik uylarini tashkillash;
3. Oliy ta'lim muassasalari Tasviriy san'at va Amaliy san'at bezagi yo'nalishlarida o'tilayotgan Tasviriy san'at tarixi, Amaliy-badiiy bezak san'ati, Dizayn, Kompozitsiya asoslari, Tasviriy va amaliy bezak san'ati kompozitsiyasi kabi fanlar kesimida Quroqchilik san'ati haqidagi ma'lumotlardan foydalanish;
4. "Quroq san'ati tarixi va texnologiyasini o'qitish metodikasi" nomli fanni Oliy ta'lim muassasalari Tasviriy san'at va Amaliy san'at bezagi yo'nalishlariga tanlov fan sifatida kiritish. Ushbu tanlov fan uchun 20 soat ma'ruza, 20 soat amaliy mashg'ulotlarini tashkillash;
5. Kiyim ishlab chiqarish korxonalarida usta chevar hunarmandlar asosida "Quroqchilik bo'limi"ni tashkillash.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati:

I. Rasmiy adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016 yil.
2. Sh.Mirziyoyev. 2017-yil 3-avgust kunidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mamlakatimiz ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvda so'zlagan nutqidan.
3. Sh.Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017 yil.

II. Ilmiy o'quv adabiyotlar:

1. A.B.Kasimova, N.M.Mirfayazova. To'qimachilik mahsulotlarini badiiy bezash asoslari. (O'quv qo'llanmasi) – Toshkent, 2019.
2. B.Q.Xolmatov. Kompozitsiya. – Toshkent, 2007.
3. K.M. G'ulomov. Amaliy san'at. – Toshkent, 2008.
4. K.M. G'ulomov. Ashyolarga badiiy ishlov berish. – Toshkent, 2004.
5. M.H.Saydullayeva. Ayollar zamonaviy liboslari uchun quroq turlarini qo'llash va tayyorlash texnikasi. (Bakalavr diplom ishi) – Qarshi, 2015.
6. N.Gafurova, L.Mahmudov. Kompozitsiya asoslari. (O'quv qo'llanma) – Toshkent, 2014.
7. Q.M.Abdullayeva, M.A.Maxsumova, M.H.Rahimjonova. Gazlamaga badiiy ishlov berish, kashtachilik va uni o'qitish metodikasi. (Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma) – Toshkent: Voris-Nashriyot, 2012.
8. S.S. Bulatov. O'zbekiston xalq amaliy bezak san'ati. – Toshkent, 1991.
9. X.B.Muhammedova. Mehnat ta'limi darslarida o'quvchilarning xalq hunarmandchiligiga oid bilim va ko'nikmalarni shakllantirish metodikalari. (Magistrlik dissertatsiyasi). – Toshkent, 2014.
10. X.M.Akramov. Badiiy mehnat asoslari. (Ma'ruzalar matni) – Namangan, 2013.

11. Z.Ismatov. O'zbek xalq amaliy san'atining rivojlanish bosqichlarini talabalarga o'rgatish metodikasi. (Magistrlik dissertatsiyasi) – Samarqand, 2013.
12. Б.Х.Кармынова. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. – Москва, 1976.
13. Д.А.Фахретдинова. Декоративно-прикладное искусства Узбекистана XVIII-XIX веков. – Ташкент, 2000.
14. Е.В.Лебедева, Р.М.Черемных. Искусство художника-оформителя. – Москва, 1981.
15. Л.Е.Димитриев-Кавказский. По Средней Азии. Записки художника. – Баку, 1894.
16. М.Т. Семенова. Народное искусство и его проблемы. (Очерки) - Москва: Советский художник, 1977.

III. Davriy materiallar:

1. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. – Toshkent : Davlat Ilmiy nashriyoti, 2005.
2. O'zbekiston Badiiy Akademiyasining jurnali. San'at/Art/Искусство. – Toshkent, № 3/2004.
3. O'zbekiston Badiiy Akademiyasining jurnali. San'at/Art/Искусство. – Toshkent, № 3-4/2008.
4. O'zbekiston Badiiy Akademiyasining jurnali. San'at/Art/Искусство. – Toshkent, № 3/2009.
5. O'zbekiston Badiiy Akademiyasining jurnali. San'at/Art/Искусство. – Toshkent, № 2/2013.
6. O'zbekiston Badiiy Akademiyasining jurnali. San'at/Art/Искусство. – Toshkent, № 3/2015
7. Российский Журнал. Наука и жизнь. – Москва, №2/1998.

IV. Internet materiallari:

- | | |
|---------------|---------------|
| 1. Ziyonet.uz | 3. Art.ru |
| 2. Moda.ru | 4. Referat.uz |

Ilovalar

1-ilova

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

“Himoyaga ruhsat etilsin”

Magistratura fakulteti dekani

_____ p.f.n. X.Najmiddinova

2020 yil “_____” _____

5A110801 – “Tasviriy san’at va amaliy bezak san’ati”

2-kurs magistranti

**Sulaymanova Sevaraxon Bahodirjon qizining
““Quroq san’ati” tarixi va hozirgi kundagi talqini” mavzusidagi
MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI**

Ilmiy rahbar: dots. O'.Abdullayev

Namangan-2020

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

TASVIRIY VA AMALIY SAN'AT KAFEDRASI

“Tasdiqlayman”

fakultet dekani

_____ p.f.n. X.Najmiddinova

“ ____ ” _____ 20__yil

“Himoyaga ruxsat beraman”

_____ kafedra mudiri,

katta o'qituvchi B.Oripov

“ ____ ” _____ 20__yil

Ekspert kommissiyasi raisi:

“ ____ ” _____ 20__yil

Magistrant: _____

Ilmiy rahbar: _____

**5A110801 – “Tasviriy san’at va amaliy bezak san’ati” mutaxassisligi
magistranti Sulaymanova Sevaraxon Bahodirjon qizining ““Quroq san’ati”
tarixi va hozirgi kundagi talqini” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasiga
TAQRIZ**

O'zbek amaliy san'ati ko'p asrlik tarixga ega. Amaliy san'at durdonalaridan hisoblangan quroqchilikning qadimdan rivojlanib kelayotgan o'z an'analari va badiiy uslublari bor. Hozirda nafaqat xalqimizni, balki jahondagi ko'plab mamlakatlar xalqlarini o'zining go'zalligi, serjiloligi, milliyliigi bilan hayratga solgan quroqchilik mahsulotlari o'zbek amaliy san'atining o'ziga xosligidan dalolat beradi. S.Sulaymanovanning ““Quroq san’ati” tarixi va hozirgi kundagi talqini” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi xalq amaliy san'atining qadimdan mavjud bo'lgan, tarixiy ravnaq topib hozirda yo'qolib ketayotgan san'at turning dolzarb masalalariga asoslangan. Magistrlik dissertatsiyasi belgilangan talab darajasida rasmiylashtirilgan. Dissertatsiya 3 bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar va ilovalarni o'z tarkibiga qamrab olgan.

Magistrlik dissertatsiyasining birinchi bobi “Milliy hunarmandchilikka asoslangan quroqchilik san'ati tarixining nazariy asoslari dekorativ-amaliy san'at namunasi sifatida va uning turlari” deb nomlangan. Ushbu bobda muallif Quroq san'atini Xalq amaliy san'atning eng asosiy tarkibi sifatida chuqur o'rgangan, bu san'at turning Yevropa va Osiyo mamlakatlari orasida rivojlanish bosqichi va uning turlari haqida yoritib bergan.

Ikkinchi bobi “Quroqchilik san'ati namunalarining ishlab chiqarilish texnologiyasi” nomli bobda Quroq san'ati uchun kerakli matolarning tanlanishi, matolarni kompozitsion loyihalash hamda Quroq san'atida Tasviriy san'at oqimlarining qo'llanilishi haqida qiziqarli ma'lumotlar mavjud va ular tahlil qilingan. Xususan, mohir rassom chevar va hunarmandlar ijodiga to'xtalib o'tilgan.

Dissertatsiyaning ““Gullagan vodiy” mavzusida yaratilgan dekorativ kompozitsiya” nomli uchunchi bobida S.Sulaymanova o'zining Quroq san'atining o'tmishi va hozirgi kundagi an'alarini bir-biriga bog'lab amaliy bajargan ijodiy ishiga asoslangan, bu bobda kompozitsiyada uchraydigan stilizatsiya elementlari, ranglar garmoniyasi, kompozitsiya bo'laklarining ritmik harakati haqidagi ma'lumotlar berilgan.

Magistrant S.Sulaymanovanning 5A110801 – “Tasviriy san'at va amaliy bezak san'ati” mutaxassisligi bo'yicha bajargan ““Quroq san’ati” tarixi va hozirgi kundagi talqini” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi barcha talablarga javob beradi, ishni a'lo bahoga loyiq deb hisoblayman va DAK himoyasiga tavsiya etaman.

**O'zbekiston Badiiy Akademiyasi
akademigi, professor**

 **A. Akparov**

5A110801 – “Tasviriy san’at va amaliy bezak san’ati” mutaxassisligi magistranti
 Sulaymanova Sevaraxon Bahodirjon qizining **““Quroq san’ati” tarixi va hozirgi
 kundagi talqini”** mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasiga

TAQRIZ

O‘zbek xalqining boy badiiy merosi, uning jahon san’ati tarixidagi o‘rni, taraqqiyot bosqichlari va zamonaviy yo‘nalishlarini chuqur o‘rganish hamda rivojlanish istiqbollarini belgilash, milliy g‘oyaga mos tadqiqotlarni amalga oshirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

S.Sulaymanovaning **““Quroq san’ati” tarixi va hozirgi kundagi talqini”** mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi xalq amaliy san’atining qadimdan mavjud bo‘lgan, tarixiy ravnaq topib hozirda yo‘qolib ketayotgan san’at turning dolzarb masalalariga asoslangan.

Dissertatsiya 3 bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar va ilovalarni o‘z tarkibiga qamrab olgan.

Birinchi bobi **“Milliy hunarmandchilikka asoslangan quroqchilik san’ati tarixining nazariy asoslari dekorativ-amaliy san’at namunasi sifatida va uning turlari”** deb nomlangan. Ushbu bobda muallif Quroq san’atini Xalq amaliy san’atning eng asosiy tarkibi sifatida chuqur o‘rgangan, bu san’at turning Yevropa va Osiyo mamlakatlari orasida rivojlanish bosqichi va uning turlari haqida yoritib bergan.

Ikkinchi bobi **“Quroqchilik san’ati namunalarining ishlab chiqarilish texnologiyasi”** nomli bobda Quroq san’ati uchun kerakli matolarning tanlanishi, matolarni kompozitsion loyihalash hamda Quroq san’atida Tasviriy san’at oqimlarining qo‘llanilishi haqida qiziqarli ma’lumotlar mavjud va ular tahlil qilingan. Xususan, mohir rassom chevar va hunarmandlar ijodiga to‘xtalib o‘tilgan.

Dissertatsiyaning **““Gullagan vodi” mavzusida yaratilgan dekorativ kompozitsiya”** nomli uchunchi bobida S.Sulaymanova o‘zining Quroq san’atining o‘tmishi va hozirgi kundagi an’analarini bir-biriga bog‘lab amaliy bajargan ijodiy ishiga asoslangan, bu bobda kompozitsiyada uchraydigan stilizatsiya elementlari, ranglar garmoniyasi, kompozitsiya bo‘laklarining ritmik harakati haqidagi ma’lumotlar berilgan.

Magistrant S.Sulaymanovaning 5A110801 – “Tasviriy san’at va amaliy bezak san’ati” mutaxassisligi bo‘yicha bajargan **““Quroq san’ati” tarixi va hozirgi kundagi talqini”** mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi barcha talablarga javob beradi, ishni a’lo bahoga loyiq deb hisoblayman va DAK himoyasiga tavsiya etaman.

Farg‘ona davlat universiteti

San’atshunoslik fakulteti

Tasviriy san’at kafedrasining mudiri



B.Qurbonova

**5A110801 – “Tasviriy san’at va amaliy bezak san’ati” mutaxassisligi
magistranti Sulaymanova Sevaraxon Bahodirjon qizining “Quroq san’ati”
tarixi va hozirgi kundagi talqini” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasiga
ILMIY RAHBAR XULOSASI**

5A110801 – “Tasviriy san’at va amaliy bezak san’ati” mutaxassisligi magistranti Sulaymanova Sevaraxon Bahodirjon qizining “Quroq san’ati tarixi va hozirgi kundagi talqini” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi bugungi kundagi dolzarb mavzuga asoslangan. Magistrlik dissertatsiyasi belgilangan talab darajasida rasmiylashtirilgan.

Magistrlik dissertatsiyasi tarkibiy tuzilishiga ko’ra uchta bob, umumiy xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar hamda ilovalardan iborat.

Magistrlik dissertatsiyasining birinchi bobi “Milliy hunarmandchilikka asoslangan quroqchilik san’ati tarixining nazariy asoslari dekorativ-amaliy san’at namunasi sifatida va uning turlari” deb nomlangan bo’lib, unda adabiyotlar sharhi va tadqiqotning materiallari, quroqchilik san’ati tarixiy taraqqiyoti, quroq san’atining turlari, Yevropa va Osiyo mamlakatlari orasida tarqalishining eng asosiy xususiyatlarga e’tibor qaratilgan. V.Sherbakova, T.Sharipov, Q.Aliyeva va boshqa rassom hunarmandlar ijodi o’rganilgan. Shuningdek, O’zbek xalqi milliy madaniyatida yo’qolib ketayotgan quroq san’atining ahamiyati keng yoritib berilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “Quroqchilik san’ati namunalarining ishlab chiqarilish texnologiyasi” nomli bobda quroq uchun kompozitsiya izlash va quroq tikish uchun matolarning tanlanishi, quroq texnikasi va quroq texnikasida tasviriy san’at uslublarining qo’llanilishi haqida ma’lumotlar tavsifi berilgan.

Dissertatsiyaning “Gullagan vodiy mavzusida yaratilgan dekorativ kompozitsiya” nomli uchunchi bobida magistrantning quroq san’ati tarixi va hozirgi kun talqini asosida bajarilgan ijodiy ishining tasnifi berilgan. Dekorativ kompozitsiyaning mohiyati, elementlarning ramziy ma’nosi, kompozitsiya uchun mozaik tasvir yaratish, kompozitsiyani yaratishda kerak bo’ladigan materiallar va bezaklarning tayyorlanishi amalda ko’rsatib berilgan.

Magistrant S.Sulaymanovaning 5A110801 – “Tasviriy san’at va amaliy bezak san’ati” mutaxassisligi bo’yicha bajargan “Quroq san’ati tarixi va hozirgi kundagi talqini” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi DTS talablari asosida yozilgan bo’lib, ishni tugallangan taqdimot sifatida a’lo baholayman va DAK himoyasiga tavsiya etaman.

Ilmiy rahbar:



dots. O'.Abdullayev



Scanned with
CamScanner

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

Magistratura bo'limi 2-bosqich

ta'lim _____ yo'nalishi _____ bitiruvchisi _____ning

_____ mavzusidagi magistrlik dissertasiyasi Nizomga asosan qo'yidagicha baholandi:

№	Magistrlik dissertatsiyasining darajasi	Ball
1	Hajmi va sifatli rasmiylashtirish (tushuntirish hajmi 10-15 ming so'z hajmida bo'lishi kerak)	
	A) talabga javob beradi	
	B) talabga javob berishi to'la emas	
	V) rasmiylashtirish sifatli emas	
2	Mavzuning tanlanishi	
	A) buyurtmachi tashkilot tavsiya etgan	
	B) davlat dasturi yoki grant loyihasi bo'yicha	
	V) NamDU dasturi yoki boshqa muammo	
3	Mavzu dolzarbligini asoslash	
	A) yetarli darajada asoslangan	
	B) yetarli darajada asoslanmagan	
	V) noaniq asoslangan	
4	Maqsad va vaziqalarning ifodalanganligi	
	A) aniq	
	B) aniqligi to'la emas	
	V) aniq emas	
5	Ilmiy-tadqiqot usullaridan foydalanish	
	A) to'la	
	B) qisman	
	V) deyarli foydalanilmagan	
6	Olingan natijalarning yangilik va ishonchlilik darajasi	
	A) yangi va ishonchli	
	B) ilgari olinganga qiyoslangan	
	V) ishonchliligi to'la emas	
7	Xulosa qismining mazmuni	
	A) bevosita qo'llashga tavsiyalar berilgan	

	<i>B) tavsiyalar ishonchli emas</i>	
	<i>V) tavsiyalar tushunarsiz yoki umuman berilmagan</i>	
8	Adabiyotlardan foydalanish	
	<i>A) xorijiy, Respublika ilmiy jurnallari, monografiyalari, internet materiallaridan yetarli miqdorda</i>	
	<i>B) ilmiy adabiyotlardan etarli foydalangan</i>	
	<i>V) faqat darslik, o'quv qo'llanma, metodik ko'rsatma, ma'ruza matnlari, ma'lumotnomalar va boshqalardan</i>	
9	Himoya (ma'ruza) qilish	
	<i>A) a'lo</i>	
	<i>B) yaxshi</i>	
	<i>V) qoniqarli</i>	
10	Tashqi taqriz	
	<i>A) a'lo</i>	
	<i>B) yaxshi</i>	
	<i>V) qoniqarli</i>	
yakuniy ball		

Magistrning magistrlik dissertatsiyasi himoyasi bo'yicha to'plagan reyting bahosi

DAK raisi: _____

A'zolari: _____

Kotib(a): _____

M.O'. sana "_____" 20__yil

Magistrlik dissertatsiyasining kirish qismida

- magistrlik dissertatsiyasi mavzusining dolzarbligi;
- tadqiqotning obyekti va predmeti;
- tadqiqotning maqsadi va vazifalari;
- mavzuning o'rganilganlik darajasi;
- tadqiqotning ilmiy yangiligi;
- tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari;
- tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi (tahlili);
- tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi;
- tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati;
- ish tuzilmasining tavsifi.